OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

2025, №2

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal

EDITION 2

https://scientificjournal.uz/

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Osiyo Xalqaro Universiteti

“OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025-yil, 2-son

Jurnal 2024-yildan chiqa boshlangan

“KAMOLOT” nashriyoti

BUXORO – 2025

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Muassis: OSIYO XALQARO UNIVERSITETI
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Elov Ziyodullo Sattorovich, Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Jamoatchilik kengashi raisi:
Dexkanov Suxrob Sobirovich, Osiyo xalqaro universiteti rektori

Mas’ul kotib:
Sattorov Mirshod Erkinovich

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24-uy,
E-mail: sjkamolot@gmail.com
Jurnal sayti: https://scientificjournal.uz/

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

1936

Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

TAHRIR HAY'ATI – РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

DEXKANOV S.S.	Osiyo xalqaro universiteti rektori
ABDULLAYEVA B.S.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
MAKSIMENKO S.D.	Psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina)
AKRAMOVA F.A.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
QODIROV U.D.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
ABDULLAYEVA D.U.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
URAZBAYEVA D.A.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
KARSHIYEVA D.A.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
JABBOROV X.X.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
GANJIYEV F.F.	Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
CHUDAKOVA V.P.	Psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina)
OLIMOV L.Y	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor (O'zbekiston)
BAFAYEV M.M.	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)
SATTOROV M.E	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (O'zbekiston)
YANAKIYEVA YE.K.	Pedagogika fanlari doktori, professor (Bolgariya)
ROMM T.A.	Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)
HAMROYEV A.R.	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
JO'RAYEV X.O.	Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
OLIMOV T.H.	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)
KOZUBSOV I.N.	Pedagogika fanlari doktori, dotsent (Ukraina)
DAVRONOVA Sh.F.	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
KAMILOVA U.K.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
IBODULLAYEV Z.R.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
SALIMOV Sh.T.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
IXTIYAROVA G.A.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
BABADJANOV A.X.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
YUSUPBEKOV A.A.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
YUSUPALIYEVA G.A.	Tibbiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
BERNATSKIY G.G.	Yuridik fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)
KARIMOV B.Sh.	Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
MUSTAFA SAID ARSLON.	Filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
O'RAYEVA D.S.	Filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
QILICHEV B.E.	Filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)
RO'ZIYEVA M.Y.	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)
TILEUKULOV G.S.	Tarix fanlari doktori, dotsent (Qozog'iton)
VOHIDOV Sh.X.	Tarix fanlari doktori, professor (Tojikiston)
HAYITOV Sh.A.	Tarix fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
TO'RAYEV H.H.	Tarix fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
QILICHOV O.A.	Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
ERGASHEV J.Y.	Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)
ABDURAHMONOV M.A.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
NAVRUZZODA B.N	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
MAHMUDOV N.M.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
BO'TABOYEV M.T.	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (O'zbekiston)
QODIROV A.A	Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (O'zbekiston)
URAYEV G.A.	Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

MUNDARIJA

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Haqqulova Dilshoda Abduvasiyevna. *Adabiyotshunos olim Abdurahmon Go'zalning Navoiyshunoslikdagi izlanishlari* 11
Saidova Rayhon Bekmurodovna. *She'r va shoirlik xususida mulohazalar Munis va Maxmur ijodida* 19

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Davronova Shaxlo Farmonovna. *Pedagog-kadrlarida raqamli kompitentsiyalarni shakllantirish mexanizmlari* 25
Maxmudova Nigora Hikmatovna. *Badiiy matnlarni o'zlashtirishda kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish* 31
Atoyeva Mehriniso Farhodovna. *Kredit-modul tizimida ta'lim samaradorligini oshirishda integratsion yondashuvlarning o'rni* 38
Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovich., Baqoyev Umid Ubayd o'g'li. *Musobaqalarda futbol atamalarini ishlatilishi* 47
Qurbonova Zilola Ismoil qizi. *Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili* 53
Sayfullayeva Nozima Baxodirovna. *Boshlang'ich sinf matematika darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish* 61
Xodjiyeva Dilfuza Rustamovna. *Globallashuv sharoitida bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining musiqiy-badiiy didini shakllantirishning dolzarbligi* 68
Musayeva Amina Karamatovna. *Talabalarda kommunikativ kompetentlikni ivojlantirishda fanlar integratsiyasi* 79
Sidiqova Yulduz Sobirovna. *Neyropedagogika yordamida tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatini rivojlantirish* 88
Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi. *Bo'lajak kimyo o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish* 96
Файзуллаева Садокат Фуркатовна. *Международный и национальный опыт обучения химии: сравнительный анализ* 102
Тўланов Мамасидиқ. *Ёшлар онгида экологик муаммоларни олдини олишга қаратилган баъзи масалалар* 121
Идиева Нигинабону Эркин кизи. *Формирование навыков чтения у младших школьников: современные подходы и методики* 127
Hamroyeva Sanobar Hasan qizi. *Methodological approaches based on the development of medical and technical knowledge of students in practical english language classes* 141
Сколота Ксения Александровна. *Технологии игровой педагогики* 148

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kurbaniyazov O‘ktam. *Shaxs tarbiyasida qur’on va hadisning pedagogik ahamiati* 157
Abdumutalipov Nodirbek Abdulaziziovich. *Bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik kasbiy ko’nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari* 165

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

Turayeva Dilafruz Rustamboyevna. *Avtoritar uslubning o‘quvchilar o‘quv motivasiyasiga ta’siri xususiyatlari* 172
Ostonov Jasur Shopirjonovich. *Ta’limda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari* 194
Maxmudova Zulfiya Mexmonovna. *Qo‘riqlash xizmati xodimlarining kasbiy kompetentligining o‘ziga xosligi* 203
Saidova Ozoda Tohirovna. *Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik imidjiga ta’sir etuvchi psixologik omillar* 213
Avezov Olmos Ravshanovich., Ashurova Zarina Rajab qizi. *Oilaviy munosabatlarning psixosomatik kasalliklarga ta’siri* 220
Sattorov Abbos Salimovich. *Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishning zamonaviy tendensiyalari* 228
Tairov Shavkat Muxamadovich. *Turli jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi* 235
Qo‘ldoshev Shahzod Navro‘zovich. *O‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy psixologik muammolari* 244
Baxronova Shoira Yadgorovna. *Ayollarda ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik xususiyatlari* 252
Tog‘ayev Lazizbek Bahriddinovich. *Talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish texnologiyasi* 258
Ochildiev Umid Bobomurodovich. *O‘quvchilarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari* 265
Rasulqulova Sitora Shodmonjonovna. *Maktab o‘quvchilari orasida yuzaga kelayotgan bilingvizm muammolari* 274
Jakhongir Tokhirovich Nozimov. *Psychological aspects of the formation of a sense of confidence of students in distance education* 280
Эшов Эркин Сатторович. *Психологические аспекты повышение самооценки у спортсменов* 286

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

СОДЕРЖАНИЕ

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Хаккулова Дилшода Абдувасиевна. *Исследование Наваи-исследования литературного критика Абдурахмона Гузала* 11
Саидова Райхон Бекмуродовна. *Размышления о поэзии и поэт в создании Муниса и Махмура* 19

13.00.00 – ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Давронова Шахло Фармоновна. *Механизмы формирования цифровых компетенций у педагогических кадров* 25
Махмудова Нигора Хикматовна. *Формирование когнитивных навыков при освоении художественных текстов* 31
Атоева Мехринисо Фарходовна. *Эффективность образования в кредитно-модульной системе роль интегративных подходов в улучшении* 38
Ибрагимов Манучехр Бахтиёрович., Бакаев Умид Убайдович. *Использование футбольных терминов в соревнованиях* 47
Курбанова Зилола Исмаиловна. *Анализ научно-исследовательских работ по подготовке детей 5-7 лет к школьному образованию в дошкольных образовательных организациях* 53
Сайфуллаева Нозима Баходировна. *Самостоятельная работа на уроках математики в начальных классах организация* 61
Ходжиева Дильфуза Рустамовна. *Значение формирования музыкально-художественного вкуса учащихся детских музыкальных школ и художественных школ в условиях глобализации* 68
Мусаева Амина Караматовна. *Интеграция предметов в развитии коммуникативной компетентности студентов* 79
Сидикова Юлдуз Собировна. *Развитие критического мышления и аналитических навыков с помощью нейропедагогики* 88
Болтаева Шахрибону Ахмадовна. *Совершенствование методической подготовки будущих учителей химии на основе педагогических технологий* 96
Файзуллаева Садокат Фуркатовна. *Международный и национальный опыт обучения химии: сравнительный анализ* 102
Туланов Мамасидык. *Некоторые вопросы, направленные на предотвращение экологических проблем в сознании молодежи* 121
Идиева Нигинабону Эркин кизи. *Формирование навыков чтения у младших школьников: современные подходы и методики* 127

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Хамроева Санобар Хасановна. *Методические подходы, основанные на развитии медико-технических знаний студентов на практических занятиях по английскому языку* 141
Сколота Ксения Александровна. *Технологии игровой педагогики* 148
Курбаниязов Уктам. *Педагогическое значение корана и хадисов в личном образовании* 157
Абдумуталипов Нодирбек Абдулазизиович. *Педагогические условия формирования профессиональных акмеологических навыков будущих учителей* 163
Тураева Дилафруз Рустамбоевна. *Особенности влияния авторитарного стиля на мотивацию студентов к обучению* 172

19.00.00 – ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Turayeva Dilafruz Rustamboyevna. *Avtoritar uslubning o'quvchilar o'quv motivasiyasiga ta'siri xususiyatlari* 183
Остонов Жасур Шопиржонович. *Педагогико-психологические особенности формирования метакогнитивных навыков в образовании* 194
Махмудова Зульфия Мехмоновна. *Характеристика профессиональной компетентности сотрудников служб безопасности* 203
Саидова Озода Тохикровна. *Психологические факторы, влияющие на педагогический образ будущих учителей* 213
Авезов Олмос Равшанович., Ашурова Зарина Раджабовна. *Влияние семейных отношений на психосоматические заболевания* 220
Сатторов Аббос Салимович. *Современные тенденции формирования культуры речи учителей начальных классов* 228
Таиров Шавкат Мухамадович. *Психология категорий лиц, совершающих различные преступления* 235
Кулдошев Шахзод Наврузович. *Социально-психологические проблемы подготовки мальчиков к семейной жизни* 244
Бахронова Шоира Ядгоровна. *Психологические особенности повышения социальной активности женщин* 252
Тогаев Лазизбек Бахриддинович. *Технология развития творческой деятельности студентов* 258
Очилдиев Умид Бобомуродович. *Педагогические основы формирования культуры толерантности у студентов* 265
Расулкулова Ситора Шодмонжоновна. *Выходит на поверхность среди школьников проблемы двуязычия* 274
Джахонгир Тохирович Нозимов. *Психологические аспекты формирования чувства уверенности у студентов в условиях дистанционного обучения* 280
Эшов Эркин Сатторович. *Психологические аспекты повышение самооценки у спортсменов* 286

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

CONTENT

10.00.00 – PHILOLOGICAL SCIENCES

Haqqulova Dilshoda Abduvasiyevna. *Research in navai studies by literary critist Abdurahmon Guzal* 11
Saidova Rayhon Bekmurodovna. *Reflections on poetry and poetry in the creation of Munis and Makhmur* 19

13.00.00 – PEDAGOGICAL SCIENCES

Davronova Shakhlo Farmonovna. *Mechanisms for forming digital competences in teaching staff* 25
Makhmudova Nigora Hikmatovna. *Formation of cognitive skills in mastering artistic texts* 31
Atoyeva Mehriniso Farhodovna. *Psychological foundations of improving integrative approaches in the credit-module system* 38
Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovich., Baqoyev Umid Ubayd o'g'li. *Use of football terms in competitions* 47
Kurbanova Zilola Ismailovna. *Analysis of scientific-research works performed on the preparation of 5-7-year-old children for school education in pre-school educational organizations* 53
Sayfullayeva Nozima Bakhodirovna. *Organization of independent work in primary grade mathematics lessons.* 61
Khodzhiyeva Dilfuza Rustamovna. *The value of forming the musical and artistic taste of the students of children's music and art schools in the conditions of globalization* 68
Musayeva Amina Karamatovna. *Integration of subjects in developing communicative competence in students* 79
Sidikova Yulduz Sobirovna. *Development of critical thinking and analytical skills with the help of neuropedagogy* 88
Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi. *Improving the methodological training of future chemistry teachers on the basis of pedagogical technologies* 96
Fayzullayeva Sadoqat Furqat qizi. International and national experience of chemical discharge: a comparative analysis 102
Tulanov Mamasidiq. *Some issues to prevent environmental problems in the mind of youths* 121
Idieva Niginabonu Erkin qizi. Formation of study skills in primary school students: modern approaches and methods 127
Hamroyeva Sanobar Hasan qizi. *Methodological approaches based on the development of medical and technical knowledge of students in practical english language classes* 141
Skolota Ksenia Aleksandrovna. *Technologies of game pedagogy* 148

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kurbanniyazov Uktam. *Pedagogical significance of the quran and hadith in personal education* 157
Abdumutalipov Nodirbek Abdulaziziovich. *Pedagogical conditions for developing acmeology professional skills of future teachers* 165

19.00.00 – PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Turayeva Dilafruz Rustamboyevna. *Features of the impact of the authoritarian style on students' motivation to learn* 183
Ostonov Jasur Shopirjonovich. *Pedagogical-psychological features of the formation of metacognitive skills in education* 194
Makhmudova Zulfiya Mekhmonovna. *Characteristics of professional competence of security service personnel* 203
Saidova Ozoda Tohikrovna. *Psychological factors affecting the pedagogical image of future teachers* 213
Avezov Olmos Ravshanovich., Ashurova Zarina Rajab qizi. *The impact of family relationships on psychosomatic diseases* 220
Sattorov Abbos Salimovich. *Modern trends in forming speech culture among primary teachers* 228
Tairov Shavkat Mukhamadovich. *Psychology of categories of persons who commit various crimes* 235
Kuldoshev Shahzod Navrozovich. *Social psychological problems of preparing boys for family life* 244
Bakhronova Shoira Yadgorovna. *Psychological features of increasing social activity in women* 252
Togayev Lazizbek Bahriddinovich. *Technology for developing students' creative activity* 258
Ochildiev Umid Bobomurodovich. *Pedagogical basis of forming a culture of tolerance in students* 265
Rasulkulova Sitora Shodmonjonovna. *Is coming to the surface among school students problems of bilinguism* 274
Jakhongir Tokhirovich Nozimov. *Psychological aspects of the formation of a sense of confidence of students in distance education* 280
Eshov Erkin Sattorovich. *Psychological aspects of increasing self-esteem in athletes* 286

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
10.00.00 – PHILOLOGICAL SCIENCES

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

ADABIYOTSHUNOS OLIM ABDURAHMON GO‘ZALNING NAVOIYSHUNOSLIKDAGI IZLANISHLARI

Haqqulova Dilshoda Abduvasiyevna
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Abdurahmon Go‘zal ilmiy izlanishlari uning amaliy faoliyatidan hech qachon ayri bo‘lmagan. U o‘zining tadqiqotlari bilan turkiy olamda ma’naviyat va ma’rifat kurashchisi sifatida tanilgan. Chunki uning olimlik faoliyati faqat kitoblaridagina qolib ketmaydi, balki har bir fikr-qarashlarini hayotga tadbiq qilishga harakat qiladi. Olim uchun til orqali millat ruhini asrash, turkiy tilni dunyo tili darajasiga ko‘tarish, yoshlarning ta’lim-tarbiyasida adabiyot imkoniyat-imtiyozlaridan foydalanish, umumqadriyatlar aks etgan san’at vositasida turkiy dunyoni birlashtirish va hokazo oliy istaklar hamisha ustuvordir.

Maqolada adabiyotshunos olim, buyuk ijodkor Abdurahmon Go‘zal va uning ijod faoliyati, Alisher Navoiy merosini o‘rganishga qo‘shgan juda katta xizmatlari haqida fikr yuritilga.

MAQSAD: Abdurahmon Go‘zal ilmiy faoliyatini o‘rganish orqali Alisher Navoiy faoliyatidagi yangi qirralarni aniqlash va uni ilmiy tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Abdurahmon Go‘zal faoliyati davomida 80 ga yaqin kitob, risolalar yozdi. Uning turkiy tillarni millat ruhi o‘laroq anglash va uni avlodlarga yetkazish yo‘lidagi sa’y-harakatlari butun turk olamiga ma’lumdir. Ayniqsa, olimning “Diniy-tasavvufiy turk adabiyoti. El kitobi”, “Qayg‘usiz Abdol”, “Ahmad Yassaviy “Faqrnomasi”, “Sulaymon Boqirg‘oniy hayoti va uning hikmatlari”, “Bizim Yunus”, “Maxtumquli asarlari” kabi yirik monografik tadqiqotlari turkiy adabiyotni anglashda muhim sanaladi.

XULOSA: Bolalarimiz va yoshlarimiz Alisher Navoiyni, albatta, bilishi va tushunishi kerak. Shuning uchun biz Navoiy kulliyoti ustida ishlashimiz, bu asarlarni turkiyning har bir shevasida nashr etishimiz va har bir kishining mazkur asarlarni birday anglashini ta’minlashimiz kerak.

Kalit so‘zlar: risola, tilshunos, ilohiyotshunos, olim, asar, ta’lim, tarbiya, ijod, Navoiy, Ahmad Yassaviy, shaxs, komil inson.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

ИССЛЕДОВАНИЕ НАВАИ-ИССЛЕДОВАНИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО КРИТИКА АБДУРАХМОНА ГУЗАЛА

Хаккулова Дилшода Абдувасиевна
Научный сотрудник Ургенчского государственного университета,
Преподаватель Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Научные исследования Абдурахмона Гузаля никогда не были отделены от его практической деятельности. В тюркском мире он известен как поборник духовности и просвещения благодаря своим исследованиям. Потому что его научная работа не ограничивается книгами, но каждую идею он старается воплотить в жизнь. Для ученого высшими устремлениями всегда являются сохранение духа нации посредством языка, возвышение турецкого языка до уровня мирового языка, использование возможностей и преимуществ литературы в воспитании молодежи, объединение тюркского мира посредством искусства, отражающего общечеловеческие ценности, и т. д.

В статье рассматривается литературовед и великий творец Абдурахмон Гозал, его творческая деятельность, а также его большой вклад в изучение наследия Алишера Навои.

ЦЕЛЬ: Выявить новые аспекты творчества Алишера Навои и провести их научный анализ посредством изучения научного творчества Абдурахмона Гузаля.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Абдурахмон Гузал за свою карьеру написал около 80 книг и брошюр. Его усилия по пониманию тюркских языков как духа нации и передаче их будущим поколениям известны всему тюркскому миру. Особенно книга ученого «Религиозно-суфийская турецкая литература. Такие крупные монографические исследования, как «Эль Китибо», «Кайгусиз Абдол», «Факрномаси» Ахмада Яссави, «Жизнь и мудрость Сулеймана Бокиргани», «Наш Юнус» и «Произведения Махтумкули», считаются важными для понимания турецкой литературы.

ВЫВОД: Наши дети и молодежь должны знать и понимать Алишера Навои. Поэтому нам необходимо работать над сборником «Навои», издавать эти произведения на всех диалектах тюркского языка и добиваться того, чтобы все понимали эти произведения одинаково.

Ключевые слова: трактат, лингвист, теолог, ученый, труд, образование, воспитание, творчество, Навои, Ахмад Яссави, человек, совершенный человек.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

RESEARCH IN NAVAI STUDIES BY LITERARY CRITIST ABDURAHMON GUSAL

Hakqulova Dilshoda Abduvasiyea
Researcher at Urgench State University,
Teacher at Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: Abdurahmon Gozal's scientific research has never been separated from his practical work. He is known in the Turkic world as a fighter for spirituality and enlightenment with his research. Because his scientific work does not remain only in his books, but he tries to implement each of his ideas into life. For a scientist, the highest aspirations are always to preserve the spirit of the nation through language, elevate the Turkish language to the level of a world language, use the opportunities and privileges of literature in the education of young people, unite the Turkic world through art reflecting universal values, etc.

The article reflects on the literary scholar, great creator Abdurahmon Gozal and his creative work, his great contribution to the study of the heritage of Alisher Navoi.

GOAL: To identify new aspects of Alisher Navoi's work and scientifically analyze it by studying the scientific work of Abdurahmon Gozal.

MATERIALS AND METHODS: Abdurakhmon Guzal wrote about 80 books and treatises during his career. His efforts to understand the Turkic languages as the spirit of the nation and pass them on to future generations are known to the entire Turkic world. In particular, the scientist's large monographic studies such as "Religious-Sufi Turkish Literature. El Kitibo", "Qaygusiz Abdol", "Ahmad Yassavi's "Faqrnomasi", "Sulayman Bokirgoni's Life and Wisdom", "Our Yunus", "Makhtumkuli's Works" are considered important in understanding Turkish literature.

CONCLUSION: Our children and young people must definitely know and understand Alisher Navoi. Therefore, we must work on the Navoi collection, publish these works in every dialect of Turkic, and ensure that everyone understands these works equally.

Keywords: treatise, linguist, theologian, scientist, work, education, upbringing, creativity, Navoi, Ahmad Yassavi, person, perfect person.

Adabiyotshunos, tilshunos, tasavvufshunos, ilohiyotshunos turk olimi - Abdurahmon Go‘zal hisoblanadi.

Uning turkiy tillarni millat ruhi o‘laroq anglash va uni avlodlarga yetkazish yo‘lidagi sa’y-harakatlari butun turk olamiga ma’lumdir. Ayniqsa, olimning “Diniy-tasavvufiy turk adabiyoti. El kitobi”, “Qayg‘usiz Abdol”, “Ahmad Yassaviy “Faqrnomasi”, “Sulaymon Boqirg‘oniy hayoti va uning hikmatlari”, “Bizim Yunus”, “Maxtumquli asarlari” kabi yirik monografik tadqiqotlari turkiy adabiyotni anglashda muhim sanaladi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Abdurahmon Go‘zal faoliyati davomida 80 ga yaqin kitob, risolalar yozdi. Ularning mavzu mundarijasini sanashning o‘zi katta bir tadqiqotni talab qiladi. Ta’kidlash joizki, Abdurahmon Go‘zal ilmiy izlanishlari uning amaliy faoliyatidan hech qachon ayri bo‘lmagan. U o‘zining tadqiqotlari bilan turkiy olamda ma’naviyat va ma’rifat kurashchisi sifatida tanilgan. Chunki uning olimlik faoliyati faqat kitoblaridagina qolib ketmaydi, balki har bir fikr-qarashlarini hayotga tadbiq qilishga harakat qiladi. Olim uchun til orqali millat ruhini asrash, turkiy tilni dunyo tili darajasiga ko‘tarish, yoshlarning ta’lim-tarbiyasida adabiyot imkoniyat-imtiyozlaridan foydalanish, umumqadriyatlar aks etgan san’at vositasida turkiy dunyoni birlashtirish va hokazo oliy istaklar hamisha ustuvordir. Abdurahmon Go‘zalning ushbu maqsad matlabi nafaqat Turkiyada, balki boshqa davlatlarda ham qadrlanadi. Xususan, “Dunyo tili - turkiy” nomli xalqaro konferensiyaning bosh tashkilotchilaridan ekanligi uni turk dunyosiga mujohid tilshunos sifatida tanitdi. Bugungi turk tilining ravnaqi va keng iste’moli natijalari ortida Abdurahmon Go‘zalning aql-zakovati, zahmatli izlanishlari, qat’iyat va jasorati bor. Olimning har qanday reja-tadbirlari, avvalo, tadqiqotlarida aks etadi. Har bir o‘rtaga tashlanadigan mulohazalarida ilmiy xulosalari, tajribalariga asoslanadi. Uning turli sohalardagi izlanishlari ko‘p bo‘lsa-da, biroq adabiyotshunos va tilshunosligi bo‘rtib turadi. Abdurahmon Go‘zalning olimlik qiyofasi ma’lum sohalar bilangina belgilanmaydi. Uning tasavvuf haqidagi orifona tahlillari ilohiyotchiligini, qo‘lyozmalarni qiyoslab akadem nashrlarni amalga oshirishi matnunosligini, xalq og‘zaki ijodi xususidagi xalqona tahlillari, tarixiy talqinlari tafakkur muarrixi ekanligini, nodir asarlarni tanlab tarjima qilishi zakiy mutarjimligini, millat uchun foydali tadbirlarning mukammal rejalarini tuzib, amalga oshirishi mumtoz siyosatchilardan ekanligini to‘laqonli tasdiqlaydi. Xullas, Abdurahmon Go‘zalning qomusiy olim ekanligi allaqachon tan olingan. Uning ilmiy faoliyatida o‘zbek ijodkorlari va adabiyotshunoslari bilan samimiy aloqasi ham e’tirofga molik. Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy to‘g‘risidagi tadqiqotlari, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodiy merosi bilan bog‘liq izlanishlarida o‘zbek adabiyotshunoslari bilan hamkorligi ikki millat ilmiy ravnaqiga birday xizmat qilgan. Abdurahmon Go‘zalning mutafakkir va mutasavvif shoir Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodi bilan tanishishi hamda shoir haqida katta ilmiy-amaliy harakatlari nafaqat olim tarjimai holida, balki turk navoiyshunosligida yangi bir sahifani ochdi, desak hech mubolag‘a emas. Ilohiyotchiadabiyotshunosning Ahmad Yassaviy, Yunus Emro, Sulaymon Boqirg‘oniy, Qayg‘usiz Abdol haqidagi yirik tadqiqotlari Navoiy shaxsi va asarlarini oson va mukammal tushunishi uchun bir poydevor bo‘lganligi aniq. Zero, ustoz navoiyshunos Ibrohim Haqqul ta’kidlaganidek: “Navoiygacha bo‘lgan adabiyot shoir tug‘ilishi uchun zamin hozirlagan bo‘lsa, undan keyingi adabiyot mutafakkir ta’siri ostida harakatga kelgan”.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida ilk ma’lumot beruv chi manba bu shubhasiz ulug‘ shoirning o‘z asarlaridir. Navoiy garchi o‘z tarjimai holini maxsus yozib qoldirmagan bo‘lsa-da, lekin shoirning deyarli barcha asarlarida uning shaxsiyati, ijodiy va ijtimoiy faoliyati haqida muayyan fikrlar keltiriladi. Xususan,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

“Vaqfiya”, “Munshaot” asarlarida ulug‘ shoirning ijtimoiy faoliyati aks etsa, “Majolis un-nafois”, “Xamsa”, “Munojot”, “Xazoyin ul-maoniy” kabi asarlarida shaxsiy hayoti, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” kabi asarlarida shoir qalamiga mansub ba’zi asarlarning yozilish tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarni uchratamiz. Abdurahmon Go‘zal ilmiy tadqiqot ishi aynan shu buyuk ijodning xususiyatlarini butun turk zaminiga yetkazishga qaratilgan.

Navoiy asarlarini keng targ‘ib qilish, shoirning sharafli hayoti va turkiy tilni san’at tiliga aylantirishdagi salohiyatini tushuntirish yo‘lida Turkiya Respublikasi Bashkent universiteti huzurida 2022-yil 10-fevralda “Alisher Navoiy tadqiqot va targ‘ibot markazi”ning tashkil etilishi esa tahsinga loyiq. Abdurahmon Go‘zal markazni tashkil etish muhimligini anglatish maqsadida Navoiyning “millatlarga hayot baxsh etgan boqiy ruh sifatiga ega shaxsiyat” ekanligini dalillovchi, katta ijtimoiy-madaniy taraqqiyotlarning dunyoga kelishida buyuk shoirning o‘rnini isbotlovchi maqolalar yaratdi. Shoirning hayot yo‘li, davlat arbobi va adabiy shaxsiyati, turk tili taraqqiyoti yo‘lidagi ulkan xizmati va asarlari haqida alohida ilmiy xulosalarga ega izlanishlar olib bordi. Jumladan, “Alisher Navoiyning turkiy tilga muhabbati” nomli maqolasida: “Navoiy O‘rxun bitiklaridan beri jonli va uyg‘oq bo‘lgan milliy tuyg‘u va shuurning, Turklik va Turkchilik ruhining eng buyuk namoyandalaridan biridir.” Navoiyga ko‘ra, til bir millatning tamal belgisi hisoblanadi. Milliy tilga ega bo‘lmasdan turib, millat bo‘lib bo‘lmaydi. Biroq millat bo‘lish uchun tilning mavjudligi yetarli emas, bu tilning qayta ishlanishi va iste’molda bo‘lishi muhimdir. Shu nuqtai nazardan “... Turkcha gaplashib, turkcha yozmaydigan turklar turk hisoblanmaydi” singari odil hukmlarni havola qiladi. Abdurahmon Go‘zalning talqinlarida, tanlagan iqtiboslarida hamisha qat’iy qarashlar, keskin xulosalar bo‘ladi. Bu tahliliy fikrlar birlamchi asarni tushunishga, so‘ngra insoniyat nafsini tarbiyalashga, ko‘ngilni poklashga qaratiladi. Turkiy mushohada mezonlarini ham olim xotirdan aslo faromush etmaydi. Mana shu kabi mushtarak yondashuv olim tadqiqlarining to‘g‘ri va ta’sirli bo‘lishini ta’minlagan. O‘z fikrlarini dalillashda har doim matnlarga asoslanganligini alohida urg‘ulash lozim. Ushbu: “Navoiy millatning borligi va milliy birlikni yaratish uchun til birligini ta’minlash zarurligini o‘z hayotidan ibrat qilib quyidagicha anglatadi:

Olibmen taxti farmonimg‘a oson,
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
Xuroson demakim, Sherozu Tabrez
Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.
Ko‘ngul bermish so‘zumga turk jon ham,
Ne yolg‘uz turk, balkim turkmon ham.
Ne mulk ichraki bir farmon yibordim,
Aning zabtig‘a bir devon yibordim”, –

kabilar mana shu yo‘sindagi tahlillaridan biridir. Navoiyning tilshunosligi, uning ona tilini she’riyat tiliga aylantirishdagi xizmatlari dunyo navoiyshunosligida qaytaqayta

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

e'tirof etilgan. Ammo Abdurahmon Go'zal kabi butun umr turkiy til qayg'usi bilan yongan odamgina tilni tarixiy ildizlaridan boshlab muqoyasa qila oladi va quyidagicha yangi nazariy xulosalarni ayta oladi: "Ma'lumki, Mahmud Qashqariy, XII asr oxirida "Devoni lug'otit-turk" asarini yozib, turk tili va turk madaniyatining kelajagini ta'minladi. Navoiy esa Qoshg'ariydan 400 yildan keyin o'z tili va madaniyatini xuddi shunday tafakkur va hayajon bilan himoya qilgan. Turk tili va turk madaniyati xavf ostida qolgan bir davrda u o'zining mantiqli hamda ta'sirli chiqishi, beqiyos sa'y-harakatlari bilan butun umri davomida milliy til va adabiyotni o'z mohiyatiga qaytarish, rivojlantirish yo'lida ijod qildi. U ham olim, ham san'atkor, ham davlat arbobi sifatida butun borlig'i bilan xalqiga xizmat qildi". Navoiyning irfoniy dostonlari borasidagi tadqiqotlari bilan ham Abdurahmon Go'zal navoiyshunoslikdagi irfoniy-g'oyaviy bo'shliqlarni to'ldirishi shubhasiz. Xususan, uning "Hayrat ul-abror" dostoni haqidagi izlanishlari navoiyshunoslikda yangi bir uslubdagi tadqiqotdir. Olimning "Hayrat ul-abrorda tasavvufiy unsurlarga misollar" maqolasi fikrimizni to'la quvvatlaydi. Ma'rifiy tahlil va talqinlar asosida Navoiyning diniy-tasavvufiy qarashlarini, asarlarining tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatib beradi. "Yetuk adabiyotshunos bo'lish uchun, avvalo, fors, arab va turk tillarini juda yaxshi o'rganish kerak. Tarix, din va adabiyot tarixini ham puxta bilish lozim. Men bugungi adabiyotshunoslikda oldingilarni takrorlashdan boshqa narsani ko'rmayapman", - deya talab qo'ygan adabiyotshunosning o'zida mana shu xislatlar jamuljam ekanligini tadqiqotlari isbotlab turibdi. Shu bois uning Navoiy asarlari tadqiqida shariat, tariqat, badiiyat va bani basharning nafs tarbiyasidagi ahamiyati kabi jihatlar uyg'unlikda qaraladi. Natijada, shoir, tarixchi, dinshunos, axloqshunos Navoiy asarlaridagi maqsad va mazmun teran ochib beriladi. "Hayrat ul-abror" dostonida tasavvufiy unsurlarga namunalar" nomli tadqiqotida dostonning har bir bob, maqolot, hikoyatlariga alohida izoh va sharhlar berishi adabiyotshunosning qomusiy olim ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Abdurahmon Go'zalga xos bu tafakkur kengligini sodda ifodalay olish mahorati asarning mohiyatini yoshlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Asarning Ishq haqidagi maqolotini sharhlab shunday deydi: "Falaklarning yaratilish sababi ishqdir va shu sababdan yer yuzida hayot boshlangan birinchi tongda inson ruh sharobidan mast bo'lgan... Haqiqiy oshiq dard bilan yashaydi. U o'z nafsidan poklanib, sarg'ayib, so'nib, g'am-g'ussa ostida qoladi… Qalbiga ishq tushgan, ya'ni sodiq oshiqlarning joyi zohidlarning yoni emas. Agar o'zlarini najotda ko'rgan zohidlar doimo oshiqlarni malomat qilsalar, agar u xirqasini tuzoq etib, vujud qushini ovlasa va tasbeh donalari bilan u qushni bog'lasa ham, oshiq baribir sevgidan mast bo'lib o'rtaga chiqadi". Dostondagi har bir o'rin mana shunday aniq va tizim bilan tushuntirilishi Abdurahmon Go'zalga xos batafsillik, chuqurlik, teranlik va mohiyatbinlikni namoyon qiladi. Shoirning barcha asarlari xususida olimning qisqa, lo'nda, aniq xulosalari mavjud. Masalan, so'nggi asariga: "Navoiy, deyarli, barcha asarlarida, ayniqsa, "Mahbub ul-qulub" asarida axloq va xarakter bilan aloqador qarashlarini bayon qiladi. U bu asarida bir siyosiy arbob sifatida namoyon bo'ladi. Yaxshi va yomon ish va odatlar haqida so'zlab, diniy axloq qoidalarini

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

tushuntiruvchi axloqshunos o‘laroq mazkur mavzudagi maqollarni juda yaxshi qo‘llagan holda odamlarga ko‘plab foydali maslahatlar beradi”, - deya ta’rif beradi. Abdurahmon Go‘zal tahlillarida Navoiyning turkiy tilni ilm hamda badiiyat tiliga aylantirishdagi jasorati va mahorati nafasi har doim seziladi, urg‘ulanadi. Xoh g‘oya, xoh shakl, xoh uslub bo‘lsin, hatto asardagi an’anaviy qaharamonlar haqida ham turkiy tafakkurga diqqat qaratadi: “Navoiyning yana bir muhim jihati shundaki, u o‘z asarlarida milliy tip va xarakterlardan foydalangan. Forsiy adabiyotda qo‘llanilgan qahramonlar Navoiy asarlarida faqat nomlarinigina saqlab qolgan holda turkiy shaxsiyatni tamsil etgan” kabi qarashlarni o‘rtaga tashlab, o‘z xulosalarni nazariy asosladi.

Uning Alisher Navoiy tadqiqot markazida dunyo navoiyshunosligi, xususan, eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti, Xalqaro Alisher Navoiy fondi bilan olib borayotgan hamkorligi o‘zbek navoiyshunoslari uchun ham quvonarli va qimmatlidir. Tashkilotchining: “Bu boradagi birinchi tashabbusimiz O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va davlat universitetlari bilan hamkorlik bo‘ldi”, - e’tirofi ham diqqatga molik. Markazda Navoiy asarlarining mukammal nashrlarini yaratish, uning asarlarini tahlil va talqin etuvchi tadqiqotlar olib borish, turkiy til jonkuyari Navoiyning xizmatlarini ochib beruvchi xalqaro konferensiyalar o‘tkazish kabi oliy maqsadlar qo‘yildi. Albatta, Navoiy asarlari turli davlatlarda mavjud. Ammo bu markazning shoir asarlari va Navoiyga bag‘ishlangan tadqiqotlar jamlangan bir kutubxona ham yaratish vazifasi navoiyshunoslikdagi muhim yutuq bo‘lishi aniq. Alisher Navoiy ijodi va chig‘atoy adabiyoti bilan shug‘ullangan olimlarni “Alisher Navoiy buyuk” mukofoti bilan taqdirlash ham markazning hadaflaridan biridir. Markaz maslagining ilk amaliy ijrosi Navoiyning muhtasham haykali o‘rnatilgan bog‘ning barpo etilishi bo‘ldi.

Adabiyot, xususan, Qur’oni karim va Hadisi sharifga asoslangan, xalq ruhini tamsili bo‘lmish ona tildagi irfoniy adabiyot qalblarni asir etadi, ko‘ngil rishtalarini bog‘laydi. Ma’naviy yaqinlik, birlik, butunlikni ta’minlaydi. Turkiy tilni arabiy va forsiy so‘zlar bilan kelinchakdek bezatgan Navoiy turkiy tilning barcha lahja, shevalarini ajratmasdan barobar qo‘llashi samarasida o‘z ijodi bilan turkiy til lug‘at boyligini asrab qoldi hamda uning lisoniy imkon-imtiyoz chegaralarini sarhadsiz bir kengliklarga olib chiqdi. Shuning uchun uning ilhomida butun turkiy qavmlar ruhoniyati mujassam. Alisher Navoiy asarlarida turkiy tilning jamiki balog‘ati, fasohati, hassosiyati, shiddati namoyon bo‘lgan. Shoirning:

Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur,
Muayyan turk ulusi xud meningdur, -

haqli faxriyasini teran anglagan adabiyotshunos Abdurahmon Go‘zalning quyidagi maqsud-u matlabi har bir navoiyshunosda bo‘lishi lozim: “Buyuk turk olimi va turkiyning buyuk shoiri Alisher Navoiy vafotidan besh yuz yil o‘tgan bo‘lsa ham o‘z fikri va shaxsiyati bilan hamon oramizda yashamoqda. Turk tiliga hurmati, til va shaxs haqidagi fikrlari o‘z ahamiyat hamda ta’sirini yo‘qotmadi. Minglab baytlardan iborat

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

lirikasida uning o‘ziga xos uslubi, ijodkor shaxsini ko‘ramiz. Sharqiy turklar tili va adabiyoti u yaratgan tamallarda yuksaldi. Agar Alisher Navoiy unutilsa, Turk kimligi o‘zining asoslaridan birini yo‘qotadi. Bolalarimiz va yoshlarimiz Alisher Navoiyni, albatta, bilishi va tushunishi kerak. Shuning uchun biz Navoiy kulliyoti ustida ishlashimiz, bu asarlarni turkiyning har bir shevasida nashr etishimiz va har bir turkning mazkur asarlarni birday anglashini ta’minlashimiz kerak”. Biz o‘zbek adabiyotining faxri Alisher Navoiy borasidagi izlanishlarida bir maslakdosh, ko‘makchi bo‘lganimizdan mamnunmiz. Ustoz adabiyotshunos Abdurahmon Go‘zalga tashakkurimizni izhor qilib, Parvardigordan xayrli va uzoq umr tilab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zulayho Abdurahmon. Abdurahmon Go‘zal Navoiy ijodiyoti targ‘ibotchisi. Jahon navoiyshunosligi. Ilmiy konferensiyalar to‘plami. 2022 yil
2. Dilshoda Xaqqulova. Abdurahmon Go‘zal Yassaiyshunos. O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy konferensiya to‘plami 2023 y
3. Dilshoda Xaqqulova. Abdurahmon Go‘zal – tasavvufshunos olim. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. 2024

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Dilshoda Haqqulova Abduvasiyevna
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

SHE'R VA SHOIRLIK XUSUSIDA MULOHAZALAR MUNIS VA MAXMUR IJODIDA

Saidova Rayhon Bekmurodovna,
Zarmed universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada XIX asrning oxirlarida she'r va shoirlik, adabiyot va to'g'risidagi fikrlar Shermuhammad Munis va Maxmurning turli she'riy asarlarida ham ozmi-ko'pmi o'z aksini topganligi yoritiladi.

MAQSAD: She'r va shoirlik, badiiy ijod mavzusining Shermuhammad Munis va Maxmur ijodida qay darajada o'rin berilganligi va yoritilganligini tadqiq qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Maqolada Munisning "Munis ul-ushshoq" devoni material sifatida olingan, uning shoir va she'r haqida bitilgan g'azallar va alohida baytlar tahlilga tortilgan. Badiiy ijod va qalamkashlar xususida Maxmur ijodining ayrim nuqtalariga diqqat qaratilgan. Ularda, bir tomondan, shoir va she'rning ijtimoiy vazifasi haqida so'z yuritilsa, ikkinchi tomondan, o'tmish shoirlari ijodi va an'analariga munosabat bildirilgan. Maqolada she'r yozishdan maqsad keng xalq ommasiga ma'qul tushadigan asar yaratish ekanligi Munis va Maxmur ijodi misolida aks ettiriladi.

XULOSA: Ilmiy tadqiqotimizga xulosa sifatida Munis va Maxmurlarning she'r va shoirlik to'g'risidagi mulohazalarida umumiylik shundaki, Munis ham, Maxmur ham maddoh shoir qiyofasini fosh etadi, ulardan nafratlanadi. Ana shu jihatdan qaraganda Maxmurning Abdukarim Fazliy Namangoniy haqidagi she'rlari turkumini kuzatish ma'lum xulosalarga kelish uchun asos bo'la oladi, mazkur turkum she'rlar Maxmur ijodida she'r va shoir haqidagi aqidalar hajviya shaklida ifodalanib, bayondagi sokinlik o'rnini g'azab va nafrat egallaydi. Maxmur ham zamondoshi Munis kabi badiiy ijodnini "tig'i dudamga" aylantirib, qabohat va firibgarlik bag'rini yorib tashlashga intiladi. She'r va shoir borasida har ikkala ijodkorning fikrlarida yakdillik borligini xulosa sifatida keltirib o'tish mumkin.

Kalit so'zlar: she'r, shoir, shuaro, nazm, Munis, Maxmur, devon, "Munis ul-ushshoq", g'azal, bayt.

РАЗМЫШЛЕНИЯ О ПОЭЗИИ И ПОЭТ В СОЗДАНИИ МУНИСА И МАХМУРА

Саидова Райхон Бекмуродовна,
Доцент кафедры филологии Университета Зармеда
Доктор философских наук (PhD), доцент, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье в конце XIX века представления о поэзии и поэзии, литературе и в той или иной степени нашли отражение в различных поэтических произведениях Шермухаммада Муниса и Махмура.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

ЦЕЛЬ: Исследовать, в какой степени теме поэзии и поэзии, художественному творчеству отведено место и освещено в произведениях Шермухаммада Муниса и Махмура.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В статье в качестве материала взята книга Муниса «Мунис уль-Ушшак», проанализированы его газели и отдельные стихи, написанные о поэте и поэзии. Внимание сосредоточено на некоторых моментах творчества Махмура с точки зрения художественного творчества и письма. С одной стороны, они говорят о социальной функции поэта и поэзии, а с другой стороны, выражают свое отношение к творчеству и традициям поэтов прошлого. В статье показано, что целью написания стихотворения является создание произведения, которое понравится широкой публике на примере творчества Муниса и Махмура.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Как итог нашего научного исследования, мнения Муниса и Махмура о поэзии и поэзии объединяет то, что и Мунис, и Махмур разоблачают образ поэтов-маддохов и ненавидят их. С этой точки зрения наблюдение за циклом стихотворений Махмура об Абдукариме Фазлие Намангани может стать основанием для прихода к определенным выводам. Махмур, как и его современник Мунис, превращает свое художественное творение в «тиг дудам» и стремится разорвать лоно мошенничества и мошенничества. Можно сделать вывод, что мнения обоих авторов относительно стихотворения и поэта едины.

Ключевые слова: поэма, поэт, шуара, назм, Мунис, Махмур, диван, «Мунис ул-ушшак», газель, стих.

REFLECTIONS ON POETRY AND POETRY IN THE CREATION OF MUNIS AND MAKHMUR

Saidova Rayhon Bekmurodovna,
Associate Professor of Zarmed University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,
Associate Professor, Bukhara city

Annotatsion.

INTRODUCTION: In this article, at the end of the 19th century, the ideas about poetry and poetry, literature and more or less were reflected in various poetic works of Shermuhammad Munis and Makhmur.

GOAL: To research the extent to which the subject of poetry and poetry, artistic creation, is given a place and illuminated in the works of Shermuhammad Munis and Makhmur.

MATERIALS AND METHODS: In the article, Munis's book "Munis ul-Ushshaq" was taken as material, and his ghazals and individual verses written about the poet and poetry were analyzed. Attention is focused on some points of Makhmur's creativity in terms of artistic creation and penmen. On the one hand, they talk about the social function of the poet and poetry, and on the other hand, they express their

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

attitude to the works and traditions of the poets of the past. The article shows that the purpose of writing a poem is to create a work that will appeal to the general public on the example of the work of Munis and Makhmur.

CONCLUSION: As a conclusion to our scientific research, Munis and Makhmur's opinions about poetry and poetry have in common that both Munis and Makhmur expose the image of maddoh poets and hate them. From this point of view, observation of Makhmur's series of poems about Abdukarim Fazliy Namangani can be the basis for coming to certain conclusions. Makhmur, like his contemporary Munis, turns his artistic creation into a "tig dudam" and strives to break the bosom of fraud and fraud. It can be concluded that there is unanimity in the opinions of both creators regarding the poem and the poet.

Key words: poem, poet, shuara, nazm, Munis, Makhmur, divan, "Munis ul-ushshaq", ghazal, verse

Maqola ibtidosida shuni aytish lozimki, XIX asrning oxirlarida she'r va shoirlik, adabiyot va to'g'risidagi fikrlar bundan oldingi bosqichlarda bo'lgani kabi turli she'riy asarlarda ham ozmi-ko'pmi o'z aksini topdi. Buning natijasida Munis, Nishotiy, Maxmur, Hoziq, Muqumiy, Furqat ijodida bu masala o'ziga xos tarzda, mualliflar niyati va dunyoqarashi asosida yoritiladi. Masalan, Munis "Munis ul-ushshoq" devonida shoir va she'r haqida bitilgan g'azallar va alohida baytlar uchraydi. Ularda, bir tomondan, shoir va she'rning ijtimoiy vazifasi haqida so'z yuritilsa, ikkinchi tomondan, o'tmish shoirlari ijodi va an'analariga munosabat bildirilgan. Munis she'r yozishdan maqsad keng xalq ommasiga ma'qul tushadigan asar yaratish ekanligini uqtirib, shunday yozadi:

Munis, ne so'zki safha uzra aylasang raqam,
Maqbuli tab'i xossayu matbui omma bit.[1.26]

Bu olijanob maqsad Munisning badiiy so'z, uning ijtimoiy falsafasiga doir tushunchalarini ifoda etadi va haqiqiy shoirning xalq uchun xizmat qilishi, ularning e'tiborini qozonishi lozimligiga ishora qiladi. Shu bilan birga Munis she'rni "tig'i dudam", "mahkam imorat", "lazzatli ne'mat" sifatida tilga olib, uning yaratuvchilari - shoirlar ana shu fazilatni hisobga olgan holda badiiy ijod bilan shug'ullanishlari ma'qulligini uqtiradi. Bu bilan Munis shoirlarni o'tkir va badiiy jihatdan barkamol she'rlar yozishga undaydi. Ana shu talablar asosida ijod etgan Firdavsiy, Nizomiy, Anvoriy, Navoiylarni ibrat namunasi sifatida eslaydi. Bu jihatdan uning "manga" radifli g'azali diqqatga sazovordir. Zero, unda Munis o'zidan oldin o'tgan fors-tojik, ozarbayjon va o'zbek adabiyotining o'n to'rtta zabardast namoyandalari (Nizomiy, Jomiy, Xusraviy, Ansoriy, Hofiz Sheroziy, Attor, Firdavsiy, Hoqoniy, Anvoriy, Sa'diy, Iroqiy, Bedil, Navoiy, Kiromiy)ni tilga olib, ularning har biridan o'ziga xos tarzda bahramand bo'lganini ta'kidlaydi.

Voliyi mulki tariqat, gar Nizomiydur manga,
Manzili ma'niga Hizri roh Jomiydur manga.
Xotirimga Xusraviydin har zamon sho're etib,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Banda davronning bori shirin kalomidur manga.
Piri Ansoriy so‘zidin choshni nutqum topib,
So‘zda hosil sharbati yuq’y il-izomidur manga.
Hofizi Sheroz lutfidin taraqqiylar topib,
Jilvagoh ahli tasavvufning maqomidur manga.
Yuzima Attor har lahza do‘koni fayz ochib,
Doim andin atrparvar jon mashomidur manga.
Fayzi Firdavsiy gahe ko‘nglum ochibdur iyddek,
Goh Xohoniy futuhining payomidur manga.
Goh tab’im Anvoriy nuri bila ravshan bo‘lub,
Goh Sa’diy jomining fayzi mudomidur manga.
Topibon ishqi Iroqiydin zamirim nash’ae,
Hosil, ahli ishqning sho‘ri tamomiydur manga.
Nusxai ta’yid Bedildin topib fayzi suxan,
Ma’ni ichra nomai iqboli tomiydur manga.
Qilsa hosid daxli bejo so‘z aro yo‘qtur g‘amim,
Kim bu ma’nida Navoiy ruhi homiydur manga.
Tong emas, Munis, agar bo‘lsam kiromi qadrkim,
Ustodi zohir-u botin Kiromiydur manga. [1.43]

Unda “tariqatda Nizomiy”, “ma’nida Jomiy”, “shirin kalomda Xusraviy”, “badiiy so‘zda Ansoriy”, “lutfda Hofiz Sheroziy”, “fayzda Attor”, “ko‘ngil ochishda Firdavsiy”, “ta’bda Anvoriy”, “jom fayzida Sa’diy”, “ishqda Iroqiy”, “ma’noda Bedil va Navoiy”, “zohir-u botinda Kiromiy” ustozlik qilganligini aytib, buyuk shoirlar uslubiga ishora qiladi. Bu she’r an’anaviy g‘azal shaklida yozilgan bo‘lsa-da, ammo o‘zining mazmuni bilan tamoman yangi bir asardir. Bu Munis ijodi davomida ilhom olgan shoirlar, mutafakkirlarning zikri mo‘jaz tazkirasidir. Bu kichik hajmli she’riy tazkirachada Sharqning X-XVIII asrlar davomida yashab ijod etgan ulkan siymolar nihoyatda samimiyat bilan tilga olinibgina qolmasdan, balki unda Munisning ulardan qaysi sohalarda ilhom olganiga ham juda nozik tarzda ishora qilinadi. Uning aytishicha, ma’nida - Abdurahmon Jomiy bilan Mirzo Bedil, shirinsuxanlikda - Xusrav Dehlaviy, falsafiylikda - Ansoriy va Hofizi Sheroziy va boshqalar. Shuni alohida uqtirish kerakki, Munis ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy ijodiga, ayniqsa, ehtirom bilan yondashdi. Bu fikr Munisning quyidagi ruboiysida ham davom ettiriladi:

So‘z ichra Navoiyki jahongirdurur,
Munisga maoniy yo‘lida pirdurur.
Yo‘q g‘ayriyat andin o‘zgakim ayturlar:
- Bu Shermuhammad, ul Alisherdurur. [1.6]

Bu e’tirof va ta’zimdagi muhim jihat shundaki, Munis ulug‘ Alisher Navoiyni “maoni yo‘lida pir” deb biladi. Bu o‘z navbatida, Alisher Navoiy ijodiga baho berishning bir ko‘rinishidir. Shu bilan birgalikda ulug‘ shoirlar nomlarini talmeh sifatida yuksak mahorat bilan keltirish masalasida ham Munis yangi bir holat yaratadi. Chunki mumtoz she’riyatda shoirlar timsollariga ishora etuvchi satrlar ko‘p ham

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

ko‘zga tashlanmaydi. Bu masalada Alisher Navoiy qit’alarida, ayrim g‘azallarida ijodkor-shoirlar talmeh sifatida uchraydi, lekin ular payg‘ambar siymolar, tarixiy-afsonaviy shaxslar yoki adabiy qahramonlar singari alohida turkum sifatida talqin etilishiga izn bermaydi. Ulug‘ shoirlar, xalqchil qalamkashlar ijodini himoya qilish masalasi Munisning boshqa asarlarida, jumladan, “Shuaro” g‘azalida ham shoirlik mavzusi davom ettiriladi. Bu she’rda Munis dardmand-u jafokash elga hamdard bo‘lgan shoirlar ahvoli nihoyatda og‘ir ekani, ularning doimo qon yutgani, emakka non topa olmaganiga alohida urg‘u beradi va bu holning sababinini topishga urinadi. Munisning tushunishicha, har qanday hunarga dushman bo‘lgan zamonga

“Baski davron erur hunar dushman,
Ko‘radur fazlidin ziyon shuaro”, - deydi.

Munis misralarning yana birida “Bor dushmani zamon shuaro”, - deb yozg‘iradi. Ana shu qarama-qarshilik, zamon va shoir o‘rtasidagi ziddiyat, ta’qib zamona foydasiga ishlab, shoirlar ahvolini xarob qilardi. Shuning uchun Munis - “shoirlar nazm etar gavhari fig‘on”, - deydi. Ya’ni shoirlar asarlarida ohu fig‘on, zamona adolatsizligidan nolish, faryod chekish asosiy o‘rinni egallaydi. Bu hol faqat birgina shoir oh-u nolasining ifodasi bo‘lmay, balki ming-minglab qalam ahli oh-u faryodining ham in’ikosi edi:

Dardmand-u jafokash elga qilur,
Nazm ila dardini bayon shuaro.[1.21]

Munisning shoirlar va zamona o‘rtasidagi qarama-qarshilikni tasvirlab, uni izohlashga intilgani ham uning badiiy adabiyotning ijtimoiy vazifasiga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Agar bu o‘rinda o‘sha davrdagi maddoh shoirlarga Munisning munosabatini eslasak, unda masala yanada oydinlashadi. Jumladan, Munisning mana bunday fikri e’tiborga sazovordir:

La’nat ul shoirgakim, hirsu tama’ tahrikidin,
Ko‘rguzur har siflav-u nokasga izhori madeh. [1.287]

Chunki Qur’oni Karim va Hadisi Shariflarda ham aynan tamagir, maddoh shoirlik qattiq qoralangan edi. Munis maddoh shoirlardan qancha nafratlansa, haqiqiy shoirlarni shunchalik izzat-hurmat qilardi. Shunday qilib, Munisning she’rlarida, muallifning she’r va shoirlik haqidagi muhim fikr-u mulohazalari bayon etilgan. Ular Munis ijodiy maromini, she’r va shoir oldiga qo‘ygan talablarini, davr adabiy muhitini anglashda, va umuman, mazkur davrdagi adabiy jarayonning nazariy fikrlarini aniqlashda ko‘maklashadi. Munisning zamondoshlari bo‘lmish ko‘pgina shoirlarning bizgacha etib kelgan adabiy merosida, jumladan, Maxmur, Furqat asarlarida ham she’r va shoirlik haqida turli shaklda bayon etilgan mulohazalar, badiiy-estetik talqinlar uchraydi. Jumladan, Maxmurning e’lon qilingan asarlari ichida “amakim”, “o‘lg‘ay”, “isqotiy” radifli o‘zbek va tojik tillarida yozilgan hajviyalari bor. Ular malik ush-shuaro Abdukarim Fazliy Namangoniyga bag‘ishlangan. Bu xil an’ana, ya’ni shoir-u donishlarga bag‘ishlab yozilgan asarlar, ustozlar e’tirofi, qasida yoki marsiyalar dunyo adabiyoti singari o‘zbek adabiyoti tarixida ham, yangi davrida ham o‘ziga xos adabiy hodisa sifatida vujudga kelgan. Ushbu tip asarlarda ham she’r-u

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

shoirlik masalalari u yoki bu ma'nolarda o'z aksini topadi. Diqqatga molik joyi shundaki, agar Munis o'z asarlarida she'r-u shoir haqidagi mulohazalarini umumlashma tarzida bayon etgan bo'lsa, Maxmur o'zining qarashlarini ma'lum tarixiy shaxs Fazliy va unga bo'lgan munosabat orqali ifoda etadi. Bunday hol, ya'ni badiiy asarda tarixiylik va aniqlikka asoslanish Maxmurning ijodiy uslubiga xos xususiyat hisoblanadi.

Bulardan ko'rinadiki, she'r va shoirlik haqidagi mulohazalar o'sha davrda yashab ijod etgan barcha shoirlar tomonidan turli shakllarda ifoda etilgan edi. Bunday holni Hoziq, Sayido, Bedil asarlarida ham uchratish mumkin. Ularning hammasi uchun badiiy ijodning g'oyaviy-badiiy yuksak bo'lishi lozimligi, o'tmishning zabardast shoirlari ijodini hurmat qilish, ulardan o'rganish, maddohlik va shaklparastlikni qoralash masalalari muhim muammolar sifatida qaraladi. Bu davrda she'r va shoirlik masalalari bevosita hajviy mavzudagi she'rda ham o'z aksini topganligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Munis. Saylanma. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1980
2. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – T.: O'zbekiston, 2001 yil, 120 bet
3. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. / Tuzuvchi, izoh va sharhlar muallifi N.Rahmonov. – T.: Fan. 2005. J 1. – 282 b.
4. O'zbek mumtoz adabiyotshunosligi antologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2016. – 552 b.
5. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1993. – 191 b.
6. Munis ,Ogahiy. Firdavs ul-iqbol.-Toshkent:Yangi asr avlodi.2010. 5-b.
7. Rahmonqul Orzibekov. O'zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.2006. 184-b.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Saidova Rayhon Bekmurodovna,
Zarmed universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

PEDAGOG-KADRLARIDA RAQAMLI KOMPITENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Davronova Shaxlo Farmonovna
Osiyo xalqaro universiteti 1-prorektori,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) dotsent, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada bugungi global jarayonlarda pedagog kadlarni tayyolash bilan bog'liq masalalar va ushbu jarayonda pedagoglarda raqamli kompitetnsiyalarning ijtimoiy xususiyatlari haqida fikr bildirilgan. Tahlillar va natijalar ularning sabablari muhokama qilingan.

MAQSAD: raqamli kompitentsiyalarni shakllantirish orqali pedagog-kadrlar imkoniyatlarini oshirish va shu orqali ta'lim xususiyatiga yangicha yondashuv olib kirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Davlatlar o'rtasidagi globallashuv jarayonlari internet, shaxsiy raqamli qurilmalar va tezkor ma'lumotlarni uzatish texnologiyalarining jadal rivojlanishiga sabab bo'lib, dunyo ta'lim sohasida keskin o'zgarishlarga olib keldi. Jahon ta'lim tizimini global innovatsion indeks reytingidagi o'rni fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirib borish, raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng qo'llash talabini quymoqda va tahsil oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga, mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilmoqda. Ushbu IT ta'lim texnologiyalari vositasida ta'limni tashkil qilish masalalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilib, ilmiy izlanishlar zamirida turli axborot-kommunikatsion ta'lim texnologiyalari asosida ta'limni samarali tashkil qilish masalalarini o'rganishga qiziqish kuchaymoqda.

XULOSA: "Raqamlashtirish" atamasi insoniyat jamiyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq tendensiyalar asosida qo'llab-quvvatlanadigan biznes strategiyasini anglatadi. Aqlli shahar va obyektlarning o'sishi dunyodagi asosiy mavzulardan biri sifatida raqamlashtirishning kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy mamlakatlar rivojlanishining asosiy omillaridan hisoblanadi. To'rtinchi sanoat inqilobi raqamli shakldagi axborotlarni qabul qilishni osonlashtirish uchun yuqori tezlikdagi internetdan foydalanishga urg'u beradi. Raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiyotni kengaytirish tartib-qoidalari tezroq

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

harakatlanar ekan, oliy ta'lim tizimi jahon ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida xalqaro, marketing, moliyaviy va iqtisodiy faoliyatni o'zgartirmoqda.

Kalit so'zlar: kompitentsiya, pedagog, kadr, raqamlashtirish, informatsiya, axborot, ta'sir, texnologiya, zamonaviy ta'lim, yuksalish.

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

Давронова Шахло Фармоновна
1-й проректор Азиатского международного университета,
Доктор философии по педагогическим наукам
(PhD) доцент, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье рассматриваются вопросы, связанные с подготовкой педагогических кадров в современных глобальных процессах и социальные особенности цифровых компетенций педагогов в этом процессе. Анализы и результаты обсуждаются вместе с их обоснованиями.

ЦЕЛЬ: Расширить возможности преподавательского состава за счет развития цифровых компетенций и тем самым внедрить новый подход к образованию.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Процессы глобализации между странами привели к быстрому развитию Интернета, персональных цифровых устройств и технологий высокоскоростной передачи данных, что привело к кардинальным изменениям в мировой системе образования. Позиция мировой системы образования в рейтинге глобального индекса инноваций предполагает развитие науки, изобретательства и трансфера технологий, широкое использование цифровых технологий в образовательном процессе, ориентирована на формирование профессиональных компетенций обучающихся, развитие самостоятельного и творческого мышления. Особое внимание уделяется изучению вопросов организации обучения с использованием данных информационно-коммуникационных образовательных технологий, а в контексте научных исследований возрастает интерес к изучению вопросов эффективной организации обучения на основе различных информационно-коммуникационных образовательных технологий.

ВЫВОД: Термин «цифровизация» относится к бизнес-стратегии, поддерживаемой тенденциями, связанными с использованием цифровых технологий во всех сферах человеческого общества. Рост «умных» городов и сооружений является одной из главных тем в мире, связанной с ростом цифровизации, и считается ключевым фактором развития современных стран. Четвертая промышленная революция подчеркивает важность использования высокоскоростного интернета для облегчения приема информации в цифровой форме. По мере ускорения темпов экономического роста за счет цифровых

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

технологий высшее образование трансформирует свою международную, маркетинговую, финансовую и экономическую деятельность, чтобы оставаться конкурентоспособным на мировом рынке образовательных услуг.

Ключевые слова: компетентность, учитель, кадры, цифровизация, информация, воздействие, технология, современное образование, продвижение.

MECHANISMS FOR FORMING DIGITAL COMPETENCES IN TEACHING STAFF

Davronova Shakhlo Farmonovna
1st Vice-Rector of the Asian International University,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences
(PhD) Associate Professor, Bukhara city

Annatation.

INTRODUCTION: The article discusses the issues related to the training of pedagogical personnel in today's global processes and the social characteristics of digital competencies in teachers in this process. The analysis and results discuss their causes.

GOAL: To increase the capabilities of pedagogical personnel through the formation of digital competencies and thereby introduce a new approach to the nature of education.

MATERIALS AND METHODS: The processes of globalization between countries have led to the rapid development of the Internet, personal digital devices and high-speed data transmission technologies, which have led to dramatic changes in the world education sector. The place of the world education system in the global innovation index rating imposes a requirement to develop the transfer of science, invention and technology, to widely apply digital technologies in the educational process and is focused on the formation of professional competencies of students, the development of independent and creative thinking. Special attention is paid to the study of issues of organizing education using these IT educational technologies, and in the context of scientific research, there is an increasing interest in studying the issues of effective organization of education based on various information and communication educational technologies.

CONCLUSION: The term “digitalization” refers to a business strategy supported by trends related to the use of digital technologies in all spheres of human society. The growth of smart cities and facilities is associated with the increase in digitalization as one of the main topics in the world and is considered one of the main factors in the development of modern countries. The fourth industrial revolution emphasizes the use of high-speed Internet to facilitate the reception of information in digital form. As the procedures for expanding the economy through digital technologies move faster, the higher education system is changing its international, marketing, financial and economic activities in order to maintain its competitiveness in the global market of educational services.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Keywords: competence, teacher, personnel, digitization, information, impact, technology, modern education, advancement.

Zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Har bir mamlakatga axborot texnologiyalari, xususan, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalarning kirib borishi barcha sohalardagi munosabatlarga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda jamiyat hayotining barcha jabhalarini axborotlashtirish, yangi axborot texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish jadal sur’atlar bilan kechmoqda. Kompyuter texnologiyalari sanoat ishlab chiqarishi va biznes, ijtimoiy hayot va ta’lim, fan va madaniyatda ta’sirli darajada o‘zgarishlarga olib keldi. Bugun jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda.

Davlatlar o‘rtasidagi globallashuv jarayonlari internet, shaxsiy raqamli qurilmalar va tezkor ma’lumotlarni uzatish texnologiyalarining jadal rivojlanishiga sabab bo‘lib, dunyo ta’lim sohasida keskin o‘zgarishlarga olib keldi. Jahon ta’lim tizimini global innovatsion indeks reytingidagi o‘rni fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirib borish, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng qo‘llash talabini quymoqda va tahsil oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga, mustaqil va kreativ fikrlashini rivojlantirishga qaratilmoqda.

Ushbu IT ta’lim texnologiyalari vositasida ta’limni tashkil qilish masalalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilib, ilmiy izlanishlar zamirida turli axborot-kommunikatsion ta’lim texnologiyalari asosida ta’limni samarali tashkil qilish masalalarini o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda [2].

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining bugungi rivojlanish darajasi, turli soha va tarmoqlarni raqamlashtirish hayotimizni global internetsiz tasavvur etib bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda. Ta’lim muassasalari faoliyati, ayniqsa, koronavirus pandemiyasi davrida raqamli makonga o‘tishga “majbur qilindi”.

Eng asosiy vazifa “Raqamli O‘zbekiston-2030” konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo‘lib, u o‘z ichiga barcha soha va tarmoqlarni qamrab olgan. Bunday yirik loyihani amalga oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining to‘liq hamda kompleks o‘zgarishiga, raqobatbardoshlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil, 23-sentyabrda qabul qilingan Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning 11-moddasida oliy ta’lim haqida: “**Oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida** (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) **amalga oshirilishi va oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi**”-deb e’tirof etilgan [1].

Raqamli texnologiyalar endilikda shunchaki trend emas, balki rivojlanishning asosiy vositasi sifatida ahamiyat kasb etib borayotir. O‘zbekistonda ta’lim, sog‘liqni saqlash hamda davlat xizmatlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Davlat boshqaruvi sohasida elektron hukumat loyihalarining tatbiq qilinishi byurokratik jarayonlarni soddalashtirish, shaffoflikni oshirish va bunda fuqarolar ishtirokini faollashtirish imkonini berayotir.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Davlatimiz rahbari huzurida 2022-yil 8-iyun kuni axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi islohotlar ijrosi bo‘yicha o‘tkazilgan taqdimotda eng zarur bo‘lgan davlat xizmatlarini tezkor ravishda elektron shaklga o‘tkazish muhimligi ta’kidlandi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot, “Elektron hukumat” xizmatlariga talab kundan kunga ortmoqda. Lekin hozir 780 turdagi davlat xizmatidan bor-yo‘g‘i 185 tasidan “elektron portal” orqali foydalanish imkoni mavjud. Aksariyat tashkilotlarda ish jarayonini raqamlashtirish faqat hujjat almashinuvini elektronlashtirish bilan cheklanmoqda. Bu borada elektron hukumatni yanada rivojlantirish, fuqarolar uchun zamonaviy qulay davlat xizmatlarni ko‘rsatish alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonni jadallashtirish maqsadida eng muhim yo‘nalish va dolzarb masalalarni qamrab olgan 104 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan[3].

Raqamli texnologiyalarining rivojlanishi juda katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash va uzatishda katta rol o‘ynadi. Raqamli texnologiya tadqiqotchi va manba o‘rtasidagi chegaralarni yo‘q qildi va ma’lumot olish vaqtini sezilarli darajada qisqartirdi. Bugungi kunda kutubxona va arxivlarda yaratilgan raqamlashtirilgan kitoblar, gazetalar va turli hujjatlar banklari ushbu tuzilmalarning joylashgan joyidan qat’i nazar, mijozlarga tezroq xizmat ko‘rsatish imkonini beradi.

Ya’ni, raqamli axborot texnologiyalar bugungi kunda tadqiqotchilar va axborot manbalari o‘rtasidagi chegaralarni olib tashladi, ularga zarur ma’lumotlarni katta mablag‘ sarflamay olish imkonini berdi, axborotga kirish uchun rasmiyatchilikka vaqtni tejash imkonini berdi va virtual muloqot uchun sharoit yaratdi. Shubhasiz, tadqiqotchilar uchun ochiq elektron kutubxona va arxivlar katta qulaylik tug‘diradi, ulardan hech qanday moddiy xarajatlarsiz axborot olish mumkin.

Internetda academia.edu kabi veb-saytlarning mavjudligi turli mamlakatlar olimlariga tadqiqot natijalari bilan bo‘lishish, shunga o‘xshash dasturlar shuningdek, mualliflarning iqtiboslar darajasini, ularning asarlarini o‘qish darajasini aniqlash imkonini beradi.

So‘nggi yillarda butun dunyoni qamrab olayotgan pandemiya sharoitida o‘quv jarayonini tashkil etishda, tadqiqotchilarning axborot manbasidan foydalanishida raqamli texnologiyalar katta rol o‘ynamoqda. Bugungi kunda universitet yoki maktabdagi darsni, konferentsiyalarni multimedia vositalaridan foydalangan holda elektron taqdimotlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Raqamli texnologiyalar axborotni saqlash xususiyatiga, aniqrog‘i buning uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnik bazada o‘z izini qoldirdi.

Agar ilgari kutubxona va arxivlarda tobora ko‘payib borayotgan kitoblar, gazetalar, jurnallarni saqlash uchun qo‘shimcha xonalarning mavjudligi talab qilingan bo‘lsa, keyin kompyuter texnologiyalarining paydo bo‘lishi bilan bu katta manbalarning barchasi kompyuterlarda, disklarda, flesh-disklar va boshqa elektron vositalarda saqlanishi mumkin bo‘ldi. Raqamli texnologiyalar ayniqsa yoshi katta bo‘lgan axborot manbalarining: turli xil eski qo‘lyozmalar, kitoblar, eski gazeta va jurnallarning xavfsizligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, nodir manbalarni uzoq muddatga xavfsizligini hamda ularni tashqi mexanik ta’sirlardan himoyasini ta’minlashda muhimdir.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Bugungi kunda global muhokama nuqtalari innovatsiyalarni boshqarish va oliy ta’limda raqamlashtirishni joriy etishni o‘z ichiga oladi. Ushbu omillarni uyg‘unlashtirib, muvozanatlash orqali raqamlashtirish oliy ta’limning innovatsion salohiyatini oshirish va o‘quv dasturlarida ilg‘or ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni ko‘paytirishning kaliti bo‘lishi mumkin. Bu esa, pirovardida, talabalar tomonidan bilimni o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

“Raqamlashtirish” atamasi insoniyat jamiyatining barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq tendensiyalar asosida qo‘llab-quvvatlanadigan biznes strategiyasini anglatadi. Aqlli shahar va obyektlarning o‘sishi dunyodagi asosiy mavzulardan biri sifatida raqamlashtirishning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lib, zamonaviy mamlakatlar rivojlanishining asosiy omillaridan hisoblanadi. To‘rtinchi sanoat inqilobi raqamli shakldagi axborotlarni qabul qilishni osonlashtirish uchun yuqori tezlikdagi internetdan foydalanishga urg‘u beradi. Raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiyotni kengaytirish tartib-qoidalari tezroq harakatlanar ekan, oliy ta’lim tizimi jahon ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida xalqaro, marketing, moliyaviy va iqtisodiy faoliyatni o‘zgartirmoqda. Ta’limda raqamlashtirish texnologiyalarni qo‘llashni o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar ochib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirmoqda.

Ta’lim sohasidagi hamkorlik raqamli texnologiyalarni o‘qitishning ilg‘or hamda noan’anaviy yondashuvlaridan tashqariga chiqmoqda. Raqamlashtirish ta’lim muassasasining raqobatbardoshlik strategiyasiga, shuningdek, davlatning ta’lim siyosatiga kiritilishi ayni muddao. Hozir dunyoda talabalar boshlang‘ich maktabdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda smartfon, planshet va noutbuk kabi raqamli qurilmalardan foydalanishga odatlangan. Ko‘pchilik gadjetlardan muloqot va o‘yin-kulgi uchun foydalanadi. Biroq o‘zgaruvchan dunyo yoshlardan ushbu texnologiyalar orqali o‘rganish va ta’lim olishi kerakligini talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘RQ-637-сон 23.09.2020. Ta'lim to‘g'risida - LEX.UZ
2. Потемкина Т.В. Зарубежный опить разработки профиля цифрових компетенции учителя.Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров. 2018.№2 с.25
3. А.В.Владико. Компетенции педагога для эффективной работы в цифровой оброзовательной среде.2020
4. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kreditmodul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: —Tafakkur nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Davronova Shaxlo Farmonovna
Osiyo xalqaro universiteti 1-prorektori,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent,
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

BADIIY MATNLARNI O‘ZLASHTIRISHDA KOGNITIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Maxmudova Nigora Hikmatovna
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Kognitiv tilshunoslik termini ustida juda ko‘plab bahs-munozaralar o‘tkazilgan bo‘lib, atama aynan nimani anglatishi to‘g‘risida kelishuv mavjud emas. Inglizzabon mutaxassislarning fikricha - kognitiv tilshunoslik tilshunoslikning kognitiv psixologiya, neuropsixologiya hamda tilshunoslikdagi bilimlar va tadqiqotlarni o‘zida jamlagan bir bo‘lagi. Shu orada aytib o‘tish joizki, kognitiv so‘zining o‘zi bilish tushunchasini anglatadi. Ko‘rinib turganidek, kognitiv tilshunoslik psixika va psixologiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu yana aynan inson omiliga ishora qiladi. Endi esa badiiy matn, inson omili hamda kognitiv-semantik yondashuv atamalarini o‘zaro bog‘laydigan bo‘lsak, kognitiv-semantika bu kognitiv lingvistika ichidagi bir yo‘nalishkognitiv semantikaga ko‘ra, til shaxslarning umumiy qismi bo‘lib, odamlar dunyoni faqat tasavvurlaridagi kabi tasvirlash mumkin. Maqolada aynan shu jarayonlar haqida fikr yuritilgan.

MAQSAD: Talabalarda badiiy matnlarni o‘zlashtirishda kognitiv ko‘nikmalarning ahamiyatini tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Kognitiv-semantika qoidalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri antroposentrik paradigm hamda konsept tushunchalariga ishora qilmoqda. Bu esa yuqorida biz jamlashimiz kerak bo‘lgan atamalarning asos mavzumiz hisoblangan konsept atrofida birlashtirish imkonini beradi. Konsept muammosi antroseptrik paradigmaning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, tilshunoslikda konseptlar, asosan, leksik hamda leksik frazeologik birliklar orqali ifodalanadi, degan fikr ustun. Keyingi davrlarda esa fanda sintaktik konseptlar haqidagi nazariy qarashlar, shuningdek, ushbu mavzuga oid tadqiqotlar ham yuzaga keldi.

XULOSA: She’riy matnni tahlil qilish kognitiv fanda allaqachon ishlab chiqilgan usullar va usullarni oddiygina olish yoki boshqa ilmiy fanlardan shunga o‘xshash qarz olish yo‘li bilan amalga oshirilmaydi – she’riy matn uchun maxsus tegishli bo‘lgan maxsus tushunchalar, modellar va tahlil usullarini yaratish kerak. Agar kognitiv lingvistikadan keladigan bo‘lsak, unda badiiy (poetik) tushunchalarni

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

ifodalashda izchillikning mavjudligi haqidagi savolga aniqlik kiritish istiqbolli ko‘rinadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv, bilish, bilim, badiiy adabiyot, komillik, faollik, o‘zlashtirish

ФОРМИРОВАНИЕ КОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ ПРИ ОСВОЕНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ

Махмудова Нигора Хикматовна
Преподаватель Азиатского международного университета, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Термин «когнитивная лингвистика» вызывает много споров, и единого мнения о том, что именно он означает, не существует. По мнению англоязычных экспертов, когнитивная лингвистика — это раздел языкознания, объединяющий знания и исследования в области когнитивной психологии, нейропсихологии и лингвистики. Стоит отметить, что само слово «когнитивный» относится к концепции знания. Как видите, когнитивная лингвистика неразрывно связана с психологией и психиатрией, что снова указывает на человеческий фактор. Теперь, если мы свяжем термины литературный текст, человеческий фактор и когнитивно-семантический подход, то когнитивно-семантика — это направление в когнитивной лингвистике. Согласно когнитивной семантике, язык — это общая часть индивидов, и люди могут описывать мир только так, как они его себе представляют. В статье рассматриваются эти процессы.

ЦЕЛЬ: Проанализировать важность когнитивных навыков в освоении учащимися литературных текстов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Правила когнитивной семантики напрямую отсылают к антропоцентрической парадигме и концептуальным концепциям. Это позволяет нам объединить термины, которые нам необходимо обобщить выше, вокруг концепции, которая является нашей основной темой. Проблема понятия — одна из центральных проблем антропоцентрической парадигмы. Как известно, в языкознании преобладает точка зрения, что понятия выражаются преимущественно посредством лексических и лексико-фразеологических единиц. В более поздние периоды в науке появились теоретические воззрения на синтаксические понятия, а также исследования на эту тему.

ВЫВОД: Анализ поэтического текста невозможно осуществить, просто переняв методы и приемы, уже разработанные в когнитивной науке, или заимствовав аналогичные из других научных дисциплин, — необходимо создать специальные концепции, модели и приемы анализа, релевантные именно для поэтического текста. Если исходить из когнитивной лингвистики, то

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

представляется перспективным прояснить вопрос о наличии связности в выражении художественных (поэтических) концепций.

Ключевые слова: познавательный, знание, наука, художественная литература, совершенство, деятельность, мастерство

FORMATION OF COGNITIVE SKILLS IN MASTERING ARTISTIC TEXTS

Makhmudova Nigora Hikmatovna
Teacher of the Asian International University, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: There has been much debate over the term cognitive linguistics, and there is no consensus on what exactly the term means. According to English-speaking experts, cognitive linguistics is a branch of linguistics that combines knowledge and research in cognitive psychology, neuropsychology, and linguistics. It is worth noting that the word cognitive itself means the concept of knowledge. As can be seen, cognitive linguistics is inextricably linked with the psyche and psychology, which in turn refers to the human factor. Now, if we connect the terms literary text, human factor, and cognitive-semantic approach, cognitive-semantics is a direction within cognitive linguistics. According to cognitive semantics, language is a common part of individuals, and people can only describe the world as they imagine it. The article discusses these processes.

GOAL: To analyze the importance of cognitive skills in the mastery of literary texts by students

MATERIALS AND METHODS: The rules of cognitive semantics directly refer to the anthropocentric paradigm and the concepts of the concept. This allows us to combine the terms that we need to summarize above around the concept, which is our main topic. The concept problem is one of the central problems of the anthropocentric paradigm. As is known, in linguistics, the idea prevails that concepts are expressed mainly through lexical and lexical phraseological units. In recent times, theoretical views on syntactic concepts have emerged in science, as well as research on this topic.

CONCLUSION: The analysis of a poetic text cannot be carried out by simply borrowing methods and techniques already developed in cognitive science or by borrowing similar ones from other scientific disciplines - it is necessary to create special concepts, models and methods of analysis that are specifically relevant for a poetic text. If we come from cognitive linguistics, then it seems promising to clarify the question of the existence of consistency in the expression of artistic (poetic) concepts.

Keywords: cognitive, cognition, knowledge, fiction, perfection, activity, mastery

Kognitiv qobiliyatlar miyaning asosiy funktsiyalari sifatida fikrlash, o‘qish, o‘rganish, ma’lumotni saqlash, fikr yuritish va diqqatni jamlashni osonlashtiradi. Birgalikda ular kiruvchi ma’lumotlarni olish va uni har kuni maktabda, ishda va

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

kundalik hayotda foydalanadigan bilimlar bankiga qo‘shish uchun ishlaydi. Kognitiv qobiliyatlar muammoni hal qilish, ma’lumotni eslab qolish va qaror qabul qilishda qo‘llaniladi. Kognitiv nazoratda fikrlar, his-tuyg‘ular va xatti-harakatlar bir vaqtning o‘zida noto‘g‘ri odatiy harakatlarni bostirish uchun topshiriq talablari, sharoitlar va ijtimoiy kontekst asosida ataylab tanlanadi. Kognitiv nazorat funktsiyalarini o‘rganishda uchta asosiy yo‘nalish aniqlangan: ish xotirasi, nazorat va ma’lum vazifalarni bajarish uchun kognitiv moslashuvchanlik.

Kognitiv tilshunoslik termini ustida juda ko‘plab bahs-munozaralar o‘tkazilgan bo‘lib, atama aynan nimani anglatishi to‘g‘risida kelishuv mavjud emas. Inglizzabon mutaxassislarning fikricha - kognitiv tilshunoslik tilshunoslikning kognitiv psixologiya, neuropsixologiya hamda tilshunoslikdagi bilimlar va tadqiqotlarni o‘zida jamlagan bir bo‘lagi. Shu orada aytib o‘tish joizki, kognitiv so‘zining o‘zi bilish tushunchasini anglatadi. Ko‘rinib turganidek, kognitiv tilshunoslik psixika va psixologiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu yana aynan inson omiliga ishora qiladi. Endi esa badiiy matn, inson omili hamda kognitiv-semantik yondashuv atamalarini o‘zaro bog‘laydigan bo‘lsak, kognitiv-semantika bu kognitiv lingvistika ichidagi bir yo‘nalishkognitiv semantikaga ko‘ra, til shaxslarning umumiy qismi bo‘lib, odamlar dunyoni faqat tasavvurlaridagi kabi tasvirlash mumkin. Izlanishlarga ko‘rra kognitiv semantikaning bir qancha asosiy qoidalari mavjud: - Grammatika dunyo haqidagi tushunchani madaniyat ichida aks etadi; - Til to‘g‘risidagi bilimlar ma’lum bir kontekstga ega; - Tildan foydalanish qobiliyati umumiy emas, balki maxsus manbalarga asoslanadi.

Kognitiv-semantika qoidalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri antroposentrik paradigm hamda konsept tushunchalariga ishora qilmoqda. Bu esa yuqorida biz jamlashimiz kerak bo‘lgan atamalarning asos mavzumiz hisoblangan konsept atrofida birlashtirish imkonini beradi. Konsept muammosi antroseptrik paradigmaning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, tilshunoslikda konseptlar, asosan, leksik hamda leksik frazeologik birliklar orqali ifodalanadi, degan fikr ustun. Keyingi davrlarda esa fanda sintaktik konseptlar haqidagi nazariy qarashlar, shuningdek, ushbu mavzuga oid tadqiqotlar ham yuzaga keldi.

S.E.Kuzminaning fikriga ko‘ra, sintaktik konsept bu – “Predmetlar va ularning munosabatini aks ettiruvchi vaziyat haqidagi axborot bo‘lib,u gapning struktur sxemasi orqali ifodalanadi hamda tipik propozitsiya (mazmunning strukturlashtirilgan yig‘indisi) orqali namoyon bo‘ladi”.

Ma’lumki, konsept –mavhum tushuncha ya’ni uning aniq bir ta’rifi yo‘q, uni bevosita kuzatish mumkin emas. Insonning kognitiv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan bu hodisani uning tildagi shakllari orqali aniqlash mumkin. Sintaktik konsept haqidagi ilmiy qarashlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, til birliklaridan biri bo‘lgan gap ham konsept ifodachisi sifatida tan olinmoqda. Demak biz badiiy matnlarni kognitiv semantik jihatdan konsept tushunchasi bilan bog‘lagan holda tahlil qilishimiz mumkin ekan. Aynan konsept bilan aloqadorligini isboti o‘laroq o‘zaro farq qiladigan ikki matnni tahlil etib ko‘rsak.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Ma’lumki, matn nutqiy xodisa bo‘lib, u ikki va undan ortiq gapning mazmuniy birikishidir. «Kuz. Dalalarda ish qaynay boshladi» shaklidagi beshtagina so‘zning mazmunan birikishidan tortib, butun boshli badiiy romanlar yirik trilogiyalar ham matn sanaladi. Har bir matn ma’lum bir narsa, voqea-hodisani tasvirlaydi, u haqida xabar beradi, so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi.

Odamni qon qilib yubordigan kuz yomg‘irlari boshlandi. Barakning shifer tomidan chakka o‘tib hammayoq zaxlab ketdi. Paxta tugul podbor ham qolmagan, ammo yomg‘ir tinishi bilan ularni dalaga haydashar, talabalar biydek paxtazorda tentirab yurishar, har qadamda etikka botmon-botmon loy yopishib, marzalarnng u yer- bu yerda to‘kilib qolgan ko‘rak aralash loy paxtani etakka tiqishar edi.

Demak tahlil uchun matn tanladik. Bu badiiy matnda biz nafaqat madaniyatga, balki shevaga ham xos bo‘lgan so‘zlar borligiga ahamiyat bermasdan, gaplarning umumiy mazmuniga to‘xtalamiz. Ushbu matn semantikasida nafaqat mlliy madaniyat va o‘sha davr ruhi, balki yozuvchning o‘ziga xos uslubini ham ko‘rishimiz mumkin. Matn tahliliga keladigan bo‘lsak, birinchi gapdanoq milliy o‘ziga xoslikni ko‘rishimiz mumkin. Sababi, yomg‘ir ko‘pchilik xalqlarda, ayniqsa, ingliz xalqi uchun sevimli tabiat hodisasi bo‘lib, u barchani ham “qon qil”avermaydi. Bu bilan biz o‘zbek xalqi yomg‘irni yoqtirmaydi demoqchi emasmiz, albatta. Aynan shu yerda ushbu matnga bog‘liq kognitiv-semantika ishga tushadi.

She’riy matnning kognitiv asosini dunyoning she’riy rasmining lingvistik tasvirini o‘rganish usuli sifatida tahlil qilish L. Talmi asarlari asosida ishlab chiqilgan[1]. Kognitiv semantika doirasida quyidagi bo‘linish sodir bo‘ladi: tilning leksik tizimi o‘zgarishi va u “ochiq sinf” deb ataladigan shaklni tashkil qiladi. Bu sinfga muhim so‘zlar, birinchi navbatda, ot, fe’l, sifatdosh kiradi. Grammatik va derivativ elementlar ancha barqaror bo‘lib, “yopiq sinf”ni tashkil qiladi. Bunga so‘z yasovchi va flektiv elementlar, yuklamalar, bog‘lovchilar, zarrachalar, fammatik gap tarkibining tuzilish sxemalari, gap bo‘laklarining morfologik modellari, so‘z tartibi kiradi. Birinchi sinfning elementlari sxemani noyob tarkib bilan to‘ldiradi. Ikkinchi sinf elementlarining asosiy vazifasi tuzilishdir. Tahlil texnikasi ikki bosqichni o‘z ichiga oladi: birinchidan, matn asosini tashkil etuvchi doimiy grammatik elementlarning konfiguratsiya tuzilishi aniqlanadi. Keyin she’rdagi badiiy (poetik) tushunchalarning leksik vositalar bilan ifodalanishi tahlil qilinadi.

She’riy matn ikki bosqichli tizim sifatida taqdim etilgan. Matnning asosiy darajali “ramka”si grammatik til vositalari bilan ifodalangan bir necha quyi tuzilmalardan iborat. Bu darajada poetik vaziyatning asosiy barqaror belgilari konseptuallashtiriladi. Kadr atrofida leksik ifodaga ega bo‘lgan o‘zgaruvchan elementlar tashkil etilgan, ular tuzilish doirasi neytral bo‘lgan va ko‘proq darajada muallifning zukkoligiga bog‘liq bo‘lgan ma’noni bildiradi. Masalan, bu rang, shakl, o‘lcham.

She’rning kognitiv asosini lug‘at bilan to‘ldirilgan bir qator pastki tuzilmalar yoki darajalar tashkil qiladi, bu “ramka” bir xil bo‘lishi mumkin, ammo turli xil leksik

[1] Маслова Ж.Н. Поэтическая картина мира в когнитивном аспекте Н Вопросы когнитивной лингвистики. - 2008.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

tarkibga mos keladi. Kognitiv asos orqali vaziyatning eng muhim, asosiy belgilari kontseptuallashtiriladi. Binobarin, matnni tahlil qilishda matnning leksik va grammatik xususiyatlarini alohida o‘rganish amalga oshiriladi. Shu bilan birga, matnning kognitiv asosi quyidagi to‘ldiruvchi darajalarda shakllanadi: konfiguratsiya darajasi, istiqbol darajasi, munosabat darajasi, harakat kuchi darajasi. Bu darajalar dunyoning she’riy rasmining kontseptual sohalari va tushunchalarining o‘zaro ta’sirining mohiyatini belgilaydi, shuningdek, she’riy matnda ifodalanganida hissiy va estetik bilimlarning konfiguratsion xususiyatlarini ochib beradi. Turkumlashtirish jarayonlarini o‘rganish asosida dunyoning poetik tasviri uchun muhim bo‘lgan quyidagi kontseptual sohalar aniqlandi: tabiat, inson, artefaktlar dunyosi, janr. Agar dunyoning she'riy rasmining etakchi kognitiv funktsiyasi “men” va “dunyo” tizimlarini muvozanatga keltirish bo‘lsa, u holda kontseptual sohalarning taqsimlanishi quyidagi tartibda bo‘ladi: kontseptual soha inson “men” tizimiga tegishli. “Dunyo” tizimiga artefaktlar va tabiat dunyosining kontseptual sohalari kiradi. Sevgi, taqdir, gunoh, or-nomus kabi mavhum mavjudotlar artefaktlar olamining kontseptual sohasiga kiradi, chunki bu mavjudotlar inson ongida obyektivlashtiriladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri his-tuyg‘ular, his-tuyg‘ular va subyektiv (men yaxshi ko‘raman) tajribalar insonning kontseptual sohasiga kiradi, chunki ular dunyodagi mavjudotga hissiy munosabatni ifodalaydi. Konseptual soha janri (poetik janr) alohida o‘rin tutadi va inson faoliyatidan kelib chiqadi. Bu sohaga ijodiy ongni rivojlantirish va she’riy matnni tuzish jarayonida shakllangan, metapoetik bilimlarda kristallangan dunyoga munosabatning ba’zi variantlari, shuningdek, badiiy qayta o‘ylangan tushunchalar kiradi: “va mening elegiyalarimning ustunlari sochilgan stol. rulonlarga o‘ralgan[2]”.

Har bir strategiya doirasida matnda sub’ekt va dunyo o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning asosiy parametrlarini belgilaydigan lingvistik xususiyatlar shakllanadi. Bitta she’riy matnda, qoida tariqasida, uchta kognitiv strategiyadan biri ustunlik qiladi. Dunyoning she’riy rasmini yaxlit hodisa sifatida o‘rganish dunyoning she'riy rasmida tajriba birliklarini belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan metakontseptsiyalarni ochib beradi. Dunyoning she’riy rasmining metatushunchalari she’riy matn mazmunini tuzishda asosiy tikilgan narsalarni belgilovchi ruhiy omillardir. Metakontseptsiyalarga quyidagilar kiradi: Metaconcept VALUE, Metaconcept NORM, Metaconcept POETIC, Metaconcept MUHIM YO‘QLIK. Metakontseptsiyalar hissiy va estetik tajriba kontseptuallashtirilgan va tuzilgan umumiy chegaralarni belgilaydi. Ular kontseptual tarkibni tanlash va ifodalashda “filtr” vazifasini bajaradi va qanday hodisa va vaziyatlar axloqiy mulohaza predmetiga aylanishi mumkinligi va qaysi til shaklida standartlar, g‘oyalar, taxminlar va stereotiplarni o‘rnatadi. She’r tahliliga bag‘ishlangan asarlarda she’riy matnga bir qancha yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

[2] И. Бродский Жанр лирического стихотворения в контексте когнитивной поэтики // Альманах гуманитарных кафедр БИ СГУ «Весы». -2009

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

She'riy matnni tahlil qilish kognitiv fanda allaqachon ishlab chiqilgan usullar va usullarni oddiygina olish yoki boshqa ilmiy fanlardan shunga o'xshash qarz olish yo'li bilan amalga oshirilmaydi – she'riy matn uchun maxsus tegishli bo'lgan maxsus tushunchalar, modellar va tahlil usullarini yaratish kerak. Agar kognitiv lingvistikadan keladigan bo'lsak, unda badiiy (poetik) tushunchalarni ifodalashda izchillikning mavjudligi haqidagi savolga aniqlik kiritish istiqbolli ko'rinadi. She'riy ijod asosini tashkil etuvchi psixik tuzilmalarning o'zaro bog'liqligi, hissiy va estetik tajribani qayta ishlashning umumiy psixik mexanizmlari qanday ishlashi va ularning lingvistik mexanizmlar bilan bog'liqligi haqida. She'riy matnni o'rganish alohida badiiy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga emas, balki badiiy (poetik) matndagi bilimlarni kontseptsiyalash va turkumlashtirishning umumiy jarayonlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, badiiy (poetik) tilning o'ziga xosligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Маслова Ж.Н. Поэтическая картина мира в когнитивном аспекте Н Вопросы когнитивной лингвистики. - 2008.

2. И. Бродский Жанр лирического стихотворения в контексте когнитивной поэтики // Альманах гуманитарных кафедр БИ СГУ «Весы». -2009

3. Белехова Л.И. Образное пространство американской поэзии: лингвокогнитивный аспект: Автореф. дис. … дра филол. наук. Киев, 2002.

4. Бутакова Л.О. Авторское сознание в поэзии и прозе: когнитивное моделирование. Барнаул: Изд-во Алтайского ун-та, 2001.

5. Князева Е.М. Выявление концептуально значимых единиц текста методом золотого сечения // Филология и культура. Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2009.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Maxmudova Nigora Hikmatovna
Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

KREDIT-MODUL TIZIMIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTEGRATSION YONDASHUVLARNING O‘RNI

Atoyeva Mehriniso Farhodovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu ilmiy maqola kredit-modul tizimining (KMT) ta’lim sohasida samarali va zamonaviy yondashuv sifatida taqdim etilishini va uning psixologik asoslarini o‘rganishni maqsad qilgan. KMT, o‘z navbatida, talabalarga o‘qish jarayonida ko‘proq erkinlik va mas’uliyat beradigan, modul asosida tashkil etilgan o‘qish tizimi bo‘lib, uning muvaffaqiyati talabalarning motivatsiyasi, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati va o‘qishdagi psixologik holatiga bog‘liqdir. Maqolada integratsion yondashuvlarning ta’lim tizimidagi o‘rni va psixologik jihatlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, ta’limda psixologik muammolarni bartaraf etish va talabalarda motivatsiya va stressni boshqarish orqali samarali o‘qish jarayonini ta’minlash bo‘yicha takliflar keltirilgan. O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, stressni kamaytirish va motivatsiyani oshirish uchun turli psixologik texnikalar va metodlar ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqola kredit-modul tizimining samaradorligini oshirish uchun psixologik yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

MAQSAD: Kredit-modul tizimida ta’lim samaradorligiga erishish yo‘llarini tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Shu nuqtai nazardan, integratsion yondashuvlar hamda psixologik asoslar ta’lim jarayonida talabalarning samarali ishtirokini ta’minlashda zarur ahamiyatga ega. Integratsion yondashuvlar o‘quv jarayonida turli fanlar va metodlarning uyg‘unligini ta’minlab, talabalarni ilmiy va amaliy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi. Ammo bu jarayonda talabalarning psixologik holati, o‘qish motivatsiyasi, stressni boshqarish va o‘z-o‘zini boshqarish kabi muhim jihatlar kutilgan natijaga erishishda katta rol o‘ynaydi.

XULOSA: Kelajakdagi tadqiqotlarda kredit-modul tizimini psixologik jihatdan yanada chuqur o‘rganish, innovatsion metodlarni joriy etish va ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratish lozim. Bu esa ta’lim tizimini nafaqat samaraliroq, balki inson ruhiyatiga mos va qulay qilishga yordam beradi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, integratsion yondashuvlar, psixologik asoslar, motivatsiya, talabalar stressi, ta’lim samaradorligi, psixologik texnikalar, o‘qish motivatsiyasi, o‘z-o‘zini boshqarish, psixologik treninglar, o‘qituvchi va talaba aloqasi, stressni boshqarish, o‘ziga bo‘lgan ishonch

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ РОЛЬ ИНТЕГРАТИВНЫХ ПОДХОДОВ В УЛУЧШЕНИИ

Атоева Мехринисо Фарходовна,
Доцент, Бухарский государственный университет, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Целью данной научной статьи является представление кредитно-модульной системы (кмс) как эффективного и современного подхода в образовании, а также изучение ее психологических основ. в свою очередь, кмт представляет собой модульную систему обучения, которая дает учащимся больше свободы и ответственности в процессе обучения, а ее успех зависит от мотивации учащихся, навыков самоконтроля и психологического состояния во время обучения. в статье дается глубокий анализ роли и психологических аспектов интегративных подходов в системе образования. также даются предложения по устранению психологических проблем в образовании и обеспечению эффективного процесса обучения путем управления мотивацией и стрессом у учащихся. будут рассмотрены различные психологические приемы и методы для улучшения взаимодействия между преподавателями и учениками, снижения стресса и повышения мотивации. данная статья может служить ключевым ресурсом для разработки стратегий, направленных на совершенствование психологических подходов для повышения эффективности кредитно-модульной системы.

ЦЕЛЬ: проанализировать пути достижения эффективности обучения в кредитно-модульной системе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в этом контексте интегративные подходы и психологические основы имеют решающее значение для обеспечения эффективного участия студентов в образовательном процессе. интегративные подходы обеспечивают гармонию различных дисциплин и методов в процессе обучения, помогая студентам развиваться в научном и практическом плане. однако в этом процессе большую роль в достижении ожидаемых результатов играют такие важные аспекты, как психологическое состояние студентов, мотивация к учебе, управление стрессом и самоконтроль.

ВЫВОД: дальнейшие исследования должны быть направлены на более глубокое психологическое изучение кредитно-модульной системы, внедрение инновационных методов и персонализацию образовательного процесса. это поможет сделать систему образования не только более эффективной, но и более гуманной и комфортной.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Ключевые слова: Кредитно-модульная система, комплексные подходы, психологические основы, мотивация, студенческий стресс, эффективность обучения, психологические методики, мотивация обучения, самоменеджмент, психологический тренинг, коммуникация учителя и ученика, управление стрессом, уверенность в себе

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING INTEGRATIVE APPROACHES IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Atoyeva Mehriniso Farhodovna,
Associate Professor, Bukhara State University, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: This scientific article aims to present the credit-module system (CMS) as an effective and modern approach in education and to study its psychological foundations. CMS, in turn, is a modular learning system that gives students more freedom and responsibility in the learning process, and its success depends on the motivation, self-management ability and psychological state of students in learning. The article deeply analyzes the role and psychological aspects of integrative approaches in the education system. It also presents proposals for eliminating psychological problems in education and ensuring an effective learning process by managing motivation and stress in students. Various psychological techniques and methods are considered for interaction between teachers and students, reducing stress and increasing motivation. This article can serve as a key resource for developing strategies aimed at improving psychological approaches to increase the effectiveness of the credit-module system.

GOAL: To analyze the ways to achieve educational effectiveness in the credit-module system.

MATERIALS AND METHODS: From this perspective, integrative approaches and psychological foundations are essential in ensuring the effective participation of students in the educational process. Integrative approaches ensure the harmony of various disciplines and methods in the educational process, helping to develop students scientifically and practically. However, in this process, such important aspects as the psychological state of students, motivation to study, stress management and self-management play a major role in achieving the expected result.

CONCLUSION: In future research, special attention should be paid to the issues of further psychological study of the credit-module system, the introduction of innovative methods and the personalization of the educational process. This will help to make the educational system not only more effective, but also more suitable and convenient for the human psyche.

Keywords: credit-module system, integrated approaches, psychological foundations, motivation, student stress, educational effectiveness, psychological

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

techniques, learning motivation, self-management, psychological training, teacher-student communication, stress management, self-confidence

Kredit-modul tizimida integratsion yondashuvlarni takomillashtirish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning psixologik holatiga, motivatsiyasiga, stressni boshqarish qobiliyatiga va ta’limga bo‘lgan umumiy yondashuvlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik yondashuvlar, motivatsiya va stressni boshqarish kabi masalalar, ayniqsa, o‘qish jarayonini yanada samarali va qulay qilishda katta ahamiyatga ega.

Kredit-modul tizimi, o‘z navbatida, ta’limni zamonaviy talablarga moslashtirishda va talabalarning intellektual salohiyatini yanada kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, bu tizimning muvaffaqiyati nafaqat didaktik yondashuvlarga, metodologiyalarga va texnikalarga, balki psixologik jihatlarga ham bog‘liq. Talabalar o‘qish jarayonida o‘zini qanday his qiladi, motivatsiyasi qanday shakllanadi, o‘qituvchilar bilan aloqalar qanday rivojlanadi — bu omillar KMTda muvaffaqiyatli ta’lim olishning asosiy shartlaridan biridir.

Shu nuqtai nazardan, integratsion yondashuvlar hamda psixologik asoslar ta’lim jarayonida talabalarning samarali ishtirokini ta’minlashda zarur ahamiyatga ega. Integratsion yondashuvlar o‘quv jarayonida turli fanlar va metodlarning uyg‘unligini ta’minlab, talabalar ni ilmiy va amaliy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi. Ammo bu jarayonda talabalarning psixologik holati, o‘qish motivatsiyasi, stressni boshqarish va o‘z-o‘zini boshqarish kabi muhim jihatlar kutilgan natijaga erishishda katta rol o‘ynaydi.

Kredit-modul tizimida o‘qish motivatsiyasini oshirish

Kredit-modul tizimida motivatsiyani oshirishning asosiy usullari quyidagilardan iboratdir:

1. Modul va fanlarni tanlashda erkinlik berish: Talabalarga o‘zlarini qiziqtirgan yoki kelajakda

ularni ishga joylashishda foyda keltiradigan modullarni tanlash imkoniyatini berish motivatsiyani oshiradi. Bu shaxsiy qiziqishlar va ehtiyojlarga mos kelgan fanlarni o‘rganishga olib keladi va shu orqali talabalar o‘qishga qiziqish bildiradilar.

2. O‘z-o‘zini boshqarish va mas’uliyatni oshirish: KMTda talabalarga o‘z ta’lim jarayonlarini

boshqarish imkoniyati beriladi, bu esa ularni o‘z bilimlarini mustaqil tarzda o‘zlashtirishga undaydi. Shaxsiy maqsadlar qo‘yish, o‘qish vaqtini taqsimlash va muvaffaqiyatlarga erishish o‘z-o‘zini motivatsiyalashga olib keladi.

3. Qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish: O‘qituvchilar tomonidan ko‘rsatilgan psixologik qo‘llab-

quvvatlash va rag‘batlantirish motivatsiyani oshiradi. Talabalar o‘zlarining o‘qishdagi muvaffaqiyatlarini ko‘rgan va o‘qituvchilar tomonidan rag‘batlantirilgan holda, o‘zlarining yanada samarali ishlashlariga ishonch hosil qiladilar.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

4. Motivatsion treninglar va psixologik yordam: Talabalar uchun motivatsion treninglar tashkil etish va psixologik yordam ko‘rsatish o‘qish jarayonida ularning ichki motivatsiyasini oshiradi. Bu treninglar stressni boshqarish, vaqtni samarali taqsimlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

5. O‘qishning ijtimoiy va amaliy ahamiyatini tushuntirish: Talabalar uchun o‘qishning ijtimoiy va amaliy ahamiyatini tushuntirish, kelajakdagi ish imkoniyatlari va o‘qigan fanlarning kundalik hayotda qanday qo‘llanilishi haqida ma’lumot berish, motivatsiyani oshiradi. Talabalar o‘zlarining o‘quv faoliyatlarining kundalik hayot va kelajakdagi ish imkoniyatlariga qanday ta’sir qilishini ko‘rishlari kerak.

Kredit-modul tizimi va motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik. Kredit-modul tizimi talabalarga erkinlik va mustaqillik beradi, ammo bu erkinlikni o‘zlashtirish uchun talabalar motivatsiyasi yuqori bo‘lishi kerak. KMTda talaba o‘z vaqtini va o‘quv yuklamasini boshqarishi, modullarni tanlashi va o‘qish jarayonini o‘z maqsadlariga moslashtirishi zarur. Bu esa talabadan yuqori darajadagi ichki motivatsiyani talab qiladi. O‘z navbatida, ichki motivatsiya talabalar o‘z o‘quv jarayonlariga nisbatan mas’uliyat hissi va qiziqishni shakllantiradi, bu esa o‘z-o‘zini boshqarish va muvaffaqiyatga erishishga olib keladi.

Kredit-modul tizimi o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni samarali tashkil etish, talabalarga o‘z maqsadlariga erishishda erkinlik va mas’uliyatni berish imkoniyatini yaratadi. Talabalar o‘zlarining o‘quv jarayonlariga nisbatan yuqori motivatsiyaga ega bo‘lganda, ularning o‘qish samaradorligi ortadi. Motivatsiya — bu talabalar uchun o‘qish jarayonini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va akademik maqsadlarga erishishda asosiy motivatsion kuchdir. KMTda talabalarning ichki va

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

tashqi motivatsiyalarini qo‘llab-quvvatlash, o‘qishning amaliy va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, shuningdek, o‘qituvchilar tomonidan psixologik yordam va rag‘batlantirishlar amalga oshirilishi kerak.

Kredit-modul tizimida integratsion yondashuvlarni takomillashtirish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalar o‘rtasida yanada samarali o‘quv faoliyatini tashkil etadi va ularga mustaqil fikrlash hamda ko‘nikmalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini yaratadi.

Kredit-modul tizimining psixologik jihatlari. Kredit-modul tizimi (KMT) ta’limda keng tarqalgan, talabalar uchun erkinlik va mustaqillikni ta’minlovchi samarali o‘quv tizimlaridan biridir. Ushbu tizimda ta’lim modullar asosida tashkil etilib, talabalarga o‘qish jarayonini o‘z xohishlariga qarab moslashtirish imkonini beradi. Biroq, o‘quv jarayonining muvaffaqiyati faqatgina uning tashkiliy jihatlariga emas, balki talabalarning psixologik holati va motivatsiyasiga ham bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun, KMTni joriy etishda psixologik jihatlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Kredit-modul tizimi (KMT) zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning bilim olish jarayonini mustaqil va individual yo‘nalishda tashkil etishga xizmat qiladigan innovatsion tizimlardan biridir. Bu tizim o‘qitishning modullarga ajratilgan tuzilmasi asosida shakllangan bo‘lib, talabalarga o‘z ta’lim trayektoriyasini mustaqil tanlash imkonini beradi. Integratsion yondashuvlar esa turli fanlar va o‘qitish usullarining uzviy bog‘liqligini ta’minlab, bilimlarning kompleks tarzda o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, KMT va integratsion yondashuvlarning qo‘llanilishi quyidagi ijobiy ta’sirlarni keltirib chiqaradi:

- **Talabaning o‘quv jarayoniga bo‘lgan faolligini oshirish** – Mustaqil ta’lim olish imkoniyati ularning mas’uliyat hissini rivojlantiradi va faol ishtirok etishiga turtki bo‘ladi.
- **Bilimlarning yaxlit o‘zlashtirilishi** – Turli fanlarning bir-biri bilan bog‘lanishi natijasida talabalar mavzularni chuqurroq tushunib, amaliy jihatdan qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- **Kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish** – Kredit-modul tizimi talabalarning tanqidiy fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshiradi.
- **O‘quv jarayonida fleksibil yondashuvni ta’minlash** – Talabalar o‘z ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda o‘quv rejasini shakllantira oladilar.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2



Bularning barchasi KMT va integratsion yondashuvlarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kredit-modul tizimi va integratsion yondashuvlar ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirish, bilimlarni yaxlit o'zlashtirish va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq, ushbu tizimning to'liq samaradorlikka erishishi uchun psixologik yondashuvlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarni qo'llab-quvvatlash, motivatsiyani oshirish va stressni kamaytirish kabi omillar tizim samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Quyidagi grafik Kredit-Modul Tizimida (KMT) integratsion yondashuvlarning samaradorlik darajasini ko'rsatadi. Grafikda turli yondashuvlar (masalan, motivatsion yondashuv, psixologik moslashuv, raqamli texnologiyalarni qo'llash) o'qish samaradorligiga qanday ta'sir qilishi aks ettiriladi.

Parametrlar:

- **X o'qi**: Integratsion yondashuvlar (motivatsiya, moslashuv, raqamli texnologiyalar, jamoaviy o'qish, psixologik qo'llab-quvvatlash)
- **Y o'qi**: O'qish samaradorligi foiz (%)

KMTning integratsion yondashuvlari samaradorligini ko'rsatadigan grafik. Tizim samaradorligini oshirish uchun quyidagi psixologik tamoyillarni takomillashtirish lozim:

1. **Motivatsiyani oshirish strategiyalari**. Kredit-modul tizimida o'qish jarayonini talabalar uchun yanada qiziqarli varag'batlantiruvchi qilish uchun ichki va tashqi motivatsiyani oshirish mexanizmlarini joriy etish kerak. Masalan, baholash tizimini

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

shunday shakllantirish kerakki, u talabalarni nafaqat yakuniy natija uchun, balki jarayonning o‘zidan zavq olishga undasin.

2. Moslashuvchan ta’lim usullarini rivojlantirish. Har bir talaba individual o‘quv uslubiga ega bo‘lganligi sababli, modullarning moslashuvchan va moslashtirilgan shaklda taqdim etilishi muhimdir. Masalan, vizual, audial va kinestetik ta’lim usullarini kombinatsiyalash talabalar ehtiyojlariga mos tushadi.

3. Psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish. Talabalar stress, vaqtni boshqarish qiyinchiliklari va imtihon oldidan qo‘rquv kabi muammolarga duch kelishadi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun psixologik maslahatlar, treninglar va motivatsion seminarlarni tizimga integratsiya qilish lozim.

4. Jamoaviy o‘qish madaniyatini rivojlantirish Kredit-modul tizimi doirasida hamkorlikda ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar va muhokamalarni keng joriy qilish talabalar orasida ijtimoiy moslashuv va bilim almashinuv jarayonini kuchaytiradi.

5. Kelajakdagi izlanishlar va takliflar Kredit-modul tizimi va integratsion yondashuvlarning samaradorligini yanada oshirish uchun kelajakda quyidagi yo‘nalishlarda izlanishlarni davom ettirish lozim:

- **Individualizatsiyalashgan ta’lim tizimini rivojlantirish** – Har bir talabaning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ta’lim usullarini individual tarzda shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.
- **Raqamli texnologiyalarni yanada kengroq joriy etish** – Kredit-modul tizimini masofaviy ta’lim va sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan ta’lim platformalari bilan integratsiya qilish o‘quv jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi.
- **Psixologik holatni monitoring qilish tizimini yaratish** – Talabalar va o‘qituvchilarning psixologik holatini doimiy ravishda baholab borish uchun maxsus diagnostik vositalarni ishlab chiqish va joriy etish lozim.
- **O‘qituvchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish** – O‘qituvchilarga integratsion yondashuvlar va psixologik ta’lim metodlarini o‘rgatish maqsadida maxsus kurslar va treninglar tashkil etish zarur.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bandura, A. (1986). *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. Prentice-Hall.
2. Biggs, J. (2003). *Teaching for Quality Learning at University: What the Student Does.* Open University Press.
3. Bransford, J. D., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (2000). *How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School.* National Academies Press.
4. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). *Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being.* American Psychologist, 55(1), 68-78.
5. Duckworth, A. L. (2016). *Grit: The Power of Passion and Perseverance.* Scribner.
6. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, Appraisal, and Coping*. Springer.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Atoyeva Mehriniso Farhodovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

MUSOBAQALARDA FUTBOL ATAMALARINI ISHLATILISHI

Baqoyev Umid Ubayd o‘g‘li
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovich
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada futbol atama va terminlarining izohi, tarixi, tavsifi ochib berilgan. Bugungi kunda futbol musobaqalarida futbol atamalarining ishlatilishi va qo‘llanilishi haqida yoritib berilgan. Undan tashqari terminlarning ma`nosi, turli tillarda taqqoslanishi haqida so‘z yuritiladi. Qolaversa o‘zbek futbol atamalarning izohi tahlil qilingan va umumiy xulosalar keltirilgan

MAQSAD: Futbol musobaqalarda atamalar haqida tushuncha hamda ularning o‘z o‘rnida ishlatilishi.

MATERIALLAR VA METODLAR: Futbol sportining tobora rivojlanishi, futbolda atama va terminlarning musobaqalarda keng qo‘llanilishi uchun asos bo‘lmoqda.

XULOSA Shuni ta'kidlash mumkinki futbol atamalari uzoq tarixga ega. Futbol o‘yini rivojlanishi va tarqalishi bilan taraqqiy eta boshladi. Shu uchun futbolning ommaviyligi ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ommaviy va professional futbolga e`tibor qaratilmoqda. Bizning kichik tadqiqotimizda musobaqalarda ishlatiladigan atamalar izohi qisqa yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Musobaqa, mundial, favorit, final, fint, fol, tiki-taka, to‘liq o‘rindiqli stadion, to‘p, to‘p o‘yinda, to‘rtinchi hakam, to‘p o‘yinda, ulitka, universal o‘yinchi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФУТБОЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ В СОРЕВНОВАНИЯХ

Бакаев Умид Убайдович
Студент 1 курса магистратуры Бухарского государственного педагогического института

Ибрагимов Манучехр Бахтиёрович
Бухарский государственный педагогический институт Доцент, г. Бухара

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: эта статья раскрывает объяснение, историю, описание футбольных терминов. Освещается использование и футбольных терминов в футбольных турнирах. Далее идет речь о значении терминов, их сопоставлении на разных языках. Кроме того, проанализированы узбекские футболные термины и даны общие выводы.

ЦЕЛЬ: понимание термина в футбольных соревнованиях и их использование вместо него.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: все большее развитие футбольного спорта закладывает основу для широкого использования терминов в футболе на соревнованиях. В заключение можно отметить, что футбольные термины имеют долгую историю. По мере развития и распространения футбольной игры она начала прогрессировать. Вот почему популярность футбола растет. Сегодня в нашей стране уделяется внимание как массовому, так и профессиональному футболу. В нашем небольшом исследовании кратко изложено объяснение терминов, используемых в соревнованиях.

Ключевые слова: Турнир, мундиаль, фаворит, финал, финт, тики-така, стадион с полным сиденьем, мяч, мяч в игре, четвертый судья, мяч в игре, улитка, универсальный игрок.

USE OF FOOTBALL TERMS IN COMPETITIONS

Bakoyev Umid Ubaydovich
1st year master's student of the Bukhara State Pedagogical Institute

Ibragimov Manuchekhr Bakhtiyorovich
Associate Professor, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: this article reveals the annotation, history, description of football terms and terms. Today, football competitions shed light on the use and use of football terms. In addition, the meaning of terms is mentioned, comparing them in different languages. In addition, the explanation of Uzbek football terms has been analyzed and general conclusions have been drawn

GOAL: the concept of the term in football competitions as well as their use in their place.

MATERIALS AND METHODS: the growing development of the sport of football is the basis for the widespread use of terms and terms in football in competitions. It can be noted that football terms have a long history. The game of football began to progress as it developed and spread. For this, the popularity of football is growing. Today in our country there is a focus on mass and professional football. In our small study, the explanation of the terms used in competitions was given a short coverage.

Key words: Competition, mundial, favorite, final, fint, fol, tiki-taka, full-seat stadium, ball, ball in Game, fourth umpire, ball in game, ulitka, universal player.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

O'zbek tilining sohaviy atamashunosligi har tomonlama takomillashish jarayonini boshidan kechirmoqda. Atamalarning ular ifodalaydigan narsa-buyum, voqea-hodisa tushunchasi ma'no-mazmuniga mos tushishi, tuzilish (shakl) jihatidan ixcham bo'lishi, yakka ma'noni ifodalashi, ma'nodoshlik qatorlariga kirmasligi kabi talablar atamashunoslar diqqat markazidan joy olgan. Xalqaro aloqalarning faollashuvi natijasida xorijiy tillardan shiddat bilan kirib kelayotgan fan-texnikaga doir atamalarni qanday tarzda qabul qilish, o'zlashtirish eng bahsli hodisalardandir. Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'zbek atamashunosligi nafaqat miqdor, balki sifat o'zgarishlariga ham jiddiy qarab kelmoqda. Tilimizning keng imkoniyatlaridan foydalangan holda tor ixtisoslik sohalariga oid atamalar tizimini tartibga solish, shuningdek, o'zbek tilining umumiy lug'atlarida sport atamalarining to'g'ri ifodalanishini ta'minlash kechiktirib bo'lmas vazifalardan sanaladi[1,2].

Jamiyat hayotida, xususan, insonlarning jismonan va aqlan sog'lom bo'lishida sportning o'ziga xos o'rni va ahamiyati bor. Ayni paytda sport sohasi ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun nihoyatda keng jabhadir va, shunday ekan, sportga oid bilimlarni rivojlantirish, soha atamalarini tizimlashtirgan holda o'rganish, ularni lug'atlarda berish, butun atamalar tizimi ichidan umumiy filologik lug'atlar uchun tanlab olish tamoyillarini ishlab chiqish nafaqat tilshunoslik uchun, balki jamiyat hayotining yanada ildamlashiga mas'ul har bir soha uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Tadqiqotimiz obyekti sifatida olingan futbol sportiga oid atamalardan futbol musobaqalarida ayrimlarining izohlanishiga diqqatimizni qarataylik. Masalan:

MUSOBAQA Kim o'zish, kim yaxshi natijalarga erishish uchun bo'lgan bellashuv.

MUNDIAL [isp. mundial – jahon, dunyoviy] Jahon chempionati. 1982 yildan boshlab futbol bo'yicha jahon chempionatini ba'zan "mundial" deb ham atashadi. Buning sababi: 1982 yilgi 12-Jahon chempionati Ispaniyada bo'lgandi. Ispan tilida "mundial" so'zi "jahon miqyosida" degan ma'noni bildiradi.

FAVORIT Ma'lum bir o'yinda, musobaqada yoki butun turnirda g'alaba qozonish uchun ko'proq imkoniyatga ega bo'lgan jamoa yoki sportchi.

FINAL [ital. finale – yakuniy, oxirgi] G'olibni belgilaydigan jamoaviy yoki yakka tartibdagi sport musobaqalarida yakuniy uchrashuv; odatda, birinchi davralarda va yarim finalda mag'lubiyatga uchragan barcha futbol jamoalar mag'lub etilgandan so'ng, finalda faqat ikkita o'yinchi yoki ikkita jamoa bahslashadi. Olimpiya tizimi bo'yicha turnirlarda final uchrashuvidan oldin yarim final, chorak final va boshqa bahslar o'tkaziladi. Shuningdek bu ta'rifni, Kubok hamda jahon chempionatining final bosqichiga keladigan bellashuvlariga tegishli deb ham hisoblash mumkin.

FINT [ital. finta – soxta, chalkashtirish] Raqibni hiyla-nayrang va uni aldamchi harakatlar bilan chalg'itish maqsadida bajariladigan texnik element. Fintlarning sifatli bajarilishi futbolchining zarur jismoniy va aqliy fazilatlarga ega bo'lishiga, uning sezgi va improvizatsiya qobiliyatiga bog'liq. Futbolchining boy tasavvuri, reaktsiya tezligi va umumiy jismoniy tayyorgarlik bu yerda alohida ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

FOL (ingliz. foul) – o'yin qoidasining buzilishi. Mayda fol taktikasi orqali qo'pollik qilishga, g'irrom o'yin, qo'pol o'yinni, masalan, futbol o'yinida - qo'pol turtish, chalish, raqibga atayin zarba berish va hokazolar bo'lib turadi.

TIKI-TAKA [ispancha. tiqui-taca, inglizcha: tiki-taka] Qisqa to'p oshirish (pas) asosidagi o'yin uslubi. Ispan futboli taktikasi bo'lib, qisqa pastlar bilan maydonning turli joylarda doimiy ravishda to'pni nazorat qilishga asoslangan. Shunga o'xshash uslubni "Barselona" futbol klubi Pep Gvardiola boshchiligida ishlab chiqdi, keyinchalik u bu usulni foydasiz va tushunarsiz deb atadi. Tiki-takaning tarixiy ildizlari 1990-yillardagi Yoxan Kroyff tomonidan "Barselona"ga singdirilgan o'yin uslubiga borib taqaladi. Tiki-taka usuliga asoslangan futbol bilan 2008 va 2012-yil Yevropa chempionati, 2010-yil jahon chempionatida chempionlikni qo'lgan kiritgan Ispaniya terma jamoasining "oltin avlod"ga boshchilik qilgan Luis Arogones va Visente del Boske murabbiyligida juda yorqin o'yin namoyish etishdi. 2009-yil olishi mumkin bo'lgan barcha 6 ta sovrinni qo'lga kiritgan "Barselona" ham shu Tiki-takani qo'llashdi. Tiki-taka futboldagi an'anaviy fikrlashdan voz kechib hududiy belgilashga o'tishni o'z ichiga oladi.

TO'LIQ O'RINDIQLI STADION Bu har bir tomoshabin uchun joy bo'lgan sport stadioni hisoblanadi. Bu Buyuk Britaniya, Ispaniya va Gollandiya kabi davlatlardagi professional futbol stadionlarida odatiy holdir. Qo'shma Shtatlardagi aksariyat futbol assotsiatsiyalari va Amerika futboli stadionlari va Kanadadagi Kanada Futbol Ligasi stadionlari, shu mamlakatlardagi beysbol va yengil atletika stadionlari kabi barcha muxlislar tashrifi o'tirish o'rindiqlariga mo'ljallangan. Hamma o'rindiqlarga mo'ljallanmagan stadionda faqat o'rindiq uchun chiptalari bor ishtirokchilar uchun o'tirsh va turib tomosha qilish jarayonni uchun joylar mavjud. Bunday tik turgan xolda tomoasha qilinadigan joylar Britaniyada teraslar deb nomlanadi. Birlashgan Qirollikdagi futbol tomoshabinlari orasida faqat terasli stendlar ustunlik qilgan. Masalan, Vulverxempton jamoasining uyi stadioni bo'lgan Molineux stadionida janubiy darvoza ortidagi „South Bank Stand" sektoriga ko'pi bilan 32 000 tomoshabin sig'adi, qolgan stadionlar esa bundan bir oz kamroq; umumiy maksimal muxlislar sig'imi esa 59,000 atrofida edi.

Ba'zi Yevropa mamlakatlarida, masalan, Germaniyada to'liq o'rindiqli stadionlar yo'q. Nemis muxlislari futbol tomosha qilayotganda tik turishni afzal ko'rishdi, shuning uchun mamlakat maydonlarida katta terasli maydonlar mavjud. Masalan, Borussiya Dortmundning „Vestfalenstadion" (tijorat nomi Signal Iduna Park nomi bilan tanilgan) 65 829 o'rindiqga ega, ammo Bundesliga o'yinlari davomida tomoshabinlar soni 81 360 nafarni tashkil qiladi. (Agar „ikkita tik turish bir o'tirish bilan bir xil joyni egallaydi" degan umumiy qoida qo'llanilsa, Bundesliga o'yinlarida 15 000 ga yaqin o'rindiqlar 30 000 ga yaqin tomoshabinlar bilan almashtiriladi.)

TO'P O'YINDA Agar to'p darvoza ustuniga, to'siniga yoki burchakdagi bayroqqa tegib maydonga qaytadigan bo'lsa, shuning bilan birga to'p maydonda turgan hakamga yoki hakam yordamchisiga tegib yana maydonga qaytsa ham o'yinda hisoblanib o'yinni davom ettirishga ruxsat beriladi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

TOʻP Futbol oʻyini uchun sport anjomi. Toʻp – charm yoki shunga oʻxshash xom-ashyodan tayyorlanib yumaloq shaklga ega boʻlishi kerak, Toʻpni tayyorlashda oʻyinchilarga shikast yetkazadigan materialdan foydalanishga ruxsat etilmaydi. Toʻpning aylanasi uzunligi 68-71 sm, oʻyin boshida uning ogʻirligi 400-450 g. boʻlib, ichidagi havo bosimi dengiz satxida 0,6-1,1 atm. (600-1100 g. sm2) boʻlishi kerak. Oʻyin paytida toʻp faqat hakamning ruxsati bilangina almashtirilishi mumkin.

TOʻRTINCHI HAKAM Zaxiradagi hakam musobaqa qoidasiga koʻra hakamlik vazifasini bajarishga tayinlanishi mumkin shu holatdaki, agar oʻyinning uchta hakamidan birontasi oʻz vazifasini davom ettira olmaydigan holatda boʻlsa. - Oʻyin boshlanishidan oldin uning tashkil etilishiga javobgar, ya'ni agar hakam oʻz vazifasini davom ettiradigan holatda boʻlmasa: bu vazifani zaxiradagi hakam oʻziga qabul qiladimi yoki hakamning birinchi yordamchisimi ekanligini. Zaxira hakami agar hakam talab qilsa har qanday ma'muriy vazifalarni muddatdan oldin, oʻyin vaqtida va oʻyindan keyin bajarishga yordamlashadi. U oʻyin davomida oʻyinchilarni almashtirish holatiga yordam beradi. U zaxiradagi oʻyinchilarning oʻyin maydoniga chiqishidan oldin ekipirovkasini tekshirishga haqqi bor. Agar ular ekipirovkasi oʻyin qoidasiga mos kelmasa bu haqida hakamga ma'lum qiladi. Toʻrtinchi hakam hamma vaqt hakamlarga yordam beradi.

TOʻSIB OLISH Himoyadagi jamoa oʻyinchisining raqib oʻyinchisi yoʻlini toʻsib, uning toʻp olish imkoniyatini qiyinlashtiradigan harakati. Raqib yoʻlini toʻsib olish uchun himoyachi shu oʻyinchi bilan oʻz darvozasi orqasiga oʻtish (darvozaga nisbatan yonlamaroq yoki orqa oʻgirib turishi) kerak. Himoyachi bilan hujumchi orasidagi masofa toʻp bilan oʻyinchi darvozaga yaqinlashgan sari yoki darvozadan uzoqlasha borgan sayin kamayib yoki koʻpayib borishi mumkin.

ULITKA Aldamchi harakat boʻlib bunda futbolchi oʻz oʻqi atrofidan 360 gradusga aylanadi. Toʻpni bir oyoqdan ikkinchisiga uzatib harakatlanadi. Boshqacha qilib aytganda mashhur fransiyalik futbolchi Zinedin Zidan finti hisoblanadi.

UNIVERSAL OʻYINCHI Har xil pozitsiyalarda bir xil foydali boʻladigan oʻyinchi. Bunday oʻyinchi, masalan, zamonaviy futbolda himoyachi, tayanch markaziy yarim himoyachi funktsiyalarini bajara olishi mumkin. Shunga qaramay, zamonaviy futbolda maydonda koʻplab funktsiyalarni bajara oladigan universallar juda kam, har bir oʻyinchi asosan bitta aniq vazifada maksimal darajada foydali boʻladi.

XULOSA. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, futbol atamalari uzoq tarixga hamda rivojlanishga egaligini ta`kidlash kerak. Futbol oʻyini rivojlanishi va tarqalishi bilan taraqqiy eta boshladi. Shu uchun futbolning ommaviyligi ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ommaviy va professional futbolga e`tibor qaratilmoqda. Bizning kichik tadqiqotimizda musobaqalarda ishlatiladigan atamalar izohi qisqa yoritib berildi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бауэр В. Г. Социальная значимость физической культуры и спорта в современных условиях развития России // Теория и практика физической культуры. – 2001. – № 1. – С. 50–56.

2. Ibragimov M.B. Futbol atamalari. Uslubiy qo‘llanma. – 2022. – B. 55-66.

3. Словарь футбольных терминов // Российские и советские спортсмены: сайт. – 2012. – 23 янв. – URL: http://ruchampions.com/glossarium/61-slovar-futbolnih-terminov.

4. Терминология футбола // Футбол: сайт. – URL: https://www.sites.google.com/site/asadovfootball/pravila/ terminologia-futbol.

5. fifa.com - Xalqaro Futbol Uyushmasining sayti.

6. Football.com - Futbol axboroti sayti ru.m.wikipedia.org.wiki tarmog‘idan olingan ma`lumotlar.

7. Uff.uz - O‘zbekiston Futbol Federatsiyasining sayti.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ibragimov Manuchexr Baxtiyorovich
Buxoro davlat pedagogika institute dotsenti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA 5-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASH BO‘YICHA BAJARILGAN ILMIY-TADQIQOT ISHLARINING TAHLILI

Qurbonova Zilola Ismoil qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy mexanizmlari, maktab ta’limiga sifatli tayyorlashning vazifalari, muammolari haqida tahliliy ma’lumot hamda bajarilgan ilmiy tadqiqod ishlarining mazmuni va tizimli tahlili keltirilgan.

MAQSAD: Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish va bolalarni jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan shakllantirish, ularning tug‘ma layoqati, ruhiy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta’lim olishga (maktabga) tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, shu mavzuda bajarilgan ilmiy tadqiqod ishlarining mazmuni va ularni tizimli tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Maktabgacha ta’lim yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili zamonaviy pedagogika va ta’lim sohasida muhim o‘rin tutadi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, bolalarni maktabga tayyorlash va ta’lim metodlarini takomillashtirishga qaratilgan.

XULOSA: Yuqoridagi Respublikamiz miqyosida 2003-2024-yillarda bajarilgan dissertatsiya ishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari deyarli olib borilmaganligi ushbu dissertatsiya mavzusini “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish” va ixtisosligini 13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) tarzida belgilanishi dolzarb masala sifatida qaralishiga asos bo‘lib, bolalarni maktab ta’limiga

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

sifatli tayyorlashning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish, doimiy ilmiy izlanish va mukammallashtirishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: maktabga tayyorgarlik, shaxsiy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, aqliy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, obrazli tafakkur.

АНАЛИЗ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ РАБОТ ПО ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ 5-7 ЛЕТ К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Курбанова Зилола Исмаиловна.
Бухарский государственный педагогический институт, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье представлены аналитические сведения об основных механизмах подготовки детей дошкольного возраста к школе, задачах и проблемах качественной подготовки к школьному образованию, а также содержание и систематический анализ выполненных научно-исследовательских работ.

ЦЕЛЬ: Сегодня разрабатываются рекомендации по обучению и воспитанию детей дошкольного возраста и подготовке к регулярному обучению (школе) на основе национальных и общечеловеческих ценностей, с учетом их врожденных способностей, умственного развития, интересов, потребностей и возможностей, с учетом их врожденных способностей, умственного и духовного формирования, содержания научных исследований, проводимых по этой теме, и их систематического анализа.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Анализ научно-исследовательских работ в области дошкольного образования занимает важное место в области современной педагогики и образования. Научные исследования в этом направлении направлены на развитие детей дошкольного возраста, повышение эффективности образовательного процесса, подготовку детей к школе и совершенствование методов обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Приведенный выше анализ диссертационных работ, выполненных в 2003-2024 годах на уровне нашей Республики, показывает, что научно-исследовательские работы в области педагогики в контексте совершенствования механизмов подготовки детей к школьному обучению в дошкольных образовательных организациях практически не проводились. 13.00.08 - Определение специальности теории и методики школьного образования и обучения в форме доктора философии (PhD) по педагогическим наукам является основанием рассматриваться как актуальная проблема, требующая разработки новых механизмов качественной подготовки детей к

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

школьному образованию, постоянных научных исследований и совершенствования.

Ключевые слова: подготовка к школе, личностная подготовка, физическая подготовка, психическая подготовка, психологическая подготовка, специальная подготовка, образное мышление.

ANALYSIS OF SCIENTIFIC-RESEARCH WORKS PERFORMED ON THE PREPARATION OF 5-7-YEAR-OLD CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Kurbanova Zilola Ismailovna
Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: This article provides analytical information about the main mechanisms of preparing children of preschool age for school, the tasks and problems of quality preparation for school education, as well as the content and systematic analysis of the performed scientific research works

OBJECTIVE: Today, development of recommendations for education and upbringing of children of preschool age and preparation for regular education (school) based on national and universal values, taking into account their innate abilities, mental development, interest, needs and opportunities, taking into account their innate abilities, mental and spiritual formation, the content of scientific research works carried out on this topic and their systematic analysis.

MATERIALS AND METHODS: The analysis of scientific-research works in the field of preschool education occupies an important place in the field of modern pedagogy and education. Scientific research in this direction is aimed at the development of preschool children, increasing the effectiveness of the educational process, preparing children for school and improving educational methods

CONCLUSION: The above analysis of the dissertation work carried out in 2003-2024 at the level of our Republic shows that almost no scientific research work was carried out in the field of pedagogy in the context of improving the mechanisms of preparing children for school education in preschool educational organizations. 13.00.08 - The definition of the specialty of the theory and methodology of school education and training in the form of a doctor of philosophy (PhD) in pedagogic sciences is the basis for being considered as an urgent issue, which requires the development of new mechanisms of quality preparation of children for school education, constant scientific research and improvement.

Key words: school preparation, personal preparation, physical preparation, mental preparation, psychological preparation, special preparation, figurative thinking.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Maktabgacha ta’limning o‘rni va ahamiyati jamiyatdagi umumiy ta’lim tizimining asosini tashkil etadi. Shu sababli, bolalarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash, mustaqil fikrlovchi ijodkor bolani tarbiyalash maktabgacha ta’lim tizimining asosiy vazifasi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi 5-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash esa bugungi global ta’lim muhitida dolzarb mazvu hisoblanadi. Shu sababli bu davr bolalar hayotidagi o‘yin faoliyatining nisbatan kamayishi va o‘qish faoliyatining ko‘payishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shunday ekan maktabga ta’limiga tayyorlashning asosiy mexanizmlari nimalardan iboratligiga alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozim.

Maktabgacha ta’lim tizimi zamonaviy pedagogik, psixologik va metodik yondashuvlarga asoslanib rivojlanmoqda. Shuningdek, bolalarni maktabga tayyorlash borasida ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’limning samarali tashkil etilishi, uning metodik va psixologik asoslari, ta’lim dasturlari va materiallarining to‘g‘ri tanlanishi bolalarni maktabga tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Bunda ilmiy-tadqiqot ishlari bolalarni maktabga ta’limiga tayyorlashda bilim va ko‘nikmalarini kengaytirish, ularning amaliyotdagi samaradorligini oshirishga qaratilmoqda.

Ushbu ishda maktabgacha ta’lim yo‘nalishida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlanishidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili, ularning maktabga tayyorgarlik ko‘nikmasini shakllantirish va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish borasidagi yutuqlar, mavjud muammolar va kelajakda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ilmiy izlanishlar ko‘rib chiqildi.

Pedagogika sohasi bo‘yicha tadqiqotchi olimlar tomonidan ta’lim sohasini isloh qilish, sifat va samaradorlikni oshirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorgarligini takomillashtirishga oid bir qancha ilmiy tadqiqot ishlar olib borilgan bo‘lib, ushbu jarayonlar davom etmoqda.

Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida Respublikamizda amlaga oshirilgan va ijobiy natijalarga erishilgan holda himoya qilingan dissertatsiya ishlarining sonini qanday raqamlarda ekanligini bilish va ularning mazmunini anglash maqsadida 2003-2024-yillar mobaynida bajarilgan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalar va avtoreferatlar ziyonet.uz axborot ta’lim platformasidan yuklab olish orqali tizimli tahlil qilinganda ularning umumiy soni bir ming to‘qqiz yuzi to‘qson besh (1995) tani tashkil etib, shundan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni yetmish bir (1810) tani, pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni olti (185) ta ekanligi aniqlanib, pedagogika sohasining 13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan bajarilgan dissertatsiya ishlarning umumiy soni yetmish yetti (77) tani, shundan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni yetmish bir (71) tani, pedagogika fanlari doktori

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

(DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni olti (6) ta ekanligi izohlanib, 13.00.08–Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish” mazmunidagi umumiy ishlar soni sakkiz (7) tani tashkil etib, shundan pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasining soni bir (1) tani, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni yetti (6) tani tashkil etdi. Ushbu tizimli tahlil natijalari quyida izohlangan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

2003-2024-yillar mobaynida bajarilgan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalar va 13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan bajarilgan dissertatsiyalarning umumiy soni

2003-2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) va (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni		2003-2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) va (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.08-Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha dissertatsiyalarining umumiy soni		2003-2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) va (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.08-Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish” mazmunidagi dissertatsiyalarning umumiy soni	
1995		**77**		**7**	
Shundan pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) dissertatsiyalar umumiy soni	Shundan pedagogika fanlari bo‘yicha (DSc) dissertatsiyalar umumiy soni	Shundan 13.00.08-Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan pedagogika	Shundan 13.00.08-Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan pedagogika	Shundan 13.00.08-Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan pedagogika	Shundan 13.00.08-Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan pedagogika

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

		fanlari bo‘yicha (PhD) dissertatsiyalar umumiy soni	fanlari bo‘yicha (DSc) dissertatsiyalar umumiy soni	fanlari bo‘yicha (PhD) dissertatsiyalar umumiy soni	fanlari bo‘yicha (DSc) dissertatsiyalar umumiy soni
1810	**185**	**71**	**6**	**6**	**1**

Yuqoridagi tahlillar diagramma ko‘rinishida ham izohlangan (1-rasmga qarang).



1-rasm. 2003-2024-yillar mobaynida bajarilgan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalar va 13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan bajarilgan dissertatsiyalarning foizda ko‘rsatgichlari

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Yuqorida izohlangan tahlillar asosida 13.00.08–Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish mazmunida bajarilgan ba’zi dissertatsiya ishlarining mazmuni ham tizimli tahlil qilinganda, To‘ychieva Inoyatxon Ibragimovnaning “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish” mavzusidagi 13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishida

tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini baholash mezonlari (reproduktiv, produktiv, kreativ) maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy sifatlari (munosabat, faoliyat va muloqot madaniyati, ma'naviy-irodaviy, ijobiy hissiy)ni individual rivojlanish traektoriyasi bilan integratsiyasini ta'minlash asosida ishlab chiqilgan; tayyorlov guruhi bolalarining hozirjavoblik, muloqotga kirishish, o‘zini-o‘zi anglash, o‘zi va atrofdagilarga baho bera olish, o‘z faoliyatini tahlil qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi refleksiv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining o‘zaro dinamik aloqadorligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

A’zamova Maloxat Nadjimovnaning “Maktabga tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarida do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish” mavzusidagi 13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishida maktabga tayyorlash bosqichida bolalarda do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni Davlat talablari asosida tayyorlov guruhi bolalarining yosh-individual, ijtimoiy-hissiy, kognitiv-ijodiy rivojlanish indikatorlariga ustuvorlik berish asosida didaktik jihatdan takomillashtirilgan;bolalarda do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni tashkiliy-didaktik tizimi tarbiyachilarning innovatsion faoliyati, variativ axborot-metodik ta'minot, ota-onalar bilan koorporativ hamkorlik tizimi komponentlarining sinergetik integratsiyasini nazariy jihatdan ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

Najmiddinova Hilola Yokubjanovnaning “Maktabgacha yoshdagi bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” mavzusidagi ishida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini individual va guruhli mashg'ulotlar uyg'unligida, interfaol metodlar va mul`timedia texnologiyalari vositasida shakllantirishning metodik asoslari “Kompyuter o‘yinlari orqali kichik yoshdagi bolalarga dastlabki matematik bilimlar berish” hamda “Maktabgacha yoshdagi bolalarning elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” nomli monografiyalar, “Matematik tasavvurlarni shakllantirish” nomli o‘quv qo‘llanma, “Kompyuter o‘yinlari yordamida kichik yoshdagi bolalarda matematik bilimlarni shakllantirish” nomli 2 qismli o‘quv-uslubiy hamda “Kompyuter o‘yinlari va matematika” nomli uslubiy qo‘llanma mazmuniga singdirilgan.

Yuqoridagi Respublikamiz miqyosida 2003-2024-yillarda bajarilgan dissertatsiya ishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari deyarli olib borilmaganligi ushbu dissertatsiya mavzusini “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish” va ixtisosligini 13.00.08 – Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) tarzida belgilanishi dolzarb masala sifatida qaralishiga asos bo‘lib, bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish, doimiy ilmiy izlanish va mukammallashtirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. –T., 2019. 132-133 b.

2.Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi. –T, 2020.

3.Qurbonova. Z.I. The Importance of the use of Educational Technologies Aimed at the Developmentof the Child’s Personality in Preschool Education.” nomli Ilmiy maqola -International Journal of Culture and Modernity” ISSN 2697-2131, Volume 11 47,48,49 b . Испания 2021

4.Мирзаева Д.Ш., Курбанова З.И. “Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021. 1206-1212b.

5. Kurbonova Z. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarisda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning asosiy mexanizmlari //pedagogik mahorat. – c. 120.

6. Qurbonova Z. I. Q., Muqimova M. N. Q. Oilada yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning psixologik shart-sharoitlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 969-973.

7. Qurbonova Z. I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish-dolzarb vazifamiz //Ekonomika. – С. 1035-1038

8. Zilola K. COMPETENT APPROACH IN PREPARING 5–7 YEAR OLD CHILDREN FOR SCHOOL ON THE BASIS OF THE" ILK KADAM" STATE CURRICULUM //International Journal of Formal Education. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 251-258.

9. KURBONOVA Z. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING ASOSIY MEXANIZMLARI //EDAGOGIK AHORAT. – С. 119.

10.Zilola K. THE ROLE OF LABOR EDUCATION IN EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. – 2023

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Qurbonova Zilola Ismoil qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH

Sayfullayeva Nozima Baxodirovna
Osiyo xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Ma’lumki, o‘qitish uslublari, ularni tizimli ravishda boyitib va yangilab borish masalasi o‘qitish va umuman, ta’lim tizimida yuqori natijalarga erishishda eng muhim jihatlardan biridir. O‘qish va o‘qitish metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyat usullari bo‘lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarga erishiladi. O‘qituvchilarning qobiliyati, tafakkuri rivojlanadi. Shuning uchun zamonaviy fan-texnika va axborot texnologiyalarining ilg‘or yutuqlari asosida boyitib borilgan o‘qitish metodlari tarbiyalash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada boshlang‘ich sinfda matematika o‘qitishda o‘qituvchining xususiyatlari haqida fikr bildirilgan.

MAQSAD: Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishda pedagog imkoniyatlarini oshirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: O‘qitishda suhbatning katexizik va evristik suhbat turlaridan foydalaniladi. Katexizik suhbat shunday savollar sistemasi asosida tuziladiki, bu savollar ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar, ta’riflarni oddiygina qayta eslashni talab qiladi. Bunda asosan bilimlarni tekshirish va baholash, yangi materiallarni mustahkamlash, takrorlash amalga oshiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni bermaydi, balki qo‘yilgan savollar orqali ularning o‘zlarini oldingi bilimlari hamda kuzatishlari asosida yangi tushunchalar, xulosalarga kelishiga olib keladi.

Beriladigan savollar o‘quvchilarning fikrlashini faollashtirishi uchun ularni voqea-hodisalar va dalillarni taqqoslash, solishtirishga, ularni ajratish yoki guruhlashga, ular orasidagi bog‘lanishlarni izlashga majbur qilishi kerak.

XULOSA: O‘qituvchi o‘quvchilarga birmuncha vaqt u yoki bu yordamni ko‘rsatadi. Shundan so‘ng mashqlar mustaqil bajarilishi maqsadga muvofiqdir. Ijodiy xarakterdagi mashqlarga masala va misollarni turli usullar bilan yechish, ifoda bo‘yicha masala tuzish, qisqa yozuv sxemasiga ko‘ra masala tuzish, idrok qilishga oid, jumboqli xarakterdagi masalalarni yechish kabi mashqlar kiradi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kalit so‘zlar: matematika, o‘qitish, pedagog, mustaqil ta’lim, samaradorlik, suhbat, evristik

САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ РАБОТА НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ ОРГАНИЗАЦИЯ

Сайфуллаева Нозима Баходировна
Старший преподаватель Азиатского международного университета, город Бухара

Аннатация.

ВВЕДЕНИЕ: Известно, что методы обучения, их систематическое обогащение и обновление являются одним из важнейших аспектов достижения высоких результатов в преподавании и системе образования в целом. Методы обучения и преподавания — это методы совместной деятельности педагога и учащихся, посредством которых приобретаются новые знания, умения и навыки. Развиваются способности и мышление учителей. Поэтому большое значение в повышении эффективности образования имеют методы обучения, обогащенные передовыми достижениями современной науки, техники и информационных технологий. В статье рассматриваются особенности деятельности учителя математики в начальной школе.

ЦЕЛЬ: Повысить способность учителей организовывать самостоятельную работу на уроках математики в начальной школе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В обучении используются катехизические и эвристические типы бесед. Катехизическая беседа строится вокруг системы вопросов, которые просто требуют припоминания ранее полученных знаний и определений. В основном это проверка и оценка знаний, закрепление нового материала и его повторение. Учитель не дает студентам готовых знаний, а, скорее, посредством задаваемых ими вопросов подводит их к новым концепциям и выводам, основанным на их предыдущих знаниях и наблюдениях.

Чтобы активизировать мышление учащихся, задаваемые вопросы должны заставлять их сравнивать, сопоставлять, разделять или группировать события и факты, а также искать связи между ними.

ВЫВОД: Учитель оказывает ученикам некоторую помощь в течение некоторого времени. После этого желательно выполнять упражнения самостоятельно. Творческие упражнения включают в себя решение задач и примеров различными способами, формулирование задач на основе выражений, формулирование задач на основе коротких письменных образцов, а также решение познавательных и головоломных задач.

Ключевые слова: математика, преподавание, учитель, самостоятельное обучение, эффективность, беседа, эвристика

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

ORGANIZATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADE MATHEMATICS LESSONS

Sayfullayeva Nozima Bakhodirovna
Senior Lecturer, Asian International University, Bukhara city

Annatation.

INTRODUCTION: It is known that teaching methods, their systematic enrichment and updating are one of the most important aspects of achieving high results in teaching and, in general, in the education system. Teaching and learning methods are methods of joint activity of teachers and students, with the help of which new knowledge, skills and abilities are achieved. Teachers' abilities and thinking are developed. Therefore, teaching methods enriched on the basis of advanced achievements of modern science and technology and information technologies are of great importance in increasing the effectiveness of education. The article presents an opinion on the characteristics of a teacher in teaching mathematics in primary school.

GOAL: To increase the pedagogical capabilities in organizing independent work in primary school mathematics lessons.

MATERIALS AND METHODS: In teaching, catechetical and heuristic types of conversation are used. A catechetical conversation is based on a system of questions that require a simple recall of previously acquired knowledge and definitions. This mainly involves checking and evaluating knowledge, consolidating new material, and repeating it. The teacher does not give students ready-made knowledge, but through the questions asked, leads them to come to new concepts and conclusions based on their previous knowledge and observations.

In order to activate students' thinking, the questions asked should force them to compare, contrast, separate or group events and facts, and look for connections between them.

CONCLUSION: The teacher provides students with one or another help for some time. After that, it is advisable to complete the exercises independently. Creative exercises include solving problems and examples in various ways, formulating problems by expression, formulating problems according to a short writing scheme, solving problems related to perception, and solving puzzles.

Keywords: mathematics, teaching, teacher, independent learning, effectiveness, conversation, heuristic

Ma'lumki, o'qitish uslublari, ularni tizimli ravishda boyitib va yangilab borish masalasi o'qitish va umuman, ta'lim tizimida yuqori natijalarga erishishda eng muhim jihatlardan biridir. O'qish va o'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyat usullari bo'lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malakalar va ko'nikmalarga erishiladi. O'qituvchilarning qobiliyati, tafakkuri rivojlanadi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Shuning uchun zamonaviy fan-texnika va axborot texnologiyalarining ilg‘or yutuqlari asosida boyitib borilgan o‘qitish metodlari tarbiyalash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda amaliyotda mavjud bo‘lgan o‘qitish metodlaridan ta’limning yangi mazmuniga va yangi vazifalariga mos keladiganlarini ongli tanlab olish uchun dastavval hamma o‘qitish metodlari va mavjud o‘qitish metodlari klassifikatsiyasini qarab chiqish lozim bo‘ladi. O‘qitish metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil qilish, rag‘batlantirish va nazorat qilishni nazarda tutadi. Shuning uchun ular uch guruhga bo‘linadi:

– o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish metodlari;

– o‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantirish metodlari;

– o‘quv-bilish faoliyati samadorligini nazorat qilish metodlari.

O‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish metodlari bir necha guruhga bo‘linadi, bular:

1. O‘quvchilar bilim oladigan manbalar bo‘yicha: og‘zaki, ko‘rsatmali, amaliy metodlar.

2. O‘quvchi fikrining yo‘nalishi bo‘yicha: induksiya, deduksiya, analogiya.

3. Pedagogik ta’sir boshqarishning darajasi, o‘quvchilarning o‘qishida mustaqillik darajasi bo‘yicha: o‘qituvchi boshchiligida bajariladigan o‘quv ishi metodi hamda o‘quvchilarning mustaqil yillari metodi.

4. O‘quvchilarning mustaqil faolliklari darajasi bo‘yicha: izohli-illyustrativ, reproduktiv, bilimlarni jumboqli bayon qilish metodi, qisman izlanish va tadqiq qilish metodi.

Endi o‘quvchilar bilim oladigan manbalar bo‘yicha taqsimlangan guruhni alohida tahlil qilib o‘tsak. Yuqorida keltirilganlardan ma’lumki, bular og‘zaki, ko‘rsatmali va amaliy metodlardan iborat edi. Og‘zaki metodlar qisqa muddat ichida hajmi bo‘yicha eng ko‘p axborot berish, o‘quvchilar oldiga jumboqlar qo‘yish, ularni hal qilish yo‘nalishlarini izlab topishiga ko‘maklashish, umuman olganda o‘quvchini og‘zaki ishlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Bu metodlar o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda o‘ziga xos sharoit yaratadi. Ularni, ya’ni og‘zaki metodlarni ham alohida ko‘rib chiqsak:

Tushuntirish. Bilimlarni tushuntirish metodi shundan iboratki, bunda o‘qituvchi materialni bayon qiladi, o‘quvchilar esa bilimlarni tayyor holda qabul qilib olishadi. O‘quv materialining bayoni aniq, tushunarli, qisqa bo‘lishi kerak. Tushuntirish metodidan ma’lumotlar tariqasidagi nazariy materiallar bilan tanishtirish, o‘quvchilarga o‘quv qurollarini ishlatish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni berishda foydalaniladi.

Boshlang‘ich matematika kursining bir qator masalalarini og‘zaki tushuntirish usuli bilan bayon qilish zarur. Og‘zaki tushuntirish usulida zamonaviy axborot-texnologiyalari, maxsus gadjetlardan ham oqilona foydalanish mumkin, bu o‘quvchilarda matematik figuralarni tasavvur qilish va ularni anglab yetishga katta yordam berishi mumkin.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Suhbat. Eng ko‘p tarqalgan va yetakchi o‘qitish metodlaridan bo‘lib, darsning har xil bosqichlarida, har xil maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin, ya’ni yangi materialni bayon etish, mustahkamlash, takrorlashda, uyga berilgan topshiriqlarni, mustaqil ishlarni tekshirishda qo‘llanilishi mumkin. Suhbat – o‘qitishning savol-javob metodidir, bunda o‘qituvchilar o‘quvchilarning bi limlarni o‘zlashtirilganliklari va amaliy tajribalariga tayangan holda maxsus tanlangan savollar tizimi va ularga beriladigan javoblar yo‘li bilan o‘quvchilarni qo‘yilgan ta’limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishga olib keladi.

O‘qitishda suhbatning katexizik va evristik suhbat turlaridan foydalaniladi. Katexizik suhbat shunday savollar sistemasi asosida tuziladiki, bu savollar ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar, ta’riflarni oddiygina qayta eslashni talab qiladi. Bunda asosan bilimlarni tekshirish va baholash, yangi materiallarni mustahkamlash, takrorlash amalga oshiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni bermaydi, balki qo‘yilgan savollar orqali ularning o‘zlarini oldingi bilimlari hamda kuzatishlari asosida yangi tushunchalar, xulosalarga kelishiga olib keladi.

Beriladigan savollar o‘quvchilarning fikrlashini faollashtirishi uchun ularni voqea-hodisalar va dalillarni taqqoslash, solishtirishga, ularni ajratish yoki guruhlashga, ular orasidagi bog‘lanishlarni izlashga majbur qilishi kerak.

Quyidagi savollar huddi shunga da’vat etadi: «Nega?», «Bu nimani anglatadi?», «Buni boshqacha yana qanday qilish mumkin?», «Buni qanday tushunmoq kerak?» va hokazo.

Hikoya. O‘qituvchi bilimlarni tushuntirishni hikoya (ertak) ko‘rinishida amalga oshirishi mumkin. Bundan asosan matematika tarixining rivojlanishi, o‘lchov tizimlari rivojlanishi haqida va boshqa matematika tarixiga oid ma’lumotlarni berish uchun foydalaniladi.

Berilayotgan hikoya bola kundalik hayotda duch kelayotgan voqea-hodisalar, unsurlar hamda uni o‘ylantirayotgan masalalar ishtirokida bo‘lsa, albatta uning samaradorligi yuqori bo‘ladi.

O‘quvchilarni kitob bilan ishlashlari. Bu og‘zaki o‘qitish metodlarining ko‘rinishlaridan biridir. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarida fan asoslarining tizimli kursi bayon qilinadi, o‘quvchilarning mustaqil ishlari uchun material beriladi. O‘qitish jarayonining hamma bosqichlarida darslik va kitob bilan ishlash amalga oshiriladi, ammo bu ish o‘quvchilardan ma’lum malaka va o‘qituvchi yordamini talab qiladi. O‘qish malakalarini egallashlariga qarab o‘quvchilarni kitobda berilgan matnni mustaqil o‘qishga jalb qilish zarur.

Matematikada matnni yoki masala matnini o‘qish o‘quvchilar uchun yangi va tushunish uchun birmuncha qiyin, shuning uchun o‘quvchining darslikdan nimani o‘qiganini tekshirish kerak. Darsliklarda har bir mashqdan oldin berilgan ko‘rsatmalarni o‘qishga e’tibor berish kerak.

Matematikani o‘qitishda o‘quvchilarning rasmlar, chizmalar va sxemalarni o‘qishi ularning malakasi, xususan darslikning asosiy mazmunini tashkil qiluvchi matematik yozuvlarni tushunish malakasini boyitib borishda katta ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Bunda ishning yakuni rasm, chizma, og‘zaki ifodalar, matematik yozuvlar yordamida yangi bilimlarni mustaqil egallash uchun darslik ochib beradigan imkoniyatlardan foydalanish kerak bo‘ladi.

Ko‘rsatmali metodlar. O‘qitishning bu usuli o‘quvchilarga kuzatishlar asosida bilimlar olish imkonini beradi.

Kuzatish hissiy tafakkurning ko‘rinishi bo‘lib, boshlang‘ich sinflarda undan keng va samarali foydalanish zarur. Atrof borliqdagi predmet, hodisalar va ularning turli-tuman modellari, har xil tildagi ko‘rsatma qo‘llanmalar kuzatish ob’ektlari hisoblanadi.

O‘qitishni ko‘rsatma metodlarini o‘qitishning og‘zaki metodlaridan ajratib bo‘lmaydi. Ko‘rsatma qo‘llanmalarni namoyish qilishni har doim o‘qituvchining va o‘quvchilarning tushuntirishlari bilan birgalikda olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchining so‘zi bilan ko‘rsatma vositalaridan birgalikda foydalanishning to‘rtta asosiy shakli aniqlangan.

Matematika darslarida ko‘rgazmali metodni amalga oshirishda bir tomondan o‘quvchilarning idrok etishlariga, ikkinchi tomondan ularning tasavvurlariga tayanish samarali jihatdir.

Matematika darslarida ko‘rsatmali metodlardan to‘g‘ri foydalanish miqdoriy tasavvurlarning mazmunli tushunchalarining shakllanishiga imkon beradi, mantiqiy fikr yuritish va nutqni rivojlantiradi, aniq hodisalarni qarab chiqish va tahlil qilish asosi da keyinchalik amalda qo‘llaniladigan umumlashtirishlarga kelishga yordam beradi.

Amaliy metodlar. Malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va mukammallashtirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan metodlar amaliy metodlardir. Bunga yozma va og‘zaki mashqlar, amaliy laboratoriya ishlari, mustaqil ishlarning ba’zi turlarini kiritish mumkin. Mashqlar asosan mustahkamlash va bilimlarni tatbiq qilish metodi sifatida qo‘llaniladi.

Mashq deb biror amalni o‘zlashtirish yoki mustahkamlash maqsadida rejali ravishda tashkil qilingan takroriy bajarishga aytiladi. Mashqlar sanoq malakalari, hisoblash ko‘nikmasi va malakalari, arifmetik masalalarni yechish ko‘nikmalarini vujudga keltirish uchun ishlatiladi.

Mashqlar muayyan tizimda yengildan murakkabga o‘tish tamoyiliga amal qilingan holda ishlatilishi kerak. Mashqlar tayyorlash, mashq qildirish va ijodiy mashqlarga o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishi kerak. U yoki bu amal, usul, masala yechishni mustahkamlash uchun dastlabki mashqlar o‘qituvchi rahbarligida bajariladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga birmuncha vaqt u yoki bu yordamni ko‘rsatadi. Shundan so‘ng mashqlar mustaqil bajarilishi maqsadga muvofiqdir. Ijodiy xarakterdagi mashqlarga masala va misollarni turli usullar bilan yechish, ifoda bo‘yicha masala tuzish, qisqa yozuv sxemasiga ko‘ra masala tuzish, idrok qilishga oid, jumboqli xarakterdagi masalalarni yechish kabi mashqlar kiradi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Miqdorlar va ularning o‘lchanishi bilan tanishtirishda amaliy va laboratoriya ishlaridan to‘la foydalaniladi. Amaliy va laboratoriya ishlarini o‘tkazish o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini faol ravishda egallashlariga imkon beradi, mustaqil hukm chiqarish va xulosalar qilishga oid elementlar tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar tasavvurini boyitadi va ularning bilim doiralarini kengaytiradi.

Aynan shuning uchun ham amaliy va laboratoriya ishlari o‘qitishning samarali metodlaridan biri hisoblanadi. Buxoro viloyati umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida matematika darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish tajribasidan kelib chiqib va olib borilgan izlanishlarimiz asosida mazkur yo‘nalishda quyidagilarni taklif qilamiz:

– o‘qituvchi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari haqida asosli bilimlarga ega bo‘lishi, bu sohada metodik jihatdan o‘z ustida doimiy ravishda ishlashi lozim;

– matematika o‘quv predmetidan qo‘llaniladigan multimedia va tarqatma materiallarni o‘quvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda mazmunan talabga javob beradigan va yetarli hajmda bo‘lishi;

– har bir darsda bir-biriga mazmunan yaqin didaktik o‘yinlarga bir oz yangi elementlar qo‘shib foydalanish, bunda didaktik o‘yinlar shartini to‘g‘ri izohlashga e’tibor berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. –T., 2019. 132-133 b.

2.Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi. –T, 2020.

3.Qurbonova. Z.I. The Importance of the use of Educational Technologies Aimed at the Developmentof the Child’s Personality in Preschool Education.” nomli Ilmiy maqola -International Journal of Culture and Modernity” ISSN 2697-2131, Volume 11 47,48,49 b . Испания 2021

4.Мирзаева Д.Ш., Курбанова З.И. “Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021. 1206-1212b.

5. Kurbonova Z. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning asosiy mexanizmlari //pedagogik mahorat. – c. 120.

6. Qurbonova Z. I. Q., Muqimova M. N. Q. Oilada yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning psixologik shart-sharoitlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 969-973.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Sayfullayeva Nozima Baxodirovna
Osiyo xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi,
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

GLOBALLASHUV SHAROITIDA BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI O'QUVCHILARINING MUSIQIY-BADIIY DIDINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI.

Xodjiyeva Dilfuza Rustamovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining musiqiy-badiiy didini shakllantirishning dolzarbligi tahlil qilinadi. Musiqiy rivojlanish uchun avvalo, musiqiy-badiiy didni shakllantirish qanday ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan. Maqolada, shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablarida darslarni noan'anaviy usulda olib borish, darsning texnologik xaritasini tuzish, musiqiy-badiiy didni shakllantirishda ommaviy-madaniy tadbirlarni roli haqida so'z boradi. Maqola o'quvchilarning individual qobiliyatini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, darsda musiqiy dasturlardan foydalanish va bu orqali ta'lim jarayonini yangilash zarurligini ta'kidlaydi.

MAQSAD: Bolalardagi musiqiy-badiiy didni rivojlantirish orqali ularni komil inson qilib tarbiyalash.

MATERIALLAR VA METODLAR: Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirish masalasi so'nggi yillarda fortepiano darslarida dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Tadqiqotchilar, musiqachi pedagoglar innovatsion metodlar va turli zamonaviy texnalogiyalardan foydalangan holda musiqiy-badiiy didni rivojlantirishga qaratilgan turli yondashuvlarni o'rganishga katta e'tibor qaratishmoqda.

XULOSA: Bugunki kun talabi darajasida yondashib, musiqa va san'at maktabining fortepiano darslarini o'qitish jarayonida o'quvchilar bilan ishlash faoliyatini olib ko'radigan bo'lsak, fan doirasida berilgan fortepiano asarining nota matnini tahliliy o'rganish, nota nomlari bilan aniq intonatsiyada kuylash, asarda uchraydigan turli intervallar, dinamika va ijro sur'atini aniq tasavvur etgan holda kuylash, shuningdek, notalarni solfedjio qilib kuylash talab etiladi.

Bundan tashqari, murakkab taktlarni alohida mashq qilish, har bitta frazani alohida tinglab o'z xulosasini chiqarish vazifasi qo'yiladi. Bu ko'p qirrali badiiy musiqiy faoliyatni yuqori saviyada bajarish uchun nota ijrosini kuzatish, tinglash va ko'rish, ya'ni audiovizual idrok etish maqsadga muvofiq.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kalit so‘zlar: aralash ta’lim, innovasiya, badiiy-musiqiy faoliyat, audio va videotexnika vositalari, audiovizual idrok, finale va Sibelius dasturi, musiqiy-tarbiyaviy jarayon, insert metodi.

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ МУЗЫКАЛЬНО-ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВКУСА УЧАЩИХСЯ ДЕТСКИХ МУЗЫКАЛЬНЫХ ШКОЛ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ШКОЛ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.

Ходжиева Дильфуза Рустамовна,
Докторант Бухарского государственного университета, город Бухара

Аннатация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье анализируется актуальность формирования музыкально-художественного вкуса учащихся детских музыкальных и художественных школ в условиях глобализации. Показано, насколько важно для музыкального развития прежде всего формирование музыкально-художественного вкуса. В статье также рассматривается роль культурно-массовых мероприятий в проведении занятий в детских музыкальных и художественных школах нетрадиционными способами, создании технологической карты урока, формировании музыкально-художественных вкусов. В статье подчеркивается необходимость использования современных педагогических технологий для совершенствования индивидуальных способностей учащихся, использования музыкальных программ на занятиях и тем самым обновления образовательного процесса.

ЦЕЛЬ: Воспитывать детей как полноценных личностей путем развития их музыкального и художественного вкуса.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Проблема формирования музыкально-художественного вкуса учащихся детских музыкальных и художественных школ является одной из самых актуальных тем на уроках игры на фортепиано в последние годы. Исследователи и преподаватели музыки уделяют большое внимание изучению различных подходов, направленных на развитие музыкально-художественного вкуса с использованием инновационных методов и различных современных технологий.

ВЫВОД: Если подходить к современным требованиям и рассматривать работу с учащимися в процессе преподавания уроков игры на фортепиано в музыкальной и художественной школе, то требуется анализировать нотный текст заданного фортепианного произведения, петь с четкой интонацией, используя названия нот, петь с четким представлением о различных интервалах, динамике и темпе произведения, а также петь ноты по сольфеджио.

Кроме того, задача состоит в том, чтобы отрабатывать сложные такты по отдельности, слушать каждую фразу отдельно и делать собственные выводы. Для

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

осуществления этой многогранной музыкально-художественной деятельности на высоком уровне необходимо наблюдать, слушать и видеть исполнение нот, то есть обладать аудиовизуальным восприятием.

Ключевые слова: смешанное обучение, инновации, художественно-музыкальная деятельность, аудио- и видеотехника, аудиовизуальное восприятие, Finale и программа Sibelius, музыкально-образовательный процесс, метод инсертов.

THE VALUE OF FORMING THE MUSICAL AND ARTISTIC TASTE OF THE STUDENTS OF CHILDREN'S MUSIC AND ART SCHOOLS IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION.

Khodzhiyeva Dilfuza Rustamovna,
Doctoral student of Bukhara State University, Bukhara city

Annatation.

INTRODUCTION: This article analyzes the relevance of forming the musical and artistic taste of students of children's music and art schools in the conditions of globalization. First of all, it is shown how important it is for musical development to form musical and artistic taste. The article also discusses the role of non-traditional methods of conducting classes in children's music and art schools, drawing up a technological map of the lesson, and mass cultural events in the formation of musical and artistic taste. The article emphasizes the need to use modern pedagogical technologies to increase the individual abilities of students, use musical programs in the lesson, and thereby update the educational process.

GOAL: To educate children as complete individuals by developing their musical and artistic taste.

MATERIALS AND METHODS: The issue of forming the musical and artistic taste of students in children's music and art schools has been one of the topical topics in piano lessons in recent years. Researchers, music educators are paying great attention to the study of various approaches aimed at developing musical and artistic taste using innovative methods and various modern technologies.

CONCLUSION: If we approach the current level of demand and consider the activities of working with students in the process of teaching piano lessons at a music and art school, within the framework of the subject, it is required to analyze the musical text of the piano piece given, sing with clear intonation with the names of the notes, sing with a clear idea of the various intervals, dynamics and tempo of the piece, as well as sing the notes in solfeggio.

In addition, the task is set to practice complex beats separately, listen to each phrase separately and draw your own conclusions. In order to perform this multifaceted artistic musical activity at a high level, it is advisable to observe, listen and see the performance of the notes, that is, to have audiovisual perception.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Keywords: blended learning, innovation, artistic and musical activity, audio and video equipment, audiovisual perception, finale and Sibelius program, musical and educational process, insert method.

Bugunki kunda jahon musiqa ijrochiligining taraqqiy etib rivojlanishi fortepiano mutaxassisligi sohasida erishilgan yutuqlar bilan ham bog‘liq bo‘lib, u insonning ma’naviy, axloqiy, estetik, musiqiy-badiiy didini rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv sharoitida fortepiano ijrochilik san’ati shiddat bilan takomillashib, o‘z imkoniyatlarini kengaytirgan holda o‘tmishda shakllangan an’analarni davom ettirish va hozirgi davr yangilanish asosida yangi uslubiy-metodik sifatlarga ega bo‘layotgani mubolag‘a emas. Fortepiano cholg‘u ijrochiligi barcha tinglovchilar ommasini jalb etish va cholg‘uning ulkan imkoniyatlari orqali auditoriyaga katta emosional-psixologik, estetik, axloqiy, tarbiyaviy ta’sir qilish imkonini beruvchi eng rivojlangan sohalardan biridir.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ta’lim tizimi global miqyosda rivojlanayotgan bir davrda ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlarga mos ravishda yangi talablar va yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda. Fortepiano darslarida asosiy maqsad muntazam asar ustida ishlash bilan bir qatorda o‘quvchilarning ijodiy va innovatsion qobiliyatlarini, musiqiy-badiiy didini rivojlantirishdan iboratdir. Bu talablar, ayniqsa, bolalar musiqa va san’at maktablarida alohida dolzarb bo‘lib, o‘quvchilar nafaqat kompozitorlar yaratgan asarlarni mahorat bilan ijro eta olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi, balki o‘zlari mustaqil yangi asarlar yaratish, ilmiy va texnik muammolarni innovatsion yechimlar bilan hal qilish qobiliyatlarini oshirishni nazarda tutadi. Bunday talablar, o‘z navbatida, o‘quvchilarning nafaqat sinf-darslarda, balki professional sahnalarda muvaffaqiyatga erishishida ham asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda bolalar musiqa va san’at maktablarida individual ta’lim jarayoni ko‘pincha an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmoqda. O‘quv dasturlari asosan bir xillikdan iborat bo‘lib, bu o‘quvchilarni tez zerikib qolishiga sabab bo‘ladi. Darsda ijodiy yondashuvlar, interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchida musiqiy-badiiy didini shakllantirishga va qobiliyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi, mativatsiyasi va o‘quv muhiti ham o‘quvchida musiqiy-badiiy didni rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Ushbu maqolada bolalar musiqa va san’at maktablarining fortepiano darslarida o‘quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirishning dolzarbligi, pedagogik muammolari, mavjud imkoniyatlar va ularni hal qilish texnikalari tahlil qilinadi. Maqsad-o‘quvchilarning musiqiy-badiiy didini rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlarni aniqlash va ularga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bu masala nafaqat bolalar musiqa va san’at maktabi o‘quvchilari uchun balki, o‘rta maktabning musiqa darslarida ham foydali bo‘ladi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Bolalar musiqa va san’at maktablarida o‘quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirish masalasi so‘nggi yillarda fortepiano darslarida dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. Tadqiqotchilar, musiqachi pedagoglar innovatsion metodlar va turli zamonaviy texnalogiyalardan foydalangan holda musiqiy-badiiy didni rivojlantirishga qaratilgan turli yondashuvlarni o‘rganishga katta e’tibor qaratishmoqda.

Rajepbayev Batir Bekimbetovichning “Darsda musiqiy-badiiy didni shakllantirishning pedagogik mezonlari” (2023) nomli maqolasida musiqa maktablarda pedagoglarning musiqiy didini shakllantirish mezonlari ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu maqolada, asosan, musiqiy didni shakllanishi tarixdan bizga qadar qay yosinda qay darajada yetib kelganligi, hozirgi kunda uning rivojlanib o‘zida mujassam etgan mezonlari haqida so‘z boradi. [1]

Dilnoza Cho‘liyevaning “Bolada musiqiy didni shakllantirish” (2020) nomli maqolasida bolani yoshlik chog‘laridanoq musiqiy bilim bilan tanishtirish va shu orqali uning estetik, badiiy didini oshirish haqida so‘z yuritiladi. Yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk bo‘lib yetishishida, musiqa, xalq o‘yinlarining o‘rni xususida fikrlar bildirilgan. Bolaning intelektual salohiyatini oshirishdagi musiqaning ahamiyati haqida bayon qilingan. [2]

Musiqa san’atida musiqiy-badiiy didni shakllantirishga doir tadqiqotlar ko‘plab ilmiy izlanishlarda o‘rganilgan. Fortepiano darslarida o‘quvchilarda musiqiy-badiiy didni shakllantirish nafaqat o‘quvchini individual rivojlanishini, balki jamiyatning innovatsion salohiyatini ham oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Adabiyotlarda ham musiqiy-badiiy didni rivojlantirishda pedagoglarning turlicha yondashuvlari, metodlari va vositalari haqida bir nechta ilmiy izlanishlar mavjud.

Zahro Muhammadjonovaning “Fortepianoda chalishni o‘rgatish uslubiyoti”da (2006) kompozitor musiqa asari ustida ishlashning 3 asosiy tamoyil orqali o‘quvchida musiqiy-badiiy didni shakllantirish texnikasini ko‘rsatib o‘tgan. Bunga ko‘ra, O‘qituvchining birinchi vazifasi o‘quvchining yaxshi hissiyotlarini “band” qilib, unda jo‘shqin ijodiy qobiliyatni yuqori darajada rivojlantirishdir. Ana shularga ko‘ra, o‘qituvchining ikkinchi vazifasi o‘quvchi shaxsining ijodiy sifatlarini shakllantirish, uning mustaqil tafakkurini faollashtirishdan iboratdir. Bunda eng avvalo cholg‘u asbobi bilan bajariladigan hamma ishlar o‘quvchining mustaqil va ijodiy intilishi ta’sirida, shuningdek, tinglab nazorat qilish orqali, iloji boricha ongli yo‘sinda amalga oshirilishiga e’tibor berish kerak. O‘qituvchining uchinchi asosiy vazifasi-o‘quvchida ijodiy g‘oyani mukammal yo‘sinda ro‘yobga chiqarish yoki fortepiano chalish texnikasini egallashga yordam beradigan vosita va usullar tizimini shakllantirishdir. [3; 31]

Shahnoza Zokirovaning “Fortepiano” (2017) o‘quv qo‘llanmasi o‘zbek fortepiano tokkatalariga bag‘ishlangan. Unda musiqaning milliy xarakteri, hayotni optimistik ruhda idrok etilishi, musiqa san’atining hayotiy kuchi yorqin ifoda etilishi orqali o‘quvchilarda musiqiy- badiiy didni shakllantirish mumkinligi ko‘rsatilgan. Taqdim etilgan uslubiy tavsiyalarga ko‘ra, tokkataning musiqiy shakli, musiqaning

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

obrazli mazmunini o‘rganishda, ijrochilik vazifalarini belgillab olishda va badiiy ifodaning ishonchli vositalarini topishda pedagog va o‘quvchi- yoshlarga yordam beradi. [4;3]

Dildora Djamalovaning “Fortepiano” (2018) darsligida O‘quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirishda zamonaviy pedagogik usullar, qarashlar, asarlarni o‘rganishning muhim jihatlari, shagirdlarga dars o‘tish jarayonida erishilgan samarali natijalar shuningdek, yillar davomida to‘plangan tajribalar o‘zining ifodasini topgan. Kompozitor asosan “oddiydan-murakkabga” tamoyili asosida dars o‘tish samarali ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. Bunga ko‘ra, turli janrdagi asarlar ustida ishlash, obrazli tasavvurga ega bo‘lish ko‘nikmasi orqali musiqiy-badiiy didni rivojlantirish metodikalari ko‘rsatib o‘tilgan. [5;3]

Xolmirza Azimovning “Fortepiano” (1998) darsligida musiqa va san’at maktablarida ta’lim olishga kirishib, musiqa olamiga dastlabki qadam qoya boshlagan o‘quvchilarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshirish, musiqiy-badiiy, estetik didini tarbiyalash va musiqa asarlarini mazmunli, ma’noli va hayajonlanib, tuyg‘ulanib ijro etishga o‘rgatish, bolaning badiiy qobiliyatini rivojlantirish asosiy vazifa qilib ko‘rsatilgan. Kompozitor kuy va pyesalar ustida ishlashni boshlagan dastlabki davrdanoq o‘quvchining sezgi a’zolarini uyg‘otish va tinglash qobiliyatini muntazam rivojlantirib borish o‘quvchida musiqiy-badiiy didni shakllantirishda yordam bo‘lishini aytib o‘tgan. [6;4]

Rustam Abdullayevning “Fortepiano uchun asarlar to‘plami”da (2008) kompozitor ijodining o‘ziga xos xususiyatlari dasturiylikka intilish, falsafiy fikrning ijodiy temperament bilan uyg‘unligi, shuningdek nozik zakovat, ehtiros ila qabul qilish uslubi, yangi ifodaviy vositalarni, o‘ziga xos mukammal fakturalarni qo‘llash orqali ijrochida musiqiy-badiiy did shakllanishini ko‘rsatib o‘tgan. [7;3]

Reves I.G. va Kapkayeva E.R. “Cholg‘u ijrochiligi. FORTEPIANO” (2013) o‘quv qo‘llanmasida o‘rganilayotgan asarning uslubiy, janr, badiiy xususiyatlarini gavdalantirish ko‘nikmalarini egallash, texnik erkinlikka erishish, sahifadan o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish, kllassik asarlarni, maktab dasturi repertuari, bolalar musiqasini ijro etishda ifodalilik, emosional yorqinlikni rivojlantirish, asarning ijro qiyinchiliklarini va ularni bartaraf qilish yo‘llarini topish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali o‘quvchida musiqiy-badiiy did shakllanishini ko‘rsatib o‘tgan. [8;5]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya, o‘quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirishga doir pedagogik yondashuvlarlarni o‘rganishga yordam beradi. Fortepiano sinfi o‘quvchilarning musiqiy-badiiy didini rivojlantirish uchun pedagogik metodlarni takomillashtirish, ta’lim muhitini o‘zgartirish va mativatsiya texnikalarini rivojlantirish zarur.

Adabiyotlar tahlilidan shuni ko‘rish mumkinki, bolalar musiqa va san’at maktablari o‘quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirish ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lsada, amaliyotda bu jarayonni samarali tashkil etish hali ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Musiqiy-badiiy did shakllansagina,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

o‘quvchining musiqiy qobiliyati ham rivojlanadi va bu kelajakda professional ijrochilar tayyorlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Fortepiano darslarida o‘quvchilarning musiqiy-badiiy didini shakllantirishga qaratilgan pedagogik usullar va yondashuvlar samarali bo‘lishi bilan birga, bir qancha muammolar ham mavjud ekanligini ko‘rish mumkin:

O‘qituvchi har doim bir xil dars usulidan foydalanishi: O‘quv dasturlari va o‘qitish metodlari musiqa va san’at maktablarida hali ham an’anaviy tarzda davom etmoqda. 45-minutli darsda o‘qituvchi faqat bitta asar ustida ishlashi, darsda turli xil metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanmasligi, o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Mativatsiyaning yo‘qligi: O‘quvchi mativatsiyani nafaqat o‘qituvchidan balki, butun darsdan olishi kerak. Hozirgi ta’lim tizimida o‘quvchining ijodiy ifodasini rag‘batlantirmaslik cholg‘u asbobiga nisbatan qiziqishning pastligiga olib keladi.

O‘qituvchining darsga tayyorgarligi: Musiqiy-badiiy didni shakllantirish uchun avvalo o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining o‘zida bilim, malaka va ko‘nikmalarning yetishmasligi o‘quvchilarning bilim saviyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Texnik jihozlar: maktablarning texnik jihozlar bilan to‘liq jihozlanmaganligi ta’lim muhitining yetishmasligi bu o‘qitish jarayonini cheklashiga sabab bo‘ladi.

Darsliklarning yetishmasligi: Fortepiano darslarida turli xil kompozitorlarning (ayniqsa o‘zbek kompozitorlari) asarlarining yetishmasligi o‘quvchilarning ijodiy salohiyati to‘liq ochilishiga to‘sinlik qiladi. 7 yil davomida o‘zbek kompozitorlarining asarlarini sanoqli ijro etishganliklari oqibatida deyarli hamma o‘quvchilarda ritm, metr.da muammolar yetarlicha mavjud. Bu esa milliy, ma’naviy, estetik ong va dunyoqarashni shakllanishida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ommaviy-madaniy tadbirlar: san’at muzeylari, konsert va teatrlarga tashrif buyurmaslik musiqiy-badiiy didning shakllanmasligiga sabab bo‘ladi. Zero, bunda o‘quvchi go‘zallik va uyg‘unlikni qadrlash, san’at asarlari orqali tasavvur qilish va tasvirlash, yangi va orgional g‘oyalar yaratish, san’at asarlarini tahlil qilish va baholash, san’at asarlari orqali his-tuyg‘ularni ifodalash va tushunish qobilayatlari shakllanadi.

Fortepiano mutaxassisligining 2-sinflar uchun tayyorlangan dasturni o‘rganganimizda o‘quvchilar ixtisoslik bo‘yicha odatda bir yilda 15-20 ta asarni ijro etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi ko‘rsatilgan. Bulardan: 2ta polifonik asar, 2ta yirik shakldagi asar, 5-8ta turli xarakterdagi pyesalar, 6-8ta etyud.

Bir yilda o‘quvchilar oraliq attestatsiya doirasida ikkita texnik sinov, akademik konsert va o‘tish imtihonini topshirishlari belgilangan.. Ushbu talablarni bajarish uchun avvalo, dars turlari va shakllarini aniqlab olish alohida e’tiborni talab etadi.

Keyingi vaqtlarda modulli ta’lim tizimida kompleks yondashuv tamoyili rivojlanib bormoqda. Bunga ko‘ra, turli shakl, usullar moslashtirilgan holda o‘rganilmoqda.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

O‘quv mashg‘ulot turlari

1. Aralash (kombinasiyalash) o‘quv mashg‘uloti
2. Yangi bilimlarni o‘zlashtirish
3. O‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash
4. Umumlashtirish va tizimlashtirish
5. Texnika vositalar asosida o‘rgatish
6. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini tekshirish
7. Yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llash.

Ushbu o‘quv mashg‘ulotlari orasida aralash o‘quv mashg‘uloti eng ko‘p qo‘llaniladi. Aralash ta’limda bir necha xil didaktik maqsad qo‘yiladi. Deklan Bern “blended learning” (aralash ta’lim) haqida shunday deydi—ushbu ta’lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan. Bunday yondashuv axbarotni taqdim etishda turli metodikalardan foydalanishni, ta’limni tashkil etishda va ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari, individual va guruhlarda an’anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv o‘quvchini charchatmaydi va o‘qishga bo‘lgan mativlarini kuchaytiradi. Asosiy masala tanlangan metodikalarning o‘zaro muttanosibligini ta’minlash va kam xarajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi. [9;24]

2-sinf o‘quvchilari uchun bir soatlik aralash dars turinining texnologik xaritasi. (1-jadvalga qaralsin).

1-jadval.

Darsning texnologik xaritasi

№	DARS BOSQICHLARI	AJRATILGAN VAQT
1	Darsga tayyorgarlik	5
2	O‘tgan mavzuni so‘rash	10
3	Yangi mavzuni tushuntirish	15
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10
5	Uyga vazifa va baholash	5

I. Darsga tayyorgarlik: Salomlashish, o‘quv qurollarini tashkil etishni tekshirish, o‘qituvchi amaliy mashg‘ulot bo‘yicha mavzu matnini, taqdimot slaydlarini tayyorlaydi, o‘quvchini o‘quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. O‘quv fanini o‘rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxatini tuzadi.

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash:

1. Gamma. Do, sol major-ikki oktavaga to‘g‘ri va tarqaluvchi harakat bilan. Lya minor (3 turi)-to‘g‘ri harakatda ikki oktavaga, alohida qo‘llar bilan ijro etish.

2.Xramatik gamma. Barcha oq klavishlardan-alohida qo‘llar bilan ikki oktavaga ijro etish. 3.Akkordlar. T53-alohida qo‘llar bilan ikki oktavaga ijro etish.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

4.Musiqiy atamalarni og‘zaki savol-javob qilish: Aplikatura nima? Shtrixlar deb nimaga aytiladi? Dinamika nima? Sur’at nima? Volta nima? Crescendo va Diminuendo qanday belgilar?

5. O‘tilgan kuyni o‘rganilgan frazagacha ijro etish. Kamchiliklarni tuzatish.

III. Yangi mavzu bayoni:

1. Proyektrda mavzu va rejalar qoyiladi. O‘qituvchi kuyning kompozitori haqidagi slaydlar orqali qisqacha ma’lumot beradi.

2. Kompozitor yaratgan asarlardan parchalar tinglatiladi.

3. Musiqiy atamalar o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi. (2-rasmga qaralsin).



2-rasm. Harakat sur’atini bildiruvchi atamalar.

4. O‘tgan darsda o‘rganilgan asarning ma’lum bir qismi o‘rganiladi. Bunda o‘qituvchi avval kuyni o‘zi ijro etib beradi, kuyni tahlil qiladi, o‘rganiladigan har bir taktni alohida solfedjio qilib kuylashadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Yangi mavzuni mustahkamlashda “Insert” metodidan foydalaniladi. Insert-samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanadi. Bunda mavzu o‘rganilgandan so‘ng ta’lim oluvchiga o‘rganilgan mavzuni mustahkamlash uchun qo‘shimcha ma’lumotlar blankasi taqdim etiladi va o‘quvchi o‘qib chiqishi uchun ma’lum bir vaqt ajratiladi. Undan so‘ng, o‘quvchiga insert jadvalini to‘ldirish vazifa qilib beriladi.

Matnni belgilash tizimi

(V)-men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+)-yangi ma’lumot

(-)-men bilgan narsaga zid

(?)- meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur. (3-jadvalga qaralsin).

3-jadval. Insert jadvali.

Tushunchalar	V	+	-	?
Kompozitorning hayoti				
Yaratgan asarlari				
Musiqiy atamalar				

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

V. Uyga vazifa va baholash: O‘quvchi baholanadi. Uyga vazifa kuyni yodlab, atamalarni o‘rganib kelish. Kompozitor yaratgan asarlarning nomlarini topib, o‘rganib kelish.

Fortepiano mutaxassisligini o‘qitish, zamonaviy innovatsiyalarni qo‘llashsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Innovasiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilikdir. A.I.Prigojin innovasiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka-yangi, nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi.

Fortepiano darslarida o‘quvchilarning musiqiy badiiy didi, musiqiy tafakkuri va idrokini yuksaltirish uchun innovasion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish samarali vositadir. Yaqin vaqtlargacha darslarda qo‘llanib kelingan audio va videotexnika vositalari faqatgina berilgan musiqiy material: turli janrlarga xos asarlarni eshittirish va ko‘rsatish imkoniga ega, xolos. Biroq, bugunki kunda ushbu vositalar iqtidorli o‘quvchilarni qoniqtirmaydi.

Ta’lim oluvchilarga musiqa ta’limi va tarbiyasini singdirish, musiqiy-badiiy didni shakllantirish umumiy pedagogikaning umumiy qonunlari asosida amalga oshiriladi.

Bugunki kun talabi darajasida yondashib, musiqa va san’at maktabining fortepiano darslarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilar bilan ishlash faoliyatini olib ko‘radigan bo‘lsak, fan doirasida berilgan fortepiano asarining nota matnini tahliliy o‘rganish, nota nomlari bilan aniq intonatsiyada kuylash, asarda uchraydigan turli intervallar, dinamika va ijro sur’atini aniq tasavvur etgan holda kuylash, shuningdek, notalarni solfedjio qilib kuylash talab etiladi.

Bundan tashqari, murakkab taktlarni alohida mashq qilish, har bitta frazani alohida tinglab o‘z xulosasini chiqarish vazifasi qo‘yiladi. Bu ko‘p qirrali badiiy musiqiy faoliyatni yuqori saviyada bajarish uchun nota ijrosini kuzatish, tinglash va ko‘rish, ya’ni audiovizual idrok etish maqsadga muvofiq.

Ushbu yuqori saviyadagi bilimlarni amalga oshirishda zamonaviy kompyuter dasturlari qo‘l keladi. Hozirgi kunda dunyo musiqa amaliyotida keng tarqalgan va qo‘llanilayotgan “Final” hamda “Sibelius” nota matn muharriri dasturlarining turli xil versiyalarini misol qilib keltirish mumkin.

Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatdiki, fortepiano darslarida o‘quvchining musiqiy-badiiy didini shakllantirishda ta’lim metodlari, o‘qituvchining pedagogik tayyorgarligi, ommaviy-madaniy tadbirlar, ta’lim muhiti, mativatsiya mexanizmlari va o‘qituvchining zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan darsda samarali foydalanishi, o‘quvchida musiqiy-badiiy didni shakllanishi, axloqiy-estetik, ma’naviy rivojlanishi qolaversa, professional ijrochi bo‘lib yetishishida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zahro Muhammadjonova. “Fortepianoda chalishni o‘rgatish uslubiyoti”. Toshkent-Yangi nashr: 2006-yil. 31 b.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

2. Shahnoza Zokirova “Fortepiano” o‘quv qo‘llanma. Toshkent-Yangi nashr. 2017-yil.

3. Dildora Djamalova. “Fortepiano”. Toshkent-musiqa nashriyoti: 2018-yil. 144b

4. Xolmirza Azimov. “Fortepiano darsligi”. Toshkent-o‘qituvchi nashr: 1998-yil.

5. Rustam Abdullayev. “Fortepiano uchun asarlar to‘plami”. Toshkent-musiqa nashriyoti: 2008-yil. 93 b

6. Reves I.G. va Kapkayeva E.R. “Cholg‘u ijrochiligi” fortepiano. Toshkent-musiqa nashriyoti:2011-yil. 213b

7. Ahmedov Ma’rufjon “Ixtisoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy metodikasi”. O‘quv uslubiy qo‘llanma. 2020-yil. 111b.

8. Baxriyev A.R. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat." Darslik. 2024-yil. 186 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Xodjiyeva Dilfuza Rustamovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri
e-mail: xodjiyevadilfuza1@gmail.com

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

TALABALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI IVOJLANTIRISHDA FANLAR INTEGRATSIYASI

Musayeva Amina Karamatovna
Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur ilmiy maqola "Talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasining roli" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, fanlar integratsiyasining ta'lim jarayoniga qo'shadigan ijobiy ta'sirlarini tahlil qiladi. Maqolada kommunikativ kompetentlik, uning talabalarda shakllanishi va fanlar integratsiyasining bu jarayondagi o'rni to'g'risida ilmiy asosda fikr yuritiladi. Tadqiqotda fanlar integratsiyasining nafaqat muloqot ko'nikmalarini, balki kreativlik, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi muhimligi ko'rsatiladi. Ushbu maqolada metodologik jihatdan literaturni tahlil qilish, eksperimentlar o'tkazish va so'rovnomalar orqali olingan natijalar taqdim etiladi. Tadqiqot natijalari, fanlar integratsiyasi o'quvchilarning kommunikativ kompetentliklarini rivojlantirishda samarali va innovatsion metod bo'lishini ko'rsatadi.

Fanlar integratsiyasining talabalarda muloqot qobiliyatlarini oshirishi, ularning fikr bildirish, guruhlarda ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga yordam beradi. Tadqiqotda talabalarga integratsiyalashgan darslar orqali kengroq bilim olish imkoniyatlari taqdim etilishi, bu esa ularning motivatsiyasini oshirishiga olib kelishi muhim ahamiyatga ega. Natijada, fanlar integratsiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi, kelajakda bu metodlarning samaradorligini oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

Maqolada o'qituvchilarga fanlar integratsiyasini muvaffaqiyatli qo'llashda yordam beradigan metodik yondoshuvlar va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot, ayniqsa, ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan o'quv dasturlarining joriy etilishi bo'yicha kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

MAQSAD: Talabalarning kommunikativ kompetentlik darajasini oshirish uchun fanlar integratsiyasining ta'sirini o'rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Bugungi ta'lim tizimida fanlar integratsiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'qituvchilar nafaqat alohida fanlarni yaxshi o'rgatish, balki

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

o‘quvchilarga umumiy mavzularni tushunishga yordam beradigan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishlari zarur. Shunday qilib, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirishga katta yordam beradi.

XULOSA: Fanlar integratsiyasi ta’lim jarayonida samarali metod bo‘lib, talabalarda yuqori kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari, fanlar integratsiyasining talabalarning muloqot qobiliyatlarini oshirish, kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, va motivatsiyani kuchaytirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan darslar talabalar uchun yanada qiziqarli va foydali bo‘lib, ularga kengroq bilim olish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Kommunikativ kompetentlik, fanlar integratsiyasi, talabalar ta’limi, muloqot qobiliyatlari, kreativlik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy ko‘nikmalar, innovatsion ta’lim metodlari, eksperimental tadqiqot, o‘qituvchining roli, integratsiyalashgan darslar, ta’lim jarayonini samaralashtirish, ta’limdagi motivatsiya, jamoada ishlash, interaktiv dars metodlari.

ИНТЕГРАЦИЯ ПРЕДМЕТОВ В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Мусаева Амина Караматовна
Преподаватель Азиатского международного университета, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Данная научная статья посвящена теме «Роль предметной интеграции в развитии коммуникативной компетентности учащихся» и анализирует положительное влияние предметной интеграции на образовательный процесс. В статье на научной основе рассматривается коммуникативная компетентность, ее формирование у студентов и роль предметной интеграции в этом процессе. В исследовании подчеркивается важность междисциплинарной интеграции для развития не только коммуникативных навыков, но и социальных навыков, таких как креативность, критическое мышление и командная работа. В статье представлены результаты, полученные в результате методологического анализа литературы, проведения экспериментов и проведения опросов. Результаты исследования показывают, что предметная интеграция является эффективным и инновационным методом развития коммуникативной компетентности учащихся.

Интеграция дисциплин помогает студентам улучшить коммуникативные навыки, выражать свое мнение, работать в группах и развивать социальную ответственность. Исследование показало, что предоставление учащимся более широких возможностей для обучения посредством интегрированных уроков имеет важное значение, поскольку повышает их мотивацию. В результате

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

использование предметной интеграции в образовательном процессе создает возможность повышения эффективности этих методов в будущем.

В статье представлены методические подходы и рекомендации, которые помогут учителям успешно реализовать предметную интеграцию. Исследование закладывает основу для будущих исследований, в частности, по внедрению интегрированных учебных программ в образовательных учреждениях.

ЦЕЛЬ: Изучить влияние интеграции предметов на повышение коммуникативной компетентности учащихся.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В современной системе образования возрастает важность интеграции предметов. Чтобы этот процесс был успешным, учителям необходимо не только хорошо преподавать отдельные предметы, но и разрабатывать методические подходы, помогающие учащимся понимать общие темы. Таким образом, интеграция дисциплин в развитие коммуникативной компетентности в значительной степени способствует формированию не только теоретических знаний, но и практических навыков.

ВЫВОД: Интеграция предметов является эффективным методом в образовательном процессе и оказывает существенное влияние на развитие высокой коммуникативной компетентности у студентов. Результаты исследования показали, что интеграция предметов играет важную роль в улучшении коммуникативных навыков учащихся, развитии навыков творческого и критического мышления, повышении мотивации. В то же время интегрированные уроки более интересны и полезны для учащихся, предоставляя им более широкие возможности обучения.

Ключевые слова: Коммуникативная компетентность, интеграция дисциплин, образование студентов, коммуникативные навыки, креативность, критическое мышление, социальные навыки, инновационные методы обучения, экспериментальные исследования, роль учителя, интегрированные уроки, оптимизация образовательного процесса, мотивация в образовании, командная работа, интерактивные методы обучения.

INTEGRATION OF SUBJECTS IN DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS

Musayeva Amina Karamatovna
Teacher of the Asian International University, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: This scientific article is devoted to the topic "The role of subject integration in the development of communicative competence in students" and analyzes the positive effects of subject integration on the educational process. The article discusses communicative competence, its formation in students and the role of subject integration in this process on a scientific basis. The study shows the importance

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

of subject integration in the development of not only communication skills, but also social skills such as creativity, critical thinking and teamwork. This article presents the results obtained through methodological analysis of the literature, conducting experiments and questionnaires. The results of the study show that subject integration is an effective and innovative method for developing students' communicative competence.

Subject integration helps to increase students' communication skills, their ability to express their opinions, work in groups and social responsibility. The study shows that students are provided with a wider range of opportunities to gain knowledge through integrated lessons, which leads to an increase in their motivation. As a result, the use of subject integration in the educational process creates an opportunity to increase the effectiveness of these methods in the future.

The article provides methodological approaches and recommendations that will help teachers successfully apply subject integration. The study creates a basis for future research, especially on the implementation of integrated curricula in educational institutions.

GOAL: To study the impact of subject integration on increasing the level of communicative competence of students.

MATERIALS AND METHODS: The importance of subject integration in today's education system is increasing. For the successful implementation of this process, teachers need to develop methodological approaches that will help students understand common topics, not only in teaching individual subjects well. Thus, in the development of communicative competence, subject integration greatly contributes to the formation of not only theoretical knowledge, but also practical skills.

CONCLUSION: Integration of subjects is an effective method in the educational process, which has a great impact on the development of high communicative competence in students. The results of the study showed that integration of subjects plays an important role in improving students' communication skills, developing creative and critical thinking skills, and increasing motivation. At the same time, integrated lessons are more interesting and useful for students, providing them with broader opportunities for gaining knowledge.

Keywords: Communicative competence, integration of subjects, student education, communication skills, creativity, critical thinking, social skills, innovative teaching methods, experimental research, the role of the teacher, integrated lessons, improving the effectiveness of the educational process, motivation in education, teamwork, interactive teaching methods.

Kommunikativ kompetentlik – bu faqat tilni bilish emas, balki aniq maqsadlar uchun muloqot qilish, tushunish, fikr bildirish va o‘z fikrini samarali tarzda yetkazish qobiliyatidir. XXI-asrda global muloqot muhitining kuchayishi, innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi va jamiyatning dinamik o‘zgarishi talabalardan yuqori

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

kommunikativ kompetentlikni talab qilmoqda. Ushbu maqolada kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasining roli tahlil qilinadi. Fanlar integratsiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradigan muhim usul sifatida qaraladi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida talabalarning nafaqat aniq fanlarni o'zlashtirishlari, balki ularning umumiy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ayniqsa kommunikativ kompetentlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Talabalarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish nafaqat o'zaro muloqot qilish ko'nikmalarini oshirish, balki bu ko'nikmalarni o'zgaruvchan, global dunyoda samarali va mustahkam ishlatish imkonini beruvchi muhim jarayon sifatida qaraladi. Hozirgi zamon talabi shundaki, talaba faqat ma'lum bir sohada bilimlarga ega bo'lishi bilan birga, turli ijtimoiy va professional vaziyatlarda samarali muloqot qilish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur.

Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda fanlar integratsiyasi samarali usul bo'lishi mumkin. Fanlar integratsiyasi, ya'ni turli fanlarning bir-biri bilan muvofiqlashtirilgan va uzviy bog'langan holda o'rganilishi, talabaning dunyoqarashini kengaytiradi, o'qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shuningdek, integratsiyalashgan yondashuv talabalarga o'qitilayotgan mavzular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashda yordam beradi, bu esa ularga mustaqil fikrlash va analitik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Bugungi ta'lim tizimida fanlar integratsiyasining ahamiyati ortib bormoqda. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'qituvchilar nafaqat alohida fanlarni yaxshi o'rgatish, balki o'quvchilarga umumiy mavzularni tushunishga yordam beradigan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishlari zarur. Shunday qilib, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirishga katta yordam beradi.

Ushbu maqolada talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasining roli, uning samaradorligini oshirishning turli yo'llari va shu jarayonni o'qituvchilar tomonidan qanday tashkil qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, fanlar integratsiyasi o'qitishning innovatsion metodlari bilan birgalikda qo'llanilganda, talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini o'sishiga sezilarli darajada hissa qo'shishi mumkin.

Talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasi mavzusi hozirgi kunda o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun juda muhim hisoblanadi. Bu mavzuning dolzarbligi bir necha asosiy omillarga bog'liq:

Fanlar integratsiyasi orqali talabalar bir nechta fanlar kesimida o'z bilimlarini kengaytiradi. Masalan, til va matematika yoki tarix va san'atni birlashtirib o'rganish orqali talaba nafaqat fanlarning asosiy mazmunini, balki ularning o'zaro aloqalarini ham tushunib yetadi. Bu jarayon talabalar uchun mavzularni bir butun sifatida ko'rish imkoniyatini yaratadi, bu esa kompleks fikrlash va keng ko'lamli yondashuvni rivojlantiradi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kommunikativ kompetentlik - bu talabaning ma’lum bir jamiyatda, turli sharoitda, aniq va samarali tarzda o‘z fikrini ifoda eta olish qobiliyatidir. Fanlar integratsiyasi, o‘z navbatida, turli tildan, uslubdan, fanlardan foydalanishni talab qiladi, bu esa talabaning muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Talabalar bir fan doirasidan chiqib, turli yo‘nalishlarni birlashtirib, o‘z fikrlarini tushunarli va izchil ifoda etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Integratsiya qilingan o‘qitish jarayonida talabalar o‘z fikrlarini turli nuqtai nazarlardan ko‘rib chiqadilar. Masalan, bir mavzu tarixiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy nuqtai nazardan o‘rganilganda, bu talabalar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Ular nafaqat o‘rganilayotgan mavzuni mustahkam bilish, balki uni boshqa fanlar bilan bog‘lash va yangi, original fikrlarni shakllantirishni o‘rganadilar.

Fanlar integratsiyasi o‘quvchilarga birgalikda ishlash va g‘oyalarni bir-biriga taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Bu talabalar o‘rtasida ijodiy hamkorlikni rivojlantiradi, ular bir-biridan o‘rganib, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bunday o‘qitish usullari talabalarning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini va rahbarlik sifatlarini ham rivojlantiradi.

Integratsiyalashgan o‘qitish metodlari talabalarga o‘rganilgan bilimlarning hayotda qanday qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Boshqa fanlar bilan bog‘langan mavzular ko‘pincha real hayotdagi muammolarni hal qilishda yordam beradi, bu esa talabalarning hayotiy ko‘nikmalarini oshiradi va ularga jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga yordam beradi.

Komunikativ kompetentlikni rivojlantirish faqat tilni bilish yoki muloqot qilish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishni emas, balki shaxsning ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ham anglatadi. Fanlar integratsiyasi orqali talabalar o‘zini o‘rganilayotgan mavzu kontekstida turli madaniyatlar, fikrlar va fikr almashish usullari bilan tanishtiradilar. Bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishga yordam beradi.

Shunday qilib, talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasining dolzarbligi shundaki, u nafaqat ularning bilimlarini kengaytiradi, balki ularni jahonni yanada to‘liqroq tushunishga va samarali muloqot qilishga tayyorlaydi. Bu, o‘z navbatida, talabalarning bilim olish jarayonini yanada samarali va mazmunli qiladi.

Fanlar integratsiyasini amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning metodik va pedagogik tayyorgarligi juda muhim. Biroq, hozirgi kunda ko‘plab o‘qituvchilar faqat o‘z sohalarida chuqur bilimga ega, ammo boshqa fanlarni birlashtirish yoki integratsiya qilishda yetarlicha tajribaga ega emas. Bunday holat, fanlar integratsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi, chunki o‘qituvchilar turli fanlarni birlashtirib o‘rganishning qanday metodologiyasi va usullarini qo‘llashni bilishlari kerak.

Fanlar integratsiyasini amalga oshirishda, o‘quv rejalari va dasturlarining moslashmasligi katta muammo bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda, ta’lim dasturlari har

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

bir fanni alohida o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘lib, ularni birlashtirish uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlar kiritilmaydi. Bu, o‘z navbatida, talabalar uchun turli fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rish va birlashtirilgan o‘quv jarayonidan samarali foydalanishni qiyinlashtiradi.

Fanlar integratsiyasiga oid darsliklar va qo‘llanmalar ko‘p hollarda yetishmaydi. Integratsiyalashgan ta’limning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun o‘quv materiallari, darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar va metodik ko‘rsatmalar bir-biriga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Ammo bugungi kunda bunday resurslar har doim ham mavjud emas, bu esa o‘qituvchilarni yangi yondashuvlarni amalga oshirishda cheklaydi.

Fanlar integratsiyasi har bir talabaga individual yondashuvni talab qiladi. Talabalar orasida turli darajadagi bilim va ko‘nikmalar mavjud, va ba’zi talabalarda bir nechta fanni birlashtirib o‘rganish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Bunday vaziyatda o‘qituvchi har bir talabaning ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim jarayonini tashkil etishning qiyinchiliklariga duch keladi.

Fanlar integratsiyasida o‘quv jarayoni ko‘proq kooperativ ishlashni, kreativ fikrlashni va turli nuqtai nazarlarni hisobga olishni talab qiladi. Bu esa talabalar uchun qiyin bo‘lishi mumkin, chunki ular ko‘pincha oddiy va alohida o‘rganiladigan mavzularda ishlashga odatlangan. Integratsiya o‘quv jarayonini murakkablashtirishi mumkin, bu esa talabalarning diqqatini jamlashini va o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi.

Fanlar integratsiyasini joriy etishda ta’lim tizimi boshqaruvining samarali monitoringi zarur. Bu jarayonning qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilganini o‘lchash, o‘qitishning natijalarini baholash va zarur bo‘lganda o‘zgarishlar kiritish uchun monitoring tizimi zarur. Ammo hozirgi kunda bunday tizimning etishmasligi integratsiyalashgan ta’limni muvaffaqiyatli rivojlantirishni qiyinlashtiradi.

Fanlar integratsiyasini amalga oshirishda ba’zi talabalarning motivatsiyasi past bo‘lishi mumkin. Ular o‘rganayotgan mavzularni birlashtirilgan holda ko‘rishni yoki turli fanlarni birgalikda o‘rganishni qiyin deb hisoblashlari mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini pasaytirishi mumkin.

Fanlar integratsiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun yuqoridagi muammolarni hal qilish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni samarali tarzda amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, o‘quv dasturlarini va materiallarini yangilash, shuningdek, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Shunda talabalar uchun fanlar integratsiyasi

Kommunikativ kompetentlikning rivojlanishi o‘quvchilarning o‘zaro muloqotda samarali ishtirok etish, fikrlarini izchil va aniq ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishni anglatadi. T. V. Popova (2017) "Komunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasining roli" nomli maqolasida, fanlar integratsiyasining kommunikativ kompetentlikni oshirishga qanday hissa qo‘shishini tahlil qiladi. U, integratsiyalashgan darslar orqali talabalar turli bilimlarni birlashtirish, ko‘proq interaktiv va ijodiy yondashuvlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’kidlaydi. Popova, shuningdek, fanlar integratsiyasining

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini va turli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni muhim deb hisoblaydi.

Fanlar integratsiyasini o‘qitishda samarali qo‘llash uchun o‘quv dasturlari va rejalari muhim ahamiyatga ega. O‘quv dasturlari fanlar integratsiyasiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Buning uchun o‘qituvchilar turli fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash, o‘quv materiallarini moslashtirish va o‘quvchilarga bu bilimlarni amaliyotda qo‘llashga imkon berishlari zarur.

Fanlar integratsiyasi o‘quvchilarni nafaqat bilimga, balki jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Bunday yondashuv jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarni tushunishga yordam beradi va talabalarni madaniyatlararo muloqotga tayyorlaydi. R. A. Karimov (2020) "Fanlar integratsiyasining jamiyatdagi ahamiyati" nomli maqolasida, integratsiyalashgan ta’limning o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida so‘z yuritadi. U, integratsiyalashgan ta’limning talabalarning dunyoqarashini kengaytirishini va ularning jamiyatdagi o‘rinlarini tushunishlariga yordam berishini ta’kidlaydi.

Talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasining samaradorligini o‘rganish uchun bir qancha eksperimentlar o‘tkazish mumkin. Quyida ba’zi mumkin bo‘lgan eksperiment turlari va ularning maqsadlari, metodlari keltirilgan:

- O‘quvchilarni ikki guruhga ajratish: birinchi guruhga an’anaviy, alohida fanlarni o‘rganish jarayonida darslar beriladi, ikkinchi guruhga esa fanlar integratsiyasini amalga oshiruvchi darslar o‘tkaziladi (masalan, tarix va adabiyot, biologiya va kimyo integratsiyasi).
- Dars davomida o‘quvchilarga turli metodlar va yondashuvlar (loyihaviy ish, muammoli o‘quv metodlari, muloqotga asoslangan topshiriqlar) taklif qilinadi.
- O‘quvchilarning muloqot qilish, fikrlarni izchil ifoda etish, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari tahlil qilinadi.
- Darsdan oldin va keyin talabalarning kommunikativ kompetentlik ko‘nikmalari (so‘zlashuv va yozish) testlar yordamida baholanadi.
- Ijtimoiy va pedagogik muhitda talabalar qanday o‘zgarishlar qilishganini kuzatib boriladi.

Fanlar integratsiyasi ta’lim jarayonida samarali metod bo‘lib, talabalarda yuqori kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari, fanlar integratsiyasining talabalarning muloqot qobiliyatlarini oshirish, kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, va motivatsiyani kuchaytirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, integratsiyalashgan darslar talabalar uchun yanada qiziqarli va foydali bo‘lib, ularga kengroq bilim olish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vahtangov, M. S. (2015). Integratsiyalashgan ta’lim: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Tashkent: O‘zbekiston Ta’lim Akademiyasi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

2. Popova, T. V. (2017). Komunikativ kompetentlikni rivojlantirishda fanlar integratsiyasining roli. Moskva: Pedagogika.

3. Xarlamov, L. P. (2019). O‘qituvchilar uchun fanlar integratsiyasining metodik asoslari. Sankt-Peterburg: Nauka.

4. Karimov, R. A. (2020). Fanlar integratsiyasining jamiyatdagi ahamiyati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Musayeva Amina Karamatovna
Osiyo Xalqaro Universiteti o‘qituvchisi
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri
E-mail: *musayevaaminakaramatovna@oxu.uz*

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

NEYROPEDAGOGIKA YORDAMIDA TANQIDIY FIKRLASH VA TAHLIL QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Sidiqova Yulduz Sobirovna
Osiyo Xalqaro universiteti o'qituvchisi, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada neyropedagogika yordamida maktab o'quvchilarida tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada tanqidiy fikrlashning ta'limdagi ahamiyati, neyropedagogikaga asoslangan usullar va strategiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda tahlil qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini qanday shakllantirish mumkinligi yoritilgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish va barkamol avlodni tarbiyalashda 2020 yil 23 sentayabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va boshqa meyoriy hujjatlar, ilmiy izlanishlar natijalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 9-moddasida tayanch o'rta ta'lim bosqichida ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini berilishi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish belgilangan bo'lib, bu jihatlarni ro'yobga chiqarishda yangi yo'nalish bo'lgan neyropedagogika yordamida maktab o'quvchilarida tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ushbu tadqiqotda bir qator ustuvor vazifalar belgilandi.

MAQSAD: Ushbu tadqiqot neyropedagogikaning asosiy printsiplariga tayangan holda, ta'lim jarayonida miyaning ishlashini optimallashtirish va o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni atroflicha o'rganadi. Neyropedagogikaning ilmiy yondoshuvlari, o'quvchilarning neyrologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan aniq usullarni tavsiya qiladi. Mazkur izlanishimizdan yakuniy maqsadimiz tadqiqot natijalari asosida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ushbu tadqiqot tomonidan qo'llanilgan metodologiya mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish va ularni tahlil qilishga asoslandi. Tadqiqot davomida neyropedagogika yordamida maktab o'quvchilarida tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy maqolalar, yakunlangan va hozirda olib borilayotgan tadqiqotlar o'rganildi. Ushbu neyropedagogika yo'nalishini o'rganishga bag'ishlangan ma'ruzalar, konferensiya materiallari, internet nashrlari va jurnallar ma'lumotlari o'rganilib, tahlil, tanqidiy fikrlash, umumlashtirish

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

kabi usullar qo‘llanildi.

XULOSA: Tahlil qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni, qarorlar qabul qilishni, ma’lumotlarni baholashni va o‘z fikrlarini mantiqiy tarzda asoslashni ta’minlaydi. Oquv jarayonida ushbu keltirilgan usullarni qo‘llash, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida neyropedagogik yondoshuvlarni amalga oshirishga imkon yaratadi va o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini mukammal rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: Neyropedagogika, kognitiv, tanqidiy fikrlash, tahlil qobiliyati, ta’lim metodikasi, o‘quvchilar, rivojlantirish, strategiyalar, o‘qitish usullari.

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И АНАЛИТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ С ПОМОЩЬЮ НЕЙРОПЕДАГОГИКИ

Сидикова Юлдуз Собировна
Преподаватель Азиатского Международного Университета, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Данная статья посвящена развитию критического мышления и аналитических способностей у школьников с помощью нейропедагогики. В статье подчеркивается важность критического мышления в образовании, способы развития у учащихся навыков аналитического и логического мышления с помощью методов и стратегий, основанных на нейропедагогике.

Принятый 23 сентября 2020 года Закон «Об образовании» и другие нормативные документы, результаты научных исследований имеют особое значение в построении нового Узбекистана и воспитании зрелого поколения. Статья 9 Закона об образовании предусматривает предоставление необходимого объема знаний, умений и навыков учащимся на этапе основного среднего образования, а также развитие у них самостоятельного мышления и аналитических способностей. В данном исследовании определен ряд приоритетных задач по развитию критического мышления и аналитических способностей школьников с помощью нейропедагогики, которая является новым направлением в реализации этих аспектов.

ЦЕЛЬ: Основываясь на основных принципах нейропедагогики, в данном исследовании подробно рассматриваются методы, направленные на оптимизацию работы мозга в ходе образовательного процесса и развитие критического мышления у студентов. Научные подходы нейропедагогики рекомендуют конкретные методы, направленные на развитие познавательных способностей учащихся с учетом неврологических и психологических особенностей учащихся. Конечной целью данного исследования является разработка рекомендаций на основе результатов исследования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Методика, использованная в данном исследовании, была основана на изучении литературы по теме и ее анализе. В

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

ходе исследования были изучены научные статьи, завершенные и текущие исследования, направленные на развитие у школьников способностей критического мышления и анализа с помощью нейропедагогики. Изучены лекции, материалы конференций, интернет-публикации и журнальные данные, посвященные изучению этого нейропедагогического направления, использованы такие методы, как анализ, критическое мышление и обобщение.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Развитие навыков аналитического и логического мышления позволяет учащимся мыслить самостоятельно, принимать решения, оценивать информацию и логически обосновывать свое мнение. Использование указанных методов в образовательном процессе позволяет реализовать нейропедагогические подходы в процессе обучения студентов и прекрасно развивает у студентов критическое мышление и аналитические способности.

Ключевые слова: нейропедагогика, когнитивное, критическое мышление, аналитические способности, методика обучения, студенты, развитие, стратегии, методы обучения.

DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING AND ANALYTICAL SKILLS WITH THE HELP OF NEUROPEDAGOGY

Sidikova Yulduz Sobirovna
Teacher at Asia International University, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: This article is devoted to the development of critical thinking and analytical skills in schoolchildren with the help of neuropedagogy. The article emphasizes the importance of critical thinking in education, ways to develop students' analytical and logical thinking skills using methods and strategies based on neuropedagogy.

The Law "On Education" adopted on September 23, 2020 and other regulatory documents, the results of scientific research are of particular importance in building a new Uzbekistan and educating a mature generation. Article 9 of the Law on Education provides for the provision of the necessary amount of knowledge, skills and abilities to students at the stage of basic secondary education, as well as the development of their independent thinking and analytical abilities. This study identifies a number of priority tasks for developing critical thinking and analytical abilities of schoolchildren using neuropedagogy, which is a new direction in the implementation of these aspects.

GOAL: Based on the basic principles of neuropedagogy, this study examines in detail the methods aimed at optimizing brain function during the educational process and developing critical thinking in students. Scientific approaches to neuropedagogy recommend specific methods aimed at developing students' cognitive abilities, taking into account the neurological and psychological characteristics of students. The ultimate goal of this study is to develop recommendations based on the research results.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

MATERIALS AND METHODS: The methodology used in this study was based on the study of literature on the topic and its analysis. The study examined scientific articles, completed and ongoing studies aimed at developing students' critical thinking and analytical abilities using neuropedagogy. Lectures, conference materials, online publications and journal data devoted to the study of this neuropedagogical direction were studied, methods such as analysis, critical thinking and generalization were used.

CONCLUSION: Development of analytical and logical thinking skills allows students to think independently, make decisions, evaluate information and logically justify their opinions. The use of these methods in the educational process allows for the implementation of neuropedagogical approaches in the process of teaching students and perfectly develops critical thinking and analytical abilities in students.

Key words: neuropedagogy, cognitive, critical thinking, analytical abilities, teaching methods, students, development, strategies, teaching methods.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish va barkamol avlodni tarbiyalashda 2020 yil 23 sentayabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun va boshqa meyoriy hujjatlar, ilmiy izlanishlar natijalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning 9-moddasida tayanch o‘rta ta’lim bosqichida ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini berilishi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish belgilangan bo‘lib, bu jihatlarni ro‘yobga chiqarishda yangi yo‘nalish bo‘lgan neyropedagogika yordamida maktab o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha ushbu tadqiqotda bir qator ustuvor vazifalar belgilandi. Xususan, neyropedagogika yordamida maktab o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatini rivojlantirishda o‘quv jarayonlari har doim o‘qitish metodlarining turli xil kreativ usullariga katta ehtiyoj sezmoqda. Shularni e’tiborga olgan holda, o‘quvchilarni neyropedagogika yordamidagi metodlar orqali tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga undash, ularning umumiy kognitiv qobiliyatlarini mustahkamlash orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatlarini rivojlantirish samarali mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu tadqiqot neyropedagogikaning asosiy printsiplariga tayangan holda, ta’lim jarayonida miyaning ishlashini optimallashtirish va o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlarni atroflicha o‘rganadi. Neyropedagogikaning ilmiy yondoshuvlari, o‘quvchilarning neyrologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan aniq usullarni tavsiya qiladi. Neyropedagogika o‘quvchilarning o‘qish va o‘rganish jarayonida miyaning ishlashini yaxshilashga yordam beradi. Bu sohada miya funksiyalarini yanada samarali foydalanishga yordam beradigan metodikalar ishlab chiqilgan. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda, ular turli muammolarni tahlil qilish va ularga mantiqiy javoblar topish ko‘nikmalarini

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

egallashlari lozim. Mazkur izlanishimizdan yakuniy maqsadimiz tadqiqot natijalari asosida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu tadqiqot tomonidan qo‘llanilgan metodologiya mavzuga oid adabiyotlarni o‘rganish va ularni tahlil qilishga asoslandi. Tadqiqot davomida neyropedagogika yordamida maktab o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy maqolalar, yakunlangan va hozirda olib borilayotgan tadqiqotlar o‘rganildi. Ushbu neyropedagogika yo‘nalishini o‘rganishga bag‘ishlangan ma’ruzalar, konferensiya materiallari, internet nashrlari va jurnallar ma’lumotlari o‘rganilib, tahlil, tanqidiy fikrlash, umumlashtirish kabi usullar qo‘llanildi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o‘quvchilarga mustaqil tahlil qilish, faktlar va fikrlarni ajratish, o‘z fikrlarini asoslash kabi ko‘nikmalarni o‘rgatish zarur. Neyropedagogika yordamida o‘quvchilarga ma’lumotni yaxshiroq qayta ishlash va natijalar chiqarish jarayonida ilmiy izlanishlarga tayanish mumkin. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun bir qancha samarali metodlar mavjud. Quyidagi keltirilgan metodlar o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi:

1. Savollar va muammolar metodi orqali fikrlashni rivojlantirish metodi o‘quvchilarga murakkab savollar yoki masalalar taqdim etish orqali ularni chuqurroq fikrlashga undash. Bu metod o‘quvchilarga o‘z fikrlarini tahlil qilish, qarorlar qabul qilish va ularni asoslash imkonini beradi. Bunda o‘quvchilarga tarixiy hodisa yoki ilmiy kashfiyot haqida savollar berish va ularning sabablarini, oqibatlarini tahlil qilishni so‘rash.

2. Diskussiya va munozara metodi orqali o‘quvchilarga turli nuqtai nazarlar bilan muammoni muhokama qilish imkonini berish. Bu metod, o‘quvchilarni bir-birining fikrini tinglash, ularni baholash va argumentlar asosida o‘z fikrlarini ifoda etishga undaydi. Jarayonda o‘quvchilarni "ha" va "yo‘q" fikrlarining har ikki tomonini qo‘llab-quvvatlashga undash, so‘ngra bu fikrlarni baholash.

3. Kritik ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi o‘yinlar metodi orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi o‘yinlar yoki faoliyatlar orqali o‘quvchilarga muammolarni hal qilishni o‘rgatish. Bu o‘yinlar o‘quvchilarda analitik fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilarga "brainstorming" (fikr to‘plash) o‘yinlari, dilemmani hal etish yoki "turing" (ro‘zg‘or, tabiiy muammolarni yechish) kabi o‘yinlarni taklif etish.

4. Boshqalar bilan o‘z fikrlarini solishtirish metodi orqali o‘quvchilarga o‘z fikrlarini boshqalar bilan solishtirish va bu fikrlarni tahlil qilish imkonini berish. Bu usul o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash va fikrni mustahkamlashda yordam beradi. O‘quvchilarga o‘z fikrlarini do‘stlari bilan baham ko‘rish va boshqa o‘quvchilarning fikrlariga asoslanib yangi xulosalar chiqarish.

5. Rol o‘ynash (role-play) metodi orqali rol o‘ynash metodida o‘quvchilar muayyan vaziyatda rol o‘ynash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

o‘quvchilarga biror muammoga turli nuqtai nazardan yondashish va qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. O‘quvchilarga ijtimoiy muammo yoki tarixiy voqea haqida ro‘yxatli rol o‘ynashni taklif qilish va turli shaxslarning nuqtai nazaridan qarorlar chiqarishni talab qilish.

6. Kognitiv xaritalar (mind maps) metodi orqali o‘quvchilarni muammolarni kognitiv xaritalar yordamida tahlil qilishga o‘rgatish. Bu metod o‘quvchilarga g‘oyalarni vizual tarzda tashkil qilish va bog‘lashni o‘rgatadi. O‘quvchilarni mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalar va ularning bog‘lanishini xarita shaklida ifodalashga undash.

7. Yuzaga kelgan g‘oyalarning mantiqiy tahlili metodi orqali o‘quvchilarga turli g‘oya va fikrlarni o‘zaro solishtirish va ular orasidagi mantiqiy bog‘lanishni izlash. Bu metod o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, dalillarni taqqoslashga va yondashuvlarni baholashga o‘rgatadi. O‘quvchilarga biror ilmiy yoki ijtimoiy muammoni taqdim etib, bu muammo bo‘yicha turli yondoshuvlar va g‘oyalar haqida tahlil qilishni so‘rash.

8. Refleksiya va xulosa chiqarish metodi orqali o‘quvchilarga o‘z fikrlarini, o‘rganilgan materialni va tajribalarini tahlil qilishni o‘rgatish. O‘quvchilar bu jarayon orqali o‘zlarining o‘rganish jarayonlarini va yondoshuvlarini qayta ko‘rib chiqadilar. Darsdan so‘ng o‘quvchilarga o‘rganilgan ma’lumotni qayta ko‘rib chiqish va o‘z fikrlarini yozib olish, xulosa chiqarish va kelgusi o‘qishlari uchun yo‘nalishlar belgilash.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari o‘quvchilarda mantiqiy va analitik fikrlashni shakllantiradi, ularni mustaqil qarorlar qabul qilishga undaydi va muammolarni turli nuqtai nazarlardan ko‘rib chiqishlariga yordam beradi. Bu metodlar o‘quvchilarga nafaqat akademik muvaffaqiyatlar, balki hayotda muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilishga ham yordam beradi.

Tahlil qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish o‘quvchilarga murakkab masalalarni qadam-baqadam ko‘rib chiqish va ularga javob topishda tizimli yondoshuvni rivojlantirishga yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarga turli xil vaziyatlar va masalalarni misol sifatida taqdim etish, ulardan javoblarni izlash va natijalarini taqqoslash kerak. Tahlil qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish – bu o‘quvchilarda bilimlarni chuqur o‘rganish, muammolarni tahlil qilish va ularga mantiqiy, izchil javoblar topish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan jarayon. Ushbu qobiliyatlar nafaqat akademik muvaffaqiyatni ta’minlash, balki kundalik hayotda muammolarni hal qilishda ham juda muhimdir.

Quyida tahlil qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan usullardan namunalar keltirilgan:

1. Keng qamrovli savollar berish metodi orqali tahlil qilish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda o‘quvchilarga keng qamrovli savollar berish samarali usul hisoblanadi. Bunday savollar o‘quvchilardan masalani bir necha nuqtai nazardan ko‘rib chiqishni talab qiladi va ularni analitik yondashishga undaydi. "Nima uchun bu voqea sodir bo‘ldi?", "Bu hodisaning sabab va oqibatlarini qanday tahlil qilasiz?" yoki "Bu muammoni qanday hal qilish mumkin?" kabi savollarni qo‘llash.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

2. Muammo yechish usullari metodi orqali muammoni tahlil qilish va yechish uchun tizimli yondashuvni rivojlantirish. O‘quvchilarga har xil usullarni qo‘llash, qarorlar qabul qilish va natijalari asosida xulosa chiqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish zarur. O‘quvchilarga murakkab masalalar yoki vaziyatlarni taqdim etish, bu masalalarni qadam-baqadam tahlil qilish va turli xil yechimlarni taqdim etishga undash.

3. Kritik fikrlashni rag‘batlantirish metodi orqali o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda, mavjud g‘oyalarni sinchiklab tahlil qilish, dalillarni baholash va qarorlarni asoslash ko‘nikmalarini shakllantirish juda muhim. O‘quvchilarga biror tezis yoki fikrni tahlil qilib, uning asoslarini, dalillarini, mantiqiy xatolarini aniqlashni so‘rash. Bu ularni g‘oyalarni o‘ylab ko‘rishga undaydi.

4. Tahliliy yozish mashqlari metodi orqali yozish, fikrlarni tizimli ravishda ifoda etishga yordam beradi. O‘quvchilarga o‘quv matnlarini tahlil qilib, xulosa chiqarish va asoslashga yo‘naltirilgan yozma mashqlar berish mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchilarga biror mavzuda tahliliy esse yozishni so‘rash, shu orqali ularni dalillarni topish, ular orasidagi aloqalarni ko‘rish va xulosa chiqarishga o‘rgatish.

5. "Fikrlar daraxti" usuli (Mind Mapping) metodi orqali o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalar va ularning bog‘lanishini xarita shaklida ifodalashni o‘rgatish. Bu usul ularning fikrlarini tizimli tarzda tashkil etishga va turli g‘oyalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni ko‘rishga yordam beradi. O‘quvchilarga biror fan bo‘yicha asosiy mavzularni ko‘rsatuvchi "fikrlar daraxti"ni tuzishni topshirish.

6. G‘oyalarni taqqoslash va kontrastlash metodi orqali o‘quvchilarga turli g‘oya, nuqtai nazar yoki tushunchalarni taqqoslash va kontrastlash orqali, ularning o‘rtasidagi farqlarni va o‘xshashliklarni aniqlashni o‘rgatish. O‘quvchilarga ikki xil tarixiy hodisani taqqoslab, ularning sabablari, oqibatlari va ijtimoiy ta’sirini tahlil qilishni topshirish.

7. Kognitiv sinovlar va dilemmalar metodi orqali o‘quvchilarga mantiqiy dilemmalar yoki kognitiv sinovlarni taklif qilish, ularni turli alternativalar orasida tanlov qilishga va tanqidiy qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. "Agar siz biror muammoni hal qilmoqchi bo‘lsangiz, qanday usulni tanlaysiz va nega?" kabi dilemmalar orqali mantiqiy tahlil qilish.

8. Mantiqiy xatolarni aniqlash metodi orqali o‘quvchilarga mantiqiy xatolarni aniqlashni o‘rgatish, ya’ni xatoliklar, noto‘g‘ri taxminlar yoki isbotlanmagan fikrlarni topishga yo‘naltirish. O‘quvchilarga matn yoki fikrni berib, undagi mantiqiy xatolarni tahlil qilish va ularni tuzatishni so‘rash.

9. Tajriba va eksperimentlar metodi orqali o‘quvchilarga ilmiy tajribalar yoki eksperimentlar o‘tkazish orqali tahlil qilish va natijalardan mantiqiy xulosalar chiqarishni o‘rgatish. Bu metod orqali o‘quvchilar eksperimentlarni diqqat bilan kuzatib, mantiqiy natijalar chiqarishadi. O‘quvchilarga ilmiy tajriba o‘tkazishni yoki matematika bo‘yicha masalalar yechishni topshirish va natijalarni tahlil qilish.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

10. Jurnal tutish va fikrlarni tahlil qilish metodi orqali o‘quvchilarni muntazam ravishda o‘z fikrlarini yozib borishga undash, shu orqali o‘z fikrlarini tahlil qilish va yangi fikrlarni yaratishga imkon yaratadi. O‘quvchilarga har bir darsdan so‘ng o‘z fikrlarini yozib borishni va tahlil qilishni, qanday yangi g‘oyalar yoki tushunchalar paydo bo‘lgani haqida yozishni so‘rash.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tahlil qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni, qarorlar qabul qilishni, ma’lumotlarni baholashni va o‘z fikrlarini mantiqiy tarzda asoslashni ta’minlaydi. Bu qobiliyatlar nafaqat ta’limda, balki kundalik hayotda muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilishda ham juda muhim. O‘quvchilarni yuqoridagi metodlar orqali tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga undash, ularning umumiy kognitiv qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Neyropedagogika asosidagi metodlar orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahlil qobiliyatlarini rivojlantirish o‘zining samarali natijalarini beradi. O‘quvchilar, ular bilan ishlashda neyrologik jihatlarni hisobga olgan holda, o‘zlarining aqliy va kognitiv qobiliyatlarini kuchaytiradilar. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirib, ularni turli sohalarda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi. Oquv jarayonida ushbu keltirilgan usullarni qo‘llash, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida neyropedagogik yondoshuvlarni amalga oshirishga imkon yaratadi va o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini mukammal rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. (Luther M. Brain and Language Development Studies. – Cambridge University Press, 2019. – P.158)

2. (Carroll J. Neuroeducation and Language Acquisition. – Oxford University Press, 2020. – P.96).

3. University of California, NeuroEducation Research Group, 2022.

4.Sobirovna, S. Y. (2024).Bolalarni nutqini rivojlantirishning neyropedagogik xususiyatlari. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 253-258.

5. Sobirovna, S. Y. (2024). Bolalar rivojlanish nazariyasida Piajening kognitiv rivojlanish modeli. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 193-198.

6. Sobirovna, S. Y. (2024). Bolalar rivojlanish bosqichlari va ularning psixologik xususiyatlari. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 259-264.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Sidiqova Yulduz Sobirovna
Osiyo Xalqaro Universiteti o‘qituvchisi
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARNING METODIK TAYYORGARLIGINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi
Osiyo xalqaro universiteti doktaranti, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni, ta’lim jarayonida ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari hamda bu jarayonni tashkil etishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilinadi. Hozirgi kunda ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, kimyo fanidan dars beradigan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda metodik tayyorgarlik darajasini oshirish ta’lim sifatini yaxshilashning asosiy shartlaridan biridir. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularda fanlararo integratsiyani amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

MAQSAD: Mazkur maqolaning maqsadi kimyo fanini o‘qitishda metodik yondashuvlarni takomillashtirish orqali ularning bilim, ko‘nikma va pedagogik malakalarinioshirish.Amaliy va nazariy bilimlarni uyg‘unlashtirish.O‘qituvchilarni laboratoriya tajribalari, nazariy bilimlar va ularni amaliyotda qo‘llashning samarali usullari bilan tanishtirish.

MATERIALLAR VA METODLAR. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish uchun ilmiy-texnik vositalar va texnologiyalarni qo‘llash, shuningdek, o‘quv-metodik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada yuqorida keltirilgan manbalarda batafsil tavsiyalar mavjud.

XULOSA. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish ularning nazariy va amaliy bilimlarini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. Buning uchun pedagoglar nafaqat zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishlari, balki ularni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli joriy etish bo‘yicha yuqori malakaga ega bo‘lishlari lozim. Shu sababli, pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish jarayoni tizimli va uzluksiz bo‘lishi zarur.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kalit so‘zlar. Kimyo, interfaol metodlar, didaktik tayyorgarlik, munozara, rolli o‘yinlar, virtual laboratoriya, pedagogik texnologiya, ilmiy- texnik vosita, interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Болтаева Шахрибону Ахмадовна
Докторант Азиатского международного университета, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируется роль педагогических технологий в совершенствовании методической подготовки будущих учителей химии, возможности их эффективного использования в учебном процессе, а также инновационные подходы к организации этого процесса. В настоящее время происходит внедрение инновационных подходов и современных педагогических технологий. в сфере образования приобретает все большее значение в повышении эффективности образовательного процесса. В частности, повышение уровня методической подготовки при подготовке будущих учителей химии является одним из главных условий повышения качества образования. Формирование профессиональных компетенций будущих учителей химии и развитие их способности осуществлять межпредметную интеграцию является одной из актуальных задач современного образования.

ЦЕЛ: Данной статьи – повысить их знания, умения и педагогическое мастерство путем совершенствования методических подходов в преподавании химии. Познакомить учителей с лабораторными экспериментами, теоретическими знаниями и эффективными способами их применения на практике.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Для развития методической компетентности будущих учителей химии важно использовать научно-технические средства и технологии, а также совершенствовать систему учебно-методического обеспечения. На этот счет в цитированных выше источниках есть подробные рекомендации.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Совершенствование методической подготовки будущих учителей химии на основе педагогических технологий служит повышению их теоретических и практических знаний, а также усилению участия учащихся в образовательном процессе. Для этого педагоги должны не только уметь использовать современные технологии, но и обладать высокими навыками их успешного внедрения в образовательный процесс. Поэтому процесс освоения педагогических технологий должен быть систематическим и непрерывным.

Ключевые слова. Химия, интерактивные методы, дидактическая подготовка, дискуссия, ролевые игры, виртуальная лаборатория, педагогические

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

технологии, научно-технические средства, интерактивные методы, практические занятия.

IMPROVING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi
Doctoral student at the Asian International University,
Bukhara city

Annotation.

INTRADUCTION: The role of pedagogical technologies in improving the preparation of students, the possibilities of their effective use in the educational process, and innovative approaches to the organization of this process are analyzed. Nowadays, the introduction of innovative approaches and modern pedagogical technologies in the field of education is of great importance in increasing the effectiveness of the educational process. In particular, increasing the level of methodical training in the training of future teachers teaching chemistry is one of the main conditions for improving the quality of education. Formation of professional competences of future chemistry teachers and development of their ability to implement interdisciplinary integration is one of the urgent issues of modern education.

GOAL: The purpose of this article is to increase their knowledge, skills and pedagogical skills by improving the methodological approaches in teaching chemistry. To harmonize practical and theoretical knowledge. To introduce teachers to laboratory experiments, theoretical knowledge and effective ways of applying them in practice. .

MATERIALS AND METHODS: To develop the methodological competence of future chemistry teachers, it is important to use scientific and technical tools and technologies, as well as to improve the educational and methodological support system. In this regard, there are detailed recommendations in the sources cited above.

CONCLUSION: Improving the methodical training of future chemistry teachers on the basis of pedagogical technologies serves to increase their theoretical and practical knowledge, as well as to strengthen the participation of students in the educational process. For this, pedagogues should not only be able to use modern technologies, but also have high skills in their successful implementation in the educational process. Therefore, the process of mastering pedagogical technologies should be systematic and continuous.

Keys words: Chemistry, interactive methods, didactic preparation, discussion, role-playing games, virtual laboratory, pedagogical technology, scientific and technical tools, interactive methods, practical training,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Ayni vaqtda zamonaviy ta’lim tendensiyalariga muvofiq kompetensiyaviy yondashuv asosida kimyo o‘qituvchilarining jahon standartlari darajasida o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlashga qodir, ijtimoiy va kasbiy mobil, mehnat bozorida raqobatbardosh, kompetentli kadr sifatida kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kimyo o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini aniqlashda sohaga oid eng murakkab tushunchalarning mazmunini tushuntirish, muammoli vaziyatlarni tizimli ravishda yaratish, talabalarga dalillarni yetkazish va ularning o‘quv-biluv faoliyatini shu tarzda tashkil etishdan iborat.

Zamonaviy kimyo o‘qituvchisi quyidagilarni:

a) kimyo o‘qitish jarayonida o‘qitishning ta’lim va tarbiyaviy hamda o‘quvchilar ongini rivojlantirish maqsadini;

b) maktab yoki akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarining o‘quv dasturlari, darsliklari, o‘quv-metodik qo‘llanmalarini;

c) kimyo o‘qitish metodikasining nazariy asoslari, jumladan, kimyo o‘qitish metodlarini, o‘qitish natijalarini nazorat qilishni, kimyo xonasining o‘quv jihozlarini, laboratoriyada ishlash vaqtidagi xavfsizlik texnikasini, kimyoviy reaktivlarning xossalari va ularni saqlash qoidalarini, o‘qitishning texnik vositalarini va ularni ishlatish yo‘llarini;

d) o‘qituvchi psixologik xususiyatlari turlicha bo‘lgan bolalar bilan ish olib boradi, ularga ta’lim va tarbiya beradi. Shuning uchun pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini bilishi;

e) o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri ularda kimyoviy masalalar yechish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.[3]

Bugungi kundagi zamonaviy kimyo o‘qituvchisi ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalana oladigan, bir vaqtning o‘zida amaliy va laboratoriya darslarini bevosita pedagogik mahorat bilan olib borishi, laboratoriya darslarini amalda qo‘llash bilan bir vaqtda, vertual ravishda tushuntiradigan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasida rivojlantiruvchi sog'lomlashtiruvchi muhitni yaratishning asosiy shartlarini ajratib ko‘raylik. Shartlarga quyidagilar kiradi: bolalar va tarbiyachilar o‘rtasidagi shaxsiy muloqot modeliga yo‘naltirilganlik, bunda tarbiyachi bolalar bilan "birgalikda" bo‘lishga, "yonma-yon" emas, yo‘naltiriladi. Tarbiyachining maqsadi — bolalardan shaxslarni shakllantirishdir. Ushbu maqsad quyidagi pedagogik vazifalarni hal qilishni nazarda tutadi: bolalarda psixologik himoya hissini ta'minlash; bolalarni atrof-muhitga ishonch hissi bilan ta'minlash, o‘z salomatligiga ijobiy munosabatni shakllantirish; bolalarning madaniyatli shaxsini shakllantirish, bolalarning individual xususiyatlarini rivojlantirish.

Sog'lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirish va salomatlikka bo‘lgan munosabatni ta'minlovchi rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

• individualizatsiya tamoyili. Ushbu tamoyil orqali tarbiyachilar bolalarning individual va yosh xususiyatlarini, ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, sog'lom turmush tarziga oid tushunchalari va salomatlikka bo‘lgan munosabatlarini shakllantirish darajasini aniqlovchi diagnostika natijalarini hisobga olishlari kerak;

• universalizm tamoyili. Ushbu tamoyil zarur rivojlantiruvchi sog'lomlashtiruvchi shart-sharoitlarni predmetli jihozlashni nazarda tutadi, bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyat yo‘nalishiga mos ravishda optimal ravishda to‘ldirilgan ko‘p funksiyali va butun bir makon yaratadi.

Ochiqlik prinsipi. Ushbu prinsip bolalarning o‘yin, ta'lim faoliyatini tanlash, o‘z g'oyalarini amalga oshirish uchun vositalarni tanlash huquqini amalga oshirishni nazarda tutadi;

• Sub'ekt-sub'ekt o‘zaro ta'siri prinsipi. Ushbu prinsip bolalar, ota-onalar va tarbiyachilar o‘rtasidagi shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro ta'sir modelini belgilaydi. Bolalar o‘z fikrlarini ifoda etishlari va o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqiga ega, tarbiyachilar esa bu fikrlarni hisobga olib, bolalarga belgilangan maqsad va vazifalarga erishishda yordam beradilar.

Ikkinchi pedagogik shart "bolalarning yoshi xususiyatlarini hisobga olib, jismoniy tarbiyani sog'lomlashtiruvchi mazmun bilan to‘ldirish" bo‘lib, bu sog'lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan. Bunda bolalar sog'liq asoslari, sog'lom turmush tarzi, uni mustahkamlash va saqlash omillari bilan tanishtiriladi. Bolalar sog'lom turmush tarzini o‘zlari saqlay olishlarini anglab etishlari va jismoniy tarbiyatda ularga yordam berishlari uchun ijtimoiy, psixologik, jismoniy va ruhiy salomatlikni ta'minlashda tarbiyachilarning roli muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarziga oid zarur tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirishda tarbiyachilar tomonidan yosh guruhlarining xususiyatlariga mos ravishda tanlangan metodika yordam beradi. Bu jarayon ma'lumotning bosqichma-bosqich murakkablashishi bilan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Doshkoldagi bolalar uchun sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarning mazmuni sog'liq asoslari va uning saqlanish omillari haqidagi bilimlar, koʻnikmalar va malakalarni birlashtirishni ta'minlaydi hamda ushbu koʻnikmalarni, malakalarni va bilimlarni amaliy hayotda qoʻllashga yordam beradi. Bolalarning bilimlari faqat ularning tanqidiy faoliyati orqali saqlanib qolishi va oʻzlashtirilishi mumkin. Sog'lom turmush tarziga oid tushunchalarni shakllantirish va sog'liqka boʻlgan munosabat sifatini belgilovchi omil - bu ularning ichiga kirgan faoliyatning xarakteri va mazmunidir.

Uchinchi pedagogik shart - «kichik yoshdagi bolalarni umumiy sog'lomlashtiruvchi faoliyatga jalb qilishni rag'batlantirishdir». Falsafiy lug'atda «vaziyat» «ob'ektlar oʻrtasidagi alohida munosabatlarni aks ettiruvchi falsafiy kategoriya boʻlib, har bir ob'ekt boshqa ob'ektlarga ta'sir koʻrsatib, natijada ularning holati oʻzgarishini anglatadi» deb ta'riflanadi. Psixologik lug'atda esa «vaziyat» «ob'ektlarning (sub'ektlarning) bir-biriga bevosita yoki dolzarb ta'siri jarayoni boʻlib, bu ularning oʻzaro bog'liqligini va aloqasini keltirib chiqaradi» deb tushuntiriladi. Psixologik nuqtai nazardan har qanday pedagogik tizim oʻz ichiga olgan insonlar: tarbiyachilar va bolalar, oʻqituvchilar va oʻquvchilar, professorlar va talabalar oʻrtasidagi munosabatlar shakli sifatida koʻrilishi mumkin. X. Liymetsning fikricha, «tarbiyalash jarayonini uning ishtirokchilari oʻrtasidagi vaziyat sifatida tavsiflash mumkin. Nafaqat tarbiyachi bolalarga ta'sir koʻrsatadi, balki bolalar ham tarbiyachiga ta'sir qiladi».

Pedagogik nuqtai nazardan «vaziyat» oʻqitish jarayonida ishtirokchilarning bir-biriga ta'siri sifatida tushuniladi va bu ularning shaxsiy rivojlanishi va oʻzgarishlarini amalga oshirish jarayonini tashkil etadi [1]. Olimlarning fikricha, optimal vaziyat shakli ta'lim hamkorligidir. Aynan hamkorlikda yuzaga keladigan munosabatlar shaxsning faoliyat subyekti sifatida rivojlanishini va uning faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirishga eng samarali hissa qoʻshadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik vaziyat bolalar jamoasini tashkil etishda namoyon boʻladi, bu erda oʻzaro tarbiya va oʻzaro oʻqitish printsipi amalga oshiriladi. Bunday vaziyat bolalarda sport haqidagi tasavvurlarni shakllantirish samaradorligini oshirishda omil boʻladi, chunki vaziyat oʻyin va boshqa faoliyat turlarida amalga oshiriladi. Shaxslararo vaziyat bolalarning rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Olimlar kichik yoshdagi bolalar oʻrtasidagi vaziyatning ahamiyatini ta'kidlaydilar, bu esa oʻzaro oʻqitish va oʻzaro tarbiyani amalga oshirish imkonini beradi.

E.M.Rojkova ta'kidlaydiki, bolalarning oʻzaro oʻqitilishi pedagogning bolalarga toʻg'ridan-toʻg'ri ta'siridan koʻra yaxshiroq natijalar berishi mumkin. Oʻzaro oʻqitish va oʻzaro tarbiya jamoada turli faoliyat turlari (oʻquv-oʻyin vaziyatlari, syujet-rol oʻyinlari, madaniy-sog'lomlashtirish yoʻnalishidagi oʻyin mashqlari, jismoniy tarbiya daqiqalari, mavzuli bayramlar, musiqa oʻyinlari) orqali namoyon boʻlishi va bolaga oʻzini amalga oshirish uchun koʻproq imkoniyatlar taqdim etishi mumkin.

Sub'ekt-sub'ekt va sub'ekt-ob'ekt munosabatlarining xarakteriga koʻra, toʻrtta asosiy oʻzaro ta'sir turini ajratish mumkin, ular oʻz tuzilishi bilan farqlanadi:

1) kesishgan, 2) hamkorlik, 3) mono markazli, 4) integratsiyalangan.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Birinchi usulda individual o‘zaro ta'sir faoliyatida o‘qitish e'tibordan chetda qolmaydi va sub'ekt-sub'ekt va sub'ekt-ob'ekt munosabatlarida birgalikdagi faoliyatga ko‘chirilmaydi. Har bir ishtirokchi sub'ekt-sub'ekt va sub'ekt-ob'ekt munosabatlarida boshqasiga ob'ekt sifatida qaraydi, shu bilan birga, o‘z navbatida hamkor o‘zaro ta'sir ob'ekti hisoblanadi. Sub'ekt-sub'ekt va sub'ekt-ob'ekt munosabatlarida umumiy faoliyat maqsadi yo‘q va umumiy ma'nodagi fon kuzatilmaydi.

Ikkinchi usul o‘zaro ta'sirni predmetli faoliyatni birgalikda taqsimlash bilan xarakterlanadi. Olim D.A. Leontev yozadiki, faoliyatga kiritilgan sub'ekt-sub'ekt munosabatlari va harakatlar, shaxslarning xulq-atvorini muvofiqlashtirish shaklidir, bu esa faoliyat oxirida hamkorlarning individual harakatlarini birlashtirishni ta'minlaydi. Bunday o‘zaro ta'sirda individual harakatlarning integratsiyasi va muvofiqlashtirilishi hamkorlik faoliyatining tarkibiy qismlari sifatida kuchli ajralib turadi, bu esa ishtirokchilarning umumiy maqsadini amalga oshirish uchun shartdir.

Uchinchi usul mono markazli o‘zaro ta'sirdir. Bunday birgalikdagi faoliyatda bir hamkor ob'ekt sifatida ishtirok etadi. Sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining mavjudligi birgalikdagi faoliyatni taqsimlashni ifodalaydi va buni shunday xarakterlaydi: hamkor o‘zaro ta'sirda ob'ektiv ishtirokchi bo‘ladi va birgalikdagi faoliyat ob'ekti sifatida qatnashadi, lekin shaxslararo o‘zaro ta'sir shartida hamkor sub'ekt sifatida ishtirok etadi. Bunday birgalikdagi faoliyatni diagrammada quyidagicha tasvirlash mumkin. O‘zaro ta'sir markazida bir hamkor joylashgan. Barcha boshqa ishtirokchilar ushbu hamkorning maqsadini amalga oshirish uchun harakat qilishadi. Ya'ni, D.P. Leontevga ko‘ra: «biz men uchun» yoki «biz sen uchun».

To‘rtinchi usul integratsiyalangan o‘zaro ta'sirdir. Bunday birgalikdagi faoliyatni diagrammada «biz biz uchun» shaklida tasvirlash mumkin. Bunday o‘zaro ta'sirda hamkorlarning faoliyatini birgalikda taqsimlash sodir bo‘ladi, bu esa har ikkalasi uchun teng darajada amalga oshiriladi. Bunday holatda, ikki hamkor o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘zini amalga oshirish uchun teng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Bunday o‘zaro ta'sir ishtirokchilarining tuzilishi birgalikdagi faoliyatning mazmuni, xarakteri va har bir hamkorning motivi kuchiga qarab o‘zgarishi mumkin.

Shunday qilib, bolalarda sport haqidagi tasavvurlarni shakllantirish samarasi, ilgari aytib o‘tilganidek, shaxslararo o‘zaro ta'sir jarayonida haqiqiy rol pozitsiyasini egallash orqali ta'minlanadi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni umumiy sog'lomlashtiruvchi faoliyatga jalb qilishni rag'batlantirish bolalarda sport haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida» gi Qonuni (yangi tahrirda) 2015.
2. Atoyev A.Q. Farzandingiz barkamol bo‘lsin T., «Ibn Sino», 1990.
3. Dubrovskiy V.I. Psixologiya lichnosti. - M: Izdatelskiy sentr «Vlados», 2002 - 512 s.
4. Ilin Ye.P. Motiv i motivatsiya. - M., 2000. - 512 s.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

5. Jalolova G.Q. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash” (metodik tavsiya). Toshkent, 2004.

6. Kakovkin A.V. Sudeystvo sorevnovaniy po futbolu: Metodicheskie dlya studentov otdeleniya FFK VGPU - Vologda, izd-vo «Rus» 2003.-48 s.

7.Qurbonov Sh., Qurbonov A. Jismoniy mashqlarning fiziologik asoslari. T., “OAJBNT” markazi. 2003.

8. Kovalev A.G. Psixologiya lichnosti: 3-e izd.,pererabot. i dop.- M., 1997. - 391 s.

9. Kovalev A.G., Myasishev V.N. Psixologicheskiye osobennosti cheloveka, T. 1. L.,1996-1997.-264s.

10. Usmonxo‘jayev T.S., Islomova S.T. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya” T.: “Ilm Ziyo” nash. 2006.

12. Kuramshin Yu.F. TMF: Uchebnik/pod red. prof. Yu.F. Kuramshina-2-e izd. ispr-M.: Sovetskiy sport,2004-464s.

13. Lalakov G.E. Struktura i soderjanie trenirovochnix nagruzok futbolistov raznix vozrastov i kvalifikatsiy Omsk,2000. - 198s.

14. Leytes N.S. Vozrastniye osobennosti razvitiya sklonnostey: Problemi общеy, vozrastnoy i pedagogicheskoy psixologii. - M., 2000. - 201 s.

15. Usmonxo‘jayev S., Aliyev M.B., Sagdiyev H.H., Turdiyev F.K., Akramov J.A. Bolalar va o‘smirlar sporti mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyati. T., «ILM ZIYO». 2006.

17. Sharipova D.J., Semenova L.M. Kichkintoylarni gigiyenik tarbiyalash. T., “O‘qituvchi”, 1997.

18. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya. T., O‘zbekiston. 1998.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
19.00.00 – ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
19.00.00 – PSYCHOLOGICAL SCIENCES

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

AVTORITAR USLUBNING O‘QUVCHILAR O‘QUV MOTIVASIYASIGA TA’SIRI XUSUSIYATLARI

Turayeva Dilafruz Rustamboyevna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dosenti, Toshkent shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada o‘tkazilgan tadqiqotda o‘qituvchilarning boshqaruv uslubi, ayniqsa, autoritar uslubining ta’siri o‘rganilganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqotda o‘qituvchilarni boshqarish uslubi “O‘z-o‘zini boshqarish uslubini aniqlash” metodikasi asosida o‘rganilib, o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan baholashlar ko‘rsatilgan. Natijalarga ko‘ra, autoritar boshqaruv uslubi bo‘yicha o‘qituvchilar o‘z-o‘zini baholashda o‘rta darajani ko‘rsatgan bo‘lsa, o‘quvchilar tomonidan baholash esa past darajada bo‘lgan. Bu o‘qituvchilarni talabchan, lekin o‘quvchilarga nisbatan e’tiborsiz va qat’iy deb tavsiflashga imkon beradi. Tadqiqot davomida, autoritar uslubning o‘quvchilarni qanday ta’sir qilishini ko‘rsatish uchun mulohazalar o‘rganildi. Bu uslubda o‘quvchilar o‘zlarini salbiy baholashlari, maktab va o‘qituvchilarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishlari mumkin. Bundan tashqari, autoritar boshqaruv uslubi o‘quvchilarni ichki motivatsiyasi susaytirib, ijodiy faoliyatni cheklashi mumkinligi ta’kidlangan.

MAQSAD: Avtoritar uslubning o‘quvchilar o‘quv motivasiyasiga ta’siri xususiyatlari o‘rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Mashhur bolalar psixologi A.I. Zaxarovning ta’kidlashicha, bolalarni tahdid qilish, qoralash va jazolash orqali "rag‘batlantirish" ning kuchayishi bevosita ruhiy salomatlik muammolariga va nevrozlarning rivojlanishiga olib keladigan omil hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 4-moddasida Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplaridan biri ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati etib belgilanishaga qaramay, ba’zida avtoritar pedagogik faoliyat kuzatilmoqda. Hozirgi davrda maktabdagi vaziyat ancha murakkab tusda. Masalan, maktab ta’limining bir qator an’anaviy shakllarini rad yetish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning qadriyatlarini qayta baholash, ta’lim maqsadlarini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish tufayli ijtimoiy rollarning o‘zgarishi. Bularning barchasi maktabdagi o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari tabiatini o‘zgartiradi va haddan tashqari psixo-

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

emotsional kuchlanishni keltirib chiqaradi. Bu holat esa o‘quv motivatsiyasining pasayishiga sabab bo‘ladi.

XULOSA: Avtoritar uslubda faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilar bilan o‘quvchilar deyarli maktabning birinchi kunlaridanoq o‘zlarini salbiy baholashadi va surunkali muvaffaqiyatsizlik holatida bo‘ladilar. Avtoritar, qattiqqo‘l, o‘qituvchi dars davomida juda ko‘p tanbehlar beradi va ota-onalarga juda qattiq talablar qo‘yadigan bo‘ladi, doimiy ravishda o‘quvchidan noroziligini bildiradi. Natijada nafaqat oilada balki ota-onalarning maktabga va maktab o‘qituvchilariga nisbatan salbiy munosabati shakllanadi. Turli ko‘rinishdagi nizolarning vujudga kelishi ham kuzatiladi. Bulardan tashqari o‘quvchilar sog‘ligida ham buzilishlar kelib chiqishi, deviant xulq-atvorni ko‘rinishlari bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Kalit so‘zlar: boshqaruv uslubi, autoritar uslub, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, o‘z-o‘zini baholash, motivatsiya, komunikatsiya uslubi, ichki motivatsiya, ijodiy faoliyat, emotsional ta’sir, pedagogik hamkorlik, o‘quv jarayoni, mulkiyat, jamoa, tarbiyaviy ta’sir, salbiy baholash, nazorat, tahlil

ОСОБЕННОСТИ ВЛИЯНИЯ АВТОРИТАРНОГО СТИЛЯ НА МОТИВАЦИЮ СТУДЕНТОВ К ОБУЧЕНИЮ

Тураева Дилафруз Рустамбоевна
Доцент, Ташкентский международный химический университет, город Ташкент

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье представлена информация об исследовании, в котором изучалось влияние стилей управления учителей, особенно авторитарного стиля. В исследовании изучались стили управления учителей на основе методологии «Определение стиля самоуправления» и включались оценки учителей и учеников. Согласно результатам, учителя с авторитарным стилем управления показали средний уровень самооценки, тогда как оценки учащихся были низкими. Это позволяет характеризовать учителя как требовательного, но равнодушного и строгого по отношению к ученикам. В ходе исследования были проведены наблюдения, чтобы показать, как авторитарный стиль влияет на студентов. Таким образом, у учащихся может сформироваться негативная самооценка и негативное отношение к школе и учителям. Кроме того, было отмечено, что авторитарный стиль управления может ослабить внутреннюю мотивацию студентов и ограничить творческую активность.

ЦЕЛЬ: Изучить особенности влияния авторитарного стиля на учебную мотивацию студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Известный детский психолог А.И. Захаров утверждает, что повышенная «стимуляция» детей посредством угроз, осуждения и наказаний является фактором, напрямую приводящим к проблемам психического здоровья и развитию неврозов. Несмотря на то, что статья 4 Закона

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Республики Узбекистан «Об образовании» определяет одним из основных принципов в сфере образования гуманистический и демократический характер обучения и воспитания, порой наблюдается авторитарная педагогическая деятельность. Ситуация в школе в наши дни очень сложная. Например, отказ от ряда традиционных форм школьного образования, переоценка ценностей учителей и учеников, изменение социальных ролей из-за постоянного пересмотра образовательных целей. Все это изменяет характер взаимоотношений учителя и ученика в школе и вызывает чрезмерное психоэмоциональное напряжение. Такая ситуация приводит к снижению мотивации к обучению.

ВЫВОД: Учителя, работающие в авторитарном стиле, воспитывают учеников с негативной самооценкой и хронической неуспеваемостью практически с первых дней учебы. Авторитарный, строгий учитель будет делать слишком много замечаний во время уроков и предъявлять очень строгие требования к родителям, постоянно выражая недовольство учеником. В результате формируется негативное отношение не только в семье, но и у родителей к школе и школьным учителям. Также наблюдается возникновение различных форм конфликтов. Кроме того, не исключено, что у учащихся могут возникнуть проблемы со здоровьем и проявиться девиантное поведение.

Ключевые слова: стиль управления, авторитарный стиль, преподаватели, студенты, самооценка, мотивация, стиль общения, внутренняя мотивация, творческая активность, эмоциональное воздействие, педагогическое сотрудничество, процесс обучения, ответственность, команда, воспитательное воздействие, отрицательная оценка, контроль, анализ

FEATURES OF THE IMPACT OF THE AUTHORITARIAN STYLE ON STUDENTS' MOTIVATION TO LEARN

Turayeva Dilafruz Rustamboyevna
Associate professor, Tashkent international university of chemistry, Tashkent city

Annotation.

INTRODUCTION: This article presents data on the study of the influence of teachers' management style, especially the authoritarian style. The study studied the management style of teachers based on the methodology "Determining the style of self-management" and showed assessments by teachers and students. According to the results, teachers with an authoritarian management style showed an average level of self-assessment, while the assessment by students was low. This allows us to characterize teachers as demanding, but indifferent and strict towards students. During the study, observations were made to show how the authoritarian style affects students. Students with this style may negatively evaluate themselves, have a negative attitude towards school and teachers. In addition, it is noted that the authoritarian style

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

of management can weaken the internal motivation of students and limit creative activity.

GOAL: To study the features of the influence of the authoritarian style on the motivation of students to study.

MATERIALS AND METHODS: The famous child psychologist A.I. Zakharov noted that the intensification of "encouragement" of children through threats, condemnation and punishment is a factor that directly leads to mental health problems and the development of neuroses. Despite the fact that Article 4 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" defines one of the main principles in the field of education as the humanistic, democratic nature of education and upbringing, sometimes authoritarian pedagogical activity is observed. The situation in schools today is quite complex. For example, the rejection of a number of traditional forms of school education, the reassessment of the values of teachers and students, and the constant revision of educational goals are changing social roles. All this changes the nature of teacher-student relationships at school and causes excessive psycho-emotional tension. This situation, in turn, leads to a decrease in learning motivation.

CONCLUSION: Teachers and students who work in an authoritarian style evaluate themselves negatively almost from the first days of school and are in a state of chronic failure. An authoritarian, strict teacher gives a lot of reprimands during the lesson and makes very strict demands on parents, constantly expresses dissatisfaction with the student. As a result, a negative attitude is formed not only in the family, but also on the part of parents towards the school and school teachers. The emergence of various types of conflicts is also observed. In addition, it is possible that students may also experience health problems and display deviant behavior.

Keywords: management style, authoritarian style, teachers, students, self-assessment, motivation, communication style, intrinsic motivation, creative activity, emotional impact, pedagogical cooperation, learning process, ownership, team, educational impact, negative evaluation, control, analysis.

Dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlari o‘qituvchilarning samaradorligini oshirish uchun yangi baholash usullarini joriy etmoqda. Jumladan, AQShda “National Board for Professional Teaching Standards” (NBPTS)[5] o‘qituvchilarni milliy sertifikatsiyadan o‘tkazish orqali ularning kasbiy mahoratini aniqlaydi. Yana o‘qituvchilar faoliyatini samarador qilish maqsadida “Teacher Performance Assessment” (edTPA)[6] kabi tizimlar qo‘llanilmoqda, ularning o‘qitish metodlari, shaxsiy yondashuvlari va talabalar natijalariga e’tibor qaratilmoqda. Yaponiyada o‘qituvchilarni doimiy malaka oshirish dasturlari orqali kuzatish va professional o‘sishni rag‘batlantirish asosiy o‘rinda turadi. Yevropa Ittifoqi davlatlari – Masalan, Finlandiyada o‘qituvchilarning o‘zini-o‘zi baholash usullari keng tarqalgan bo‘lib, ular faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu usullar nafaqat baholashni yaxshilaydi, balki

[5] https://www.nbpts.org/connect/team-nbct-week/
[6] https://wp.stolaf.edu/education/sttpa/

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

o‘qituvchilarni yangi texnologiyalar va metodikalarni qo‘llashga, faoliyat va boshqaruv uslublarini takomillashtirishga undaydi.

Respublikmizda ham so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish maqsadida o‘qituvchilar faoliyatini baholashga e’tibor kuchaytirildi: O‘zbekiston Respublikasi–2022-2026 yillarga mo‘ljallangan ta’limni rivojlantirish dasturida[7] o‘qituvchilar faoliyatini baholashni takomillashtirish belgilangan. Milliy baholash tizimlari – Innovatsion baholash metodikalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazilmoqda. Digital platformalar – Elektron kundalik va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘qituvchilarning ish jarayonini kuzatish va tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategik dasturida[8] o‘qituvchilarni baholashda raqamli texnologiyalardan foydalanish va baholash jarayonini takomillashtirish masalalari belgilangan. Dastur doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, innovatsion yondashuvlar va o‘qituvchilarning malakasini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida shuningdek “El-yurtimiz azaldan e’zozlab keladigan o‘qituvchi va murabbiylarning maqomini, qadr-qimmatini yanada yuksaltirish – biz amalga oshirayotgan davlat siyosatining eng muhim, hal qiluvchi yo‘nalishiga aylangani ham shundan dalolat beradi”[9] deb takidlaganlar. E’tibor berilgan jihatlar, o‘qituvchilar faoliyaning samaradorligini oshirishga, ta’lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan.

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyat samaradorligi ta’lim sifatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. An’anaviy o‘qitish, boshqaruv usliblari ko‘pincha cheklangan bo‘lib, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va raqamli vositalarni joriy etish zarurati tug‘ilmoqda. Innovatsion o‘qitish va boshqarish usullarini almashtirib qo‘llash o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim sifati monitoringini yaxshilash uchun zarurdir. Shuningderk, o‘quvchilarni motivatsiyalashda o‘qituvchi faoliyatining ro‘li juda muhimdir, chunki o‘qituvchi nafaqat bilimlarni uzatib, balki o‘quvchilarni o‘zlari uchun maqsadlar qo‘yishga, mustaqil fikrlashga va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi. O‘qituvchining faoliyati, uning pedagogik uslublari va o‘quvchilarga bo‘lgan yondashuvi motivatsiya jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. O‘qituvchining motivatsiyalashdagi ro‘lini bir qancha faoliyatda ko‘rish mumkin bo‘lib quyidagilarni alohida ta’kidlash maqsadga muvofiq deb hisoblash o‘rinlidir: qiziqarli va mazmunli darslarni tashkil etish, ijobiy muhit yaratish? shaxsiy yondashuv, maqsadlar qo‘yish va rag‘batlantirish, o‘qituvchining e’tibori va ijobiy baholari o‘quvchilarga o‘z muvaffaqiyatlarini sezdirish hamda o‘qituvchi o‘z o‘quvchilari bilan samimiy va hurmatga asoslangan munosabatlar o‘rnatish orqali ularda ishonch hosil qilishi. O‘qituvchining o‘quvchilarga motivatsiya berishda muhim ro‘li shundaki, u

[7] 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni
[8] “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni.
[9] “Ўзбекистон ўқитувчи ва мураббийларига” O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024 nutqi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

o‘quvchilarning rivojlanishida faqat bilimlar bilan cheklanmay, balki ularning ichki potentsialini ochib berish, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va ularni o‘z orzulariga erishish yo‘lida qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajaradi. Yaxshi o‘qituvchi faqat darsni o‘rgatibgina qolmay, balki o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

1938-yilda nemis psixologi tomonidan K. Levin tadqiqotlarida avtoritar uslubdagi boshqaruvda demokratik uslubga qaraganda ko‘p ishning bajarilishiga erishiladi, lekin motivasiyaning past bo‘lishi, guruhda do‘stona kayfiyat, mustaqil fikrlash bo‘lmasligini isbotlagan. Muallif avtoritar uslub hukm surgan jamoada boshliqqa nisbatan ham, boshqalarga nisbatan ham agressivlik namoyon bo‘lishini alohida ko‘rsatadi. Bugungi kunda ko‘plab tadqiqotchilar, K. Levin klassifikasiyasiga amal qiladilar: А.А. Бодалев[10], К. Бирд ва Х. Прильбец[11], Г.Н. Мальковская[12], Л.И. Кривалап[13], va boshqalar. А.А. Андреев[14], Н.Ф. Маслова[15] tomonidan mazkur triada avtokratik va demokratik uslub kabi diadaga ajratilgan. А.И. Щербаков ва А.В. Мудрик[16] kabi olimlar triada yana kengaytirib, o‘qituvchi pedagogik faoliyati vazifalariga e’tiborlilik darajasini mayda detallarigacha ko‘rib chiqishgan.

O‘qituvchi faoliyatida ta’lim jarayonini boshqarish vazifasi asosiy hisoblanadi. Boshqaruvni esa muloqotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘qituvchi boshqaruv uslubi qanday bo‘lishiga qarab, uning muloqot uslubi ham boshqaruv uslubiga mos bo‘ladi. В.А. Кан-Калик[17] o‘qituvchi faoliyatini tadqiq qilib, pedagogik muloqotning beshta uslubini ajratib ko‘rsatdi: hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga qiziqishiga asoslangan pedagogik muloqot uslubi; distansiya muloqot; qo‘rqitish – muloqot; hazil - muloqot.

O‘qituvchining motivatsiya berishdagi ro‘li, faqat ma’lum bir bilimlarni o‘rgatish bilan cheklanmay, o‘quvchilarning ichki potentsialini ochib berishga, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan yangicha yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining motivatsion salohiyatni oshirishdagi

[10] Бодалев А. А. Специфика социально-психологического подхода к пониманию личности // Психология личности в трудах отечественных психологов. - СПб.: Питер, 2000. - С.336-344.
[11] Маскалянова С.А. Формирование профессионального имиджа будушего социального педагога: Дис. ... канд. психол.наук. – Елец: ЕГУ им.И.А.Бунина. 2005. – 168 с.
[12] Ольховский В.Н. Личностные трудности общения обучаемых и их преодоление в условиях диалогического взаимодействия в процессе обучения.дис. ... канд. Психол. наук.- Нижний Новгород: НГЛУ, 1998.- 195с.
[13] Гамезо М.В., Петрова Е.А., Орлова Л.М. Возрастная и педагогическая психология: Учеб. пособие для студентов всех специальностей педагогических вузов. — М.: Педагогическое общество России, 2003. — 512 с.
[14] Андреева Г.М., Богомолова Н.Н., Петровская Л.А. Зарубежная социальная психология XX столетия: Теоретические подходы: Учеб. пособие для вузов. -- М.: Аспект Пресс, 2002. - 287 с.
[15] Раҳмонов А. Касб-ҳунар таълими устаси профессиограммаси. // Халқ таълими. Тошкент, -2001-№1-Б 52-55.
[16] Гарбузов В. И., Фесенко Ю. А. Г20 Неврозы у детей. — СПб.: КАРО, 2013. — 336 с. — (Серия «Специальная педагогика»).
[17] Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении: Кн. для учителя / В.А. Кан-Калик. – М.: Просвещение, 1987. - 190 с.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

faolligi va zamonaviy metodlarni qo‘llashi, ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilmoqda. Bu yangi yondashuv, o‘quvchilarni faqat o‘rganishga emas, balki o‘zlarining kelajagini shakllantirishga ham rag‘batlantiradi.

Tadqiqotning maqsadi **autoritar uslubning o‘quvchilarni o‘qishga motivatsiya qilishga ta’sirini** o‘rganish va tahlil qilishdir. Maqolada o‘qituvchining autoritar yondashuvi, uning pedagogik metodlari va o‘quvchilarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi, ichki motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, autoritar uslubning o‘quvchilarni faoliyatga jalb etishdagi ijobiy va salbiy tomonlari tahlil qilinadi. Maqsad, o‘quvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda o‘qituvchining muayyan uslublarining qanday rol o‘ynashi haqida tushunchalar yaratish va bu uslubni zamonaviy ta’lim tizimida qanday samarali qo‘llash mumkinligini o‘rganishdir.

Tadqiqotning ob’ekti umumiy o‘rta **maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilari o‘rtasidagi o‘quv motivatsiyasi** va **autoritar uslubning o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga ta’siri jarayonidir.** Tadqiqotda o‘qituvchilarning pedagogik uslublari, ayniqsa, autoritar uslubning o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan munosabatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi, ularning ichki va tashqi motivatsiyasiga qanday o‘zgarishlar kiritishi o‘rganiladi. Tadqiqotlarimizda 379 nafar o‘qituvchi va 525 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Mashhur bolalar psixologi A.I. Zaxarovning[18] ta’kidlashicha, bolalarni tahdid qilish, qoralash va jazolash orqali "rag‘batlantirish" ning kuchayishi bevosita ruhiy salomatlik muammolariga va nevrozlarning rivojlanishiga[19] olib keladigan omil hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 4-moddasida Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplaridan biri ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati etib belgilanishaga qaramay, ba’zida avtoritar pedagogik faoliyat kuzatilmoqda. Hozirgi davrda maktabdagi vaziyat ancha murakkab tusda. Masalan, maktab ta’limining bir qator an’anaviy shakllarini rad yetish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning qadriyatlarini qayta baholash, ta’lim maqsadlarini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish tufayli ijtimoiy rollarning o‘zgarishi. Bularning barchasi maktabdagi o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlari tabiatini o‘zgartiradi va haddan tashqari psixo-emotsional kuchlanishni keltirib chiqaradi. Bu holat esa o‘quv motivatsiyasining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot davomida, o‘qituvchining boshqaruv uslubi “O‘z-o‘zini boshqaruv uslubini aniqlash” metodikasi orqali o‘rganildi. O‘qituvchilarning boshqaruv uslubini

[18] Гарбузов В. И., Фесенко Ю. А. Г20 Неврозы у детей. — СПб.: КАРО, 2013. — 336 с. — (Серия «Специальная педагогика»).
[19] Сидоренкова А.В. Психология малой группы: ретроспективный научно-вспомогательный указатель отечественных трудов, изданных в СССР и России. 100 лет пути / Сост.: А.В. Сидоренков, В.А. Дорофеев, И.И. Сидоренкова, Н.Ю. Ульянова, О.Ю. Шипитько, Е.С. Коваль. Отв. ред. А.В. Сидоренков – М.: КРЕДО, 2014. – 268 с.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

o‘zini-o‘zi baholashida va o‘quvchilar uchun moslashtirib, o‘qituvchi boshqaruv uslubini[20] aniqlashda foydalandik [11].

1-jadval

O‘qituvchilar boshqaruv uslubining o‘z-o‘zini va ekspert baholashi natijalari ko‘rsatkichlari (ball hisobida).

Boshqaruv uslubi	O‘qituvchilarning o‘z-o‘zini baholashi (n=379)	O‘quvchilarning o‘qituvchilarni baholashi (n=225)
Avtoritar uslub	9.4	7.17

Metodika asosida o‘qituvchilarning va o‘quvchilarining baholashi ko‘rsatkichlari quyidagilar: boshqaruv uslublar bo‘yicha 0-7 baho past, 8-13 baho o‘rta, 14-20 baho yuqori ko‘rsatkich bo‘lsa, 1-jadvalda ko‘rinib turibdiki, avtoritar uslub bo‘yicha o‘qituvchilar o‘z-o‘zini baholashi o‘rta darajada (9.4), o‘quvchilar o‘qituvchilarni baholashi past (7,17). O‘rta darajadagi 9,4 ko‘rsatkich asosida o‘qituvchilarni, yaxshi boshqaruvchilik xususiyatlarni namoyon qiladi, o‘quvchilar harakatini boshqara oladi, talabchan, jamoaga buyruq kuchi va majburlash bilan ta’sir etishga, maqsadga erishishga intiluvchan, o‘quvchilar savollariga e’tiborsiz, sardorlar takliflarini eshitishni istamaydigan deb tavsiflash mumkin. Past (7,17) ko‘rsatkich bo‘yicha (o‘quvchilar ko‘rsatkichi), boshqaruvchilikda sustlikni namoyon qiladi, boshqarish malakasining turg‘un emasligi, o‘ziga ishonuvchan, boshlagan ishini oxirigacha yetkazadi, qoloq va qobiliyatsiz o‘quvchilarni tanqid qilishga moyil deb tavsiflash mumkin.

Shu tariqa, o‘qituvchilarda bolalarning emosional “rad etish” shakllanganlgini kuzatish mumkin. Bolalarning qobiliyati va hayotda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini kamaytirish holatlari aynan avtoritar o‘qituvchi tomonidan shakllantiriladi. G.V.Gribanovaning tasavvuricha, avtoritar uslub orqali ta’sir o‘quvchining “sun’iy individuallashadi” avtoritar uslubda o‘quvchi o‘ziga xosligi, ehtiyojlari va qiziqishlari hisobga olinmaydi, unda huquqlar chegaralanadi. Avtoritar o‘qituvchi faoliyatiga emosional yopiqlik xos. Bu esa o‘quvchi shaxsiga salbiy ta’sir qiladi. O‘quvchinng yetakchi ehtiyoji ya’ni, bilim olishga bo‘lgan ehtiyoji qondirilmaydi. Inson bunday vaziyatda yo muloqot qilishdan qochadigan, yoki kasal bo‘lishi, turli salbiy guruhlar ya’zosiga aylanishi mumkin. Shuning uchun pedagogik hamkorlik, shaxsga yo‘naltirilgan individual o‘zaro munosabatlar, shaxs qadr-qimmatining hisobga olinishini amaliy joriy etilishi o‘quv motivini oshiradi ta’lim samaradorligini hamda sifatiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida boshqaruv vazifasini bajarish pedagog faoliyati asosini tashkil etadi. Boshqaruv esa muloqot vositasida amalga oshiriladi. Shu tariqa, boshqaruv va muloqot uslubi orasida bog‘liqlik vujudga keladi. Boshqaruv uslubi

[20] Тураева Д. Р. Психологические особенности стилей деятельности педагогов //Приоритетные направления развития спорта, туризма, образования и науки. – 2021. – С. 555-560.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

nafaqat qarorlar qabul qilish, balki muloqot usulini ham bildiradi. Turli xil uslubdagi o‘qituvchilarning dars jarayonida o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqotini o‘rganishni ham lozim deb topdik. O‘qituvchi muloqot uslubini “Muloqot tahlilining Flanders tizimi” asosida kuzatish sxemasi orqali bitta dars jarayonida xronometrik kuzatish ishlari olib borildi. O‘qituvchining darsda o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqoti quyidagi kategoriyalar asosida kuzatilib, belgilandi: o‘quv faoliyatini tashkil qilish; materialni tushuntirish; o‘quvchilarga berilgan savollariga o‘qituvchining reaksiyasi; o‘quvchilar savollariga o‘qituvchining munosabati; sukut saqlash yoki chalg‘ib ketish; o‘quvchilarni tushunish; rag‘batlantirish. O‘qituvchilarning dars jarayonidagi muloqot uslubi kuzatildi va umumlashtirilib, o‘rtacha miqdori hisoblandi. Bitta dars jarayonida o‘qituvchilarning o‘quvchilarga o‘rtacha umumiy murojaati miqdori 2-jadvalda ifodalandi.

2-jadval.

O‘qituvchi muloqat uslubini kuzatish sxemasi bo‘yicha bitta darsda o‘qituvchining o‘quvchiga umumiy murojaati miqdori

BOSHQARUV USLUBI	DEMOKRATIK		AVTORITAR		LIBERAL	
	O‘rtacha hisobda	%	O‘rtacha hisobda	%	O‘rtacha hisobda	%
Jami	3,5	8,2%	5	7,8%	2,7	9,6%

Olingan natijalardan, Avtoritar uslubdagi o‘qituvchilarga muloqotida imperativ shakldagi murojaat, nutqda monologning ustunligi, individual muloqot davrasining kichikligi (ular asosan yaxshi o‘zlashtiruvchilardan tashkil topgan), muloqotda hukmronlik va shaxsiy yuqorilikni namoyish qilish, o‘quvchilarni qattiqqo‘llik bilan baholash xususiyatlari xosligi aniqlandi. Bu uslubning nisbatan past baholanganligi **5** (17,8%), o‘quvchilarning ko‘pi uchun yuqori darajadagi nazorat va qat’iylik motivatsiyani kamaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Autoritar uslub o‘quvchilarga qat’iy talablar qo‘yishni va ko‘proq tartibga rioya qilishni talab qiladi. Biroq, bu uslub o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini susaytirishi yoki ijodkorlik va mustaqil fikrlashni cheklashi mumkin. Avtoritar uslub o‘quvchilarda tashqi motivatsiyani ko‘proq rivojlantiradi, lekin ichki motivatsiyani susaytirishi mumkin.

Avtoritar uslubda faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilar bilan o‘quvchilar deyarli maktabning birinchi kunlaridanoq o‘zlarini salbiy baholashadi va surunkali muvaffaqiyatsizlik holatida bo‘ladilar. Avtoritar, qattiqqo‘l, o‘qituvchi dars davomida juda ko‘p tanbehlar beradi va ota-onalarga juda qattiq talablar qo‘yadigan bo‘ladi, doimiy ravishda o‘quvchidan noroziligini bildiradi. Natijada nafaqat oilada balki ota-onalarning maktabga va maktab o‘qituvchilariga nisbatan salbiy munosabati shakllanadi. Turli ko‘rinishdagi nizolarning vujudga kelishi ham kuzatiladi. Bulardan tashqari o‘quvchilar sog‘ligida ham buzilishlar kelib chiqishi, deviant xulq-atvorni ko‘rinishlari bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Avtoritar uslubda ish olib borilishi, odatda, subyekt va obyekt munosabatlari shakllanishini anglatadi. Bu uslubda,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

o‘qituvchining hukmronligi, topshiriqlar va qarorlarining ko‘pincha o‘zgarmasligi, faqat uning fikriga asoslanishi kuzatilishi mumkin. Ushbu tizimda pedagog o‘z pozisiyasini oliy darajada o‘rnatadi va xodimlar (obyektlar) faqat amalga oshirish vazifasini bajaradi. Avtoritar usulda ish olib borishda subyekt (o‘qituvchi) va obyekt (o‘quvchilar) o‘rtasidagi munosabatlar asosan bir tomonlama, iyerarxik va qat’iy bo‘lib, ularning faoliyatdagi erkinligi cheklangan bo‘lishi mumkin. Bu usul, odatda, qat’iy tartib va nazorat talab qilish bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish uchun samarali bo‘lishi mumkin. Ammo, uzoq muddatda bu usul o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishini yo‘qotishi va ijodiy faoliyatni cheklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Андреева Г.М., Богомолова Н.Н., Петровская Л.А. Зарубежная социальная психология XX столетия: Теоретические подходы: Учеб. пособие для вузов. -- М.: Аспект Пресс, 2002. - 287 с.

2. Бодалев А. А. Спецификa социально-психологического подхода к пониманию личности // Психология личности в трудах отечественных психологов. - СПб.: Питер, 2000. - С.336-344.

3. Гамезо М.В., Петрова Е.А., Орлова Л.М. Возрастная и педагогическая психология: Учеб. пособие для студентов всех специальностей педагогических вузов. — М.: Педагогическое общество России, 2003. — 512 с.

4. Гарбузов В. И., Фесенко Ю. А. Г20 Неврозы у детей. — СПб.: КАРО, 2013. — 336 с. — (Серия «Специальная педагогика»).

5. Маскалянова С.А. Формирование профессионального имиджа будущего социального педагога: Дис. ... канд. психол.наук. – Елец: ЕГУ им.И.А.Бунина. 2005. – 168 с.

6. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении: Кн. для учителя / В.А. Кан-Калик. – М.: Просвещение, 1987. - 190 с.

7. Ольховский В.Н. Личностные трудности общения обучаемых и их преодоление в условиях диалогического взаимодействия в прosecce обучения.дис. ... канд. Психол. наук.- Нижний Новгород: НГЛУ, 1998.- 195с.

8. Пенто Г., Гравитс М. Методы социалных наук.- М.: Прогресс, 1972.- 60с.

9. Раҳмонов А. Касб-ҳунар таълими устаси профессиограммаси. // Халқ таълими. Тошкент, -2001-№1-Б 52-55.

10. Сидоренкова А.В. Психология малой группы: ретроспективный научно-вспомогательный указатель отечественных трудов, изданных в СССР и России. 100 лет пути / Сост.: А.В. Сидоренков, В.А. Дорофеев, И.И. Сидоренкова, Н.Ю. Ульянова, О.Ю. Шипитько, Е.С. Коваль. Отв. ред. А.В. Сидоренков – М.: КРЕДО, 2014. – 268 с.

11. Тураева Д. Р. Психологические особенности стилей деятельности педагогов //Приоритетные направления развития спорта, туризма, образования и науки. – 2021. – С. 555-560.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Turayeva Dilafruz Rustamboyevna
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dosenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri
El. pochta: dilafruz2501@inbox.ru

UDK 37; 377; 15

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

TA'LIMDA METAKOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ostonov Jasur Shopirjonovich
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim tashkilotlarida metakognitiv metodlarni qo'llash orqali yoshlarni ta'limiga tayyorlash masalalari xususida fikr bayon etilgan.

MAQSAD: Bugungi kunda ta'lim jarayonida talaba yoshlarni kasbiy malakasini rivojlantirish har qanday ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda, shu bilan birga, hozirgi kunga qadar uni shakllantirish muammosi bo'yicha aniq bir yondashuvlar mavjud emas. Shundan ko'rinib turibdiki, oliy o'quv yurti bitiruvchisini o'z kasbi bo'yicha yuksak mahoratga erishgan mutaxassis deb bo'lmaydi. Ammo shunga qaramay, u kasbiy jihatdan takomillashtirishga imkon beradigan fazilatlarga ega bo'lishi bugungi ta'limning asosiy talabi va vazifasi hisoblanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ta'limda metakognitiv metodlarni qo'llash orqali yoshlarni ta'limga tayyorlashda bilish faolligi ko'rsatkichi sifatida mo'tadillik, ishtiyoq, o'rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo'lishi, nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

XULOSA: O'rganilgan empirik natijalar asosida ta'limda metakognitiv metodlarni qo'llash orqali bolalarni ta'limga tayyorlash modelini takomillashtirish bir necha o'zaro aloqador, pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan ma'lum darajada mustaqil tushunchalarning uzviy munosabatidan tashkil topganligi, ta'lim sifati, monitoring va model tushunchalarining ilmiy tavsiflari qiyoslanib, monitoring mexanizmi hamda texnologiyalarilari huquqiy, ijtimoiy, pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik jihatdan ilmiy asoslandi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, tashkilot, yosh avlod, aqliy- intellektual, estetik, jismoniy, metakognitiv, ko'nikma, ma'naviy salohiyat, talimga tayyorlash, takomillashtirish.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ МЕТАКОГНИТИВНЫХ НАВЫКОВ В ОБРАЗОВАНИИ

Остонов Жасур Шопиржонович
Доцент Бухарского государственного педагогического института, город Бухара

Аннотация:

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье изложено мнение о проводимых реформах по дальнейшему совершенствованию и развитию системы образования в нашей стране, о подготовке молодежи к обучению посредством применения метакогнитивных методов в образовательных организациях.

ЦЕЛЬ: На сегодняшний день развитие профессиональной компетентности обучающейся молодежи в образовательном процессе становится одной из основных задач любого образовательного учреждения, при этом до сих пор нет однозначных подходов к проблеме ее формирования. Из этого видно, что выпускника высшего учебного заведения нельзя считать специалистом, достигшим высокого мастерства в своей профессии. Но все же главное требование и задача сегодняшнего образования-чтобы оно обладало качествами, позволяющими профессионально совершенствоваться.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В качестве показателей познавательной активности при подготовке молодежи к обучению посредством применения метакогнитивных методов в образовании можно назвать умеренность, энтузиазм, осознанность обучения, творческое проявление, поведение в нестандартных учебных ситуациях, самостоятельность в решении учебной задачи и др.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: На основе изученных эмпирических результатов установлено, что совершенствование модели подготовки детей к обучению посредством применения метакогнитивных методов в образовании состоит из целостной взаимосвязи нескольких взаимосвязанных, педагогически, психологически и в определенной степени социально независимых понятий, сравниваются научные характеристики качества образования, мониторинга и модельных понятий, а механизм и технологии мониторинга определяются правовыми, социальными, педагогическими, психологическими и научно-методическими методиками. научно обоснован.

Ключевые слова: система образования, организация, подрастающее поколение, психоинтеллектуальная, эстетическая, физическая, метакогнитивная, умение, духовный потенциал, подготовка к обучению, совершенствование.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF METACOGNITIVE SKILLS IN EDUCATION

Ostonov Jasur Shopirjonovich
Associate professor of Bukhara
State Pedagogical Institute, Bukhara city

Annotation:

INTRODUCTION: This article describes the reforms carried out in our country to further improve and develop the educational system, the issues of preparing young people for their education through the use of metacognitive techniques in educational organizations.

THE GOAL: Today, the development of professional competence of student youth in the educational process is becoming one of the main tasks of any educational institution, while, to date, there are no specific approaches to the problem of its formation. It can be seen that a graduate of a higher educational institution cannot be considered a specialist who has achieved a high level of skill in his profession. But despite this, the fact that he has qualities that allow him to improve professionally is the main requirement and function of today's education.

MATERIALS AND METHODS: Through the use of metacognitive techniques in education, it is possible to mention moderation, passion, awareness of learning, creative manifestation, behavior in non-standard educational situations, independence in solving the educational task, among others, as an indicator of cognitive activity in preparing young people for education.

CONCLUSION: Based on the studied empirical results, the improvement of the model of preparing children for education through the use of metacognitive techniques in education was formed from the inextricable relationship of several interconnected, pedagogical, psychological and socially independent concepts, the scientific descriptions of educational quality, monitoring and model concepts were compared, the mechanism of monitoring and technologies were scientifically substantiated in legal, social, pedagogical, psychological

Keywords: educational system, Organization, younger generation, mental - intellectual, aesthetic, physical, metacognitive, skill, spiritual potential, preparation for training, improvement.

Ta’lim jarayonida yoshlarni kasbiy malakasini rivojlantirish har qanday ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda, shu bilan birga, hozirgi kunga qadar uni shakllantirish muammosi bo‘yicha aniq bir yondashuvlar mavjud emas.

Ko‘rinib turibdiki, oliy o‘quv yurti bitiruvchisini o‘z kasbi bo‘yicha yuksak mahoratga erishgan mutaxassis deb bo‘lmaydi. Ammoshunga qaramay, u kasbiy jihatdan takomillashtirishga imkon beradigan fazilatlarga ega bo‘lishbugungi

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

ta’limning asosiy talabi va vazifasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, institutlar ushbu tizimning intelektual elementlarini shakllantirishlari juda muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, mutaxassis o‘qituvchi ta’limning yangi sifati kasbiy ta'lim sifatida belgilanishi mumkin bo‘lgan ma’lum darajadagi kasbiy ta’limga erishishni o‘z ichiga oladi.

Kompetentsiyani bitiruvchining olgan bilim va tajribasini professional darajada qo‘llash qobiliyati va istagi sifatidagimuammolarni hal qilishbiz oldimizdagi asosiy muammo bo‘lib tadqiqotlarda yechimini bosqichma –bosqich topamiz. Agar biz oliy ta’lim tizimi doirasida kompetentsiyani shakllantirishni ko‘rib chiqsak, unda bilim haqida gapirish mumkin, mutaxassisning malaka va ko‘nikmalari V.N. Drujinin tomonidan quyidagicha takidlangan,intelekt(umumiy qobiliyat sifatida) yotadi boshqa qobiliyatlarga asoslanadi va har qanday faoliyatningmuvaffaqiyatini belgilaydi.

Strukturaviy-integrativ yondashuv nuqtai nazaridan intellektual kompetentsiya muammosini M.A.Xolodnaya o‘z tadqiqotlarida ko‘rib chiqadi. U ushbu atamani ilmiy natijalariga asoslangan holda keltirib o‘tadi. "Ma’lum bir sohada samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatini ta’minlaydigan fanga oid bilimlarni tashkil etishning maxsus turi" deb tushunishni taklif qiladi. Biz intellektual qobiliyatlarni talabalarning individual shaxsiy xususiyatlarining tarkibiy qismlaridan biri sifatidako‘rib chiqamiz, bu esa, o‘z navbatida, eng muhimlaridan biridirbo‘lib hisoblanadi.

Yosh avlodning shaxs va sub’ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish ta’lim tashkilotlaridan boshlanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi va boshqarilishi ta’lim tizimining uzluksizligini ta’minlash sharti bo‘lib xizmat qiladi,chunki yosh murg‘ak qalblar bilan olib boriladigan pedagogik jarayon ularning kelajakda kim bo‘lib yetishishlari, qanday fuqarolik pozitsiyasini egallashlari bilan bog‘liq holda qaraladi.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim tashkilotlarida didaktik jarayonlarni takomillashtirish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi.

Ta’lim jarayonida bolalarni ta’limga tayyorlashda didaktik jarayonga metakognitiv metodlarni qo‘llash va pedagogik tizimni oqilona tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Metabilish” tushunchasi fanga ilk bor Djon Fleyvell tomonidan 1976 yilda kiritildi. Uning fikricha, insonning bilish jarayonlari haqidagi umumiy bilimlar majmuasini nazorat qilishga undaydigan bilimlar sohasiga metabilish sohasi deyiladi. Dj. Fleyvell metabilishning 4 komponentini ajratadi: metakognitiv bilimlar, metakognitiv tajriba, metakognitiv maqsad, metakognitiv strategiya.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Ingliz olimi A. Braun ta'kidlashicha, **metabilish** – bu inson tomonidan o'zlashtirilgan o'zining bilimlari to'g'risidagi bilimdir. Olima metabilishni ikki kategoriya asosida o'rganishni tavsiya etadi:
Bilish to'g'risidagi bilim — faoliyat majmui bo'lib, ongli ravishdagi kognitiv xatti-harakat va qobiliyatlarni boshqaruvchi refleksiv jarayondir; Bilish regulyatsiyasi — didaktik jarayonlarda bilishga intilish hissini muvofiqlashtiruvchi xatti-harakatlar va faoliyat majmuasi.

Xuddi shunday, A. Braun ta'kidlashicha, metabilish jarayonlari ta'lim berish jarayonlarini muvofiqlashtirib, ularni nazorat qilishga xizmat qiladi va bir necha tizimdan iborat bo'lgan faoliyatni tashkil qiladi: Faoliyatni rejalashtirish jarayoni (rejani shakllantirish, natijani ko'ra bilish, qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qilish);
Faoliyatni nazorat qilish jarayoni;

Bilish faoliyatining natijaviyligini nazorat qilish.

Ingliz olimi R. Klyuve ham metabilish jarayonlarida kognitiv faoliyatni muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi ikkita tizimini ajratib ko'rsatadi. Xususan,

Nazorat jarayoni — quyilgan topshiriqni identifikatsiyalashga undovchi, o'z faoliyatiga baho berish va kelgusi faoliyatni rejalashtirishga hamda natijaviyligini ta'minlovchi yo'naltiruvchi jarayon;
Boshqaruv (regulyatsiya) jarayoni — quyilgan topshiriqni bajarish uchun resurslar taqsimotiga ko'maklashuvchi, topshiriq bajarilishining algoritmini belgilovchi jarayon.

D. Rigli, P. Shetts, R. Glants i S. Vaynshteyn o'z tadqiqotlarida metabilishni o'z bilimlarini ongli ravishda o'rganishga mo'ljallangan refleksiyani qo'llash jarayoni sifatida tavsiflashadi, o'z tafakkur faoliyaning strategiyasini belgilashga mo'ljallangan xatti-harakatlar majmuasi sifatida e'tirof etishadi. Olimlarning fikricha, rejalashtirish, xatti-harakatni belgilash strategiyasi, bilish jarayonlari monitoringi insonning ongli ravishda o'quv-biluv faoliyatida muhim o'rin egallaydi.

S. Tobiasi X. T. Eversonlar metabilishning ierarxik modelini taklif etishib, unda bilimni baholash, o'qitish sifatini baholash, kelgusi o'quv faoliyatni rejalashtirish va o'quv strategiyasini belgilash muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatganlar. Olimlarning fikricha, bilimlar monitoringi metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi muhim qadam bo'lib, insonning nimani yaxshi bilishiyu, va yana nimalarni o'rganishi lozimligi haqida o'ylab ko'rishga xizmat qilishini belgilaydi.

Rus olimasi M.A.Xolodnaya, boshqa mualliflar singari, metabilish jarayonlari bilimlarni ongli nazorat bilangina aniqlash mumkinligi to'g'risidagi fikrlar bilan cheklanmasligini uqtiradi. Kognitiv bilim (tajriba) — mental tarkib, ya'ni qabul qilinayotgan axborotlarni tizimlashtiruvchi, ularni interpretatsiyalovchi va idrok qiluvchi bosqich;

- Metakognitiv bilim — intellektual faoliyatni boshqarishda bevosita va bilvosita qabul qilingan axborotlarni qabul qilish, boshqarish (regulyatsiya qilish). Metakognitiv bilim bevosita qabul qilingan axborotlar ustidan intellektual nazorat olib borishni ta'minlaydi va u metakognitiv bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

• Intentsional bilim (tajriba) — intellektual moyilliklarni yo‘naltiruvchi mental tarkib. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, metakognitiv ko‘nikmalarga ega bolalar talimga qabul qilinganch, ularning intellektual qobiliyatlari yuqori bo‘lishi aniqlangan. Metakognitiv ko‘nikmalar bolaning fikrlash darajasini o‘stiradi, metabilish jarayonlarini rivojlantiradi. Bunda topshiriqlarni bajarish mobaynida bola diqqatni jamlashni o‘rganadi, ma’lumotlarni saralay oladi, o‘zining faoliyatiga baho beradi.

Insonning metakognitiv faoliyati ko‘rinishlari J.Piajening operatsional nazariyasi, Dj.Brunerning kognitiv kontseptsiyasi A.Nioell, Dj.Shou, P. Lindsey, G.A.Saymon va boshqalarning tafakkur nazariyalari, P.Ya.Galperin, N.F.Talizina[10] va boshqalarning aqliy jarayonlarni faollashtirish kontseptsiyalarida ham insonning bilish jarayonlarini nazorat qila olish holati yoritib berilgan.

Metabilishning muhim komponentlaridan biri – bu metakognitiv strategiyalaridir. Dj. Fleyvell ta’biricha, bu strategiyalar insonning bilim olish maqsadlarini o‘zi tomonidan nazorat va monitoring qilishga xizmat qiladi.

D. Kyun, V.A.Molyakolarning ilmiy qarashlarida insonning shaxsiy kognitiv stategiyalar tuzilmasi o‘rganiladi.

Adabiyotlar tahlili natijasida, biz metakognitiv strategiyalarga ta’rif berishga muyassar bo‘ldik.

Metakognitiv strategiyalar – fikrlash strategiyalarini yo‘naltiruvchi, dialektik aqliy harakatlarni boshqaruvchi, muayyan tafakkur tuzilmasi.

Metakognitiv strategiyalar bilish jarayonlarini muvofiqlashtirib, ularni quyidagi aqliy xatti-harakatlarni bajarishga undaydi:

1. amaldagi aqliy strategiyaning asossiz ekanligini va uni yangicha tuzilmasini ishlab chiqish zaruratiga ehtiyoj mavjudligini anglash, alternativ, muqobil strategiya ishlab chiqish dialektikasi;

2. amaldagi strategiyaning transformatsiyasi, ya’ni oldingi eskirgan strategiyaning o‘rniga yangi mohiyatdagisini ishlab chiqish orqali; aqliy umumlashmalar orqali ikki va undan ortiq strategiyalarni jamlash va h.k.

Ta’limda metakognitiv metodlarni qo‘llash orqali yoshlarni ta’limga tayyorlashning tarkibiy qismlari: bilish ob’ekti va sub’ekti, bilish metodlari va vositalari, bilim ko‘rinishidagi natijasi va uni baholashni o‘zida aks ettiradigan bilish inson faoliyatining turi sifatida qaraladigan faoliyatli, munosabatli, qadriyatli yondashuv asosida bilish jarayonining mohiyatini ochib berish. Demak, bu jarayonda refleksiya –bolaning shaxsiy fikr va kechinmalarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan mulohaza yuritishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Refleksiya tufayli bola bilish va faoliyatning asl sub’ektiga aylanadi.

Mazkur mezonlar asosida yoshlarni ta’limga tayyorlik darajasining shakllanganligini aniqlashda uch daraja asos qilib olindi.

1. Yuqori daraja – bilishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlari o‘ta kuchli. Darslikdagi materiallarni mustaqil o‘qib o‘rganadi. Axborotdagi eng muhim fikrlarni ajrata oladi.O‘zaro hamkorlik muhitida faol kirishib ketadi, mavzudagi voqea-hodisalarni bemalol tahlil eta oladi. O‘zidagi mavjud tasavvurlar bilan hozir

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

o‘rganilayotganlarini taqqoslaydi. O‘z fikrini erkin bayon eta oladi. Boshqalar bilan faol munozaraga kirisha oladi, kirishimli, muloqatmand, o‘zidagi tasavvurlarni dadillik bilan himoya qiladi. Materiallarni umumlashtirib, bayon eta oladi. O‘rganilganlarini amaliyotga tadbiq eta oladi.

2. O‘rta daraja – bilishga bo‘lgan ehtiyoji mavjud. Axborotdagi eng muhim fikrlarni ajrata oladi. Mavzudagi voqea-hodisalarni tahlil eta oladi. Kirishimli, muloqotmand, o‘zidagi mavjud tasavvurlarin boshqalarniki bilan taqqoslay oladi, ba’zi holatlarda biroz qiynaladi. O‘z fikrini bayon eta oladi. O‘zidagi tasavvurlarni boshqalarniki bilan taqqoslaydi. O‘rganganlari asosida materialni bayon etib bera oladi.

3. Quyi daraja – bilishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlari mavjud, lekin barqaror emas. Axborotdagi eng muhim fikrlarni hamma vaqt ham ajrata olmaydi. Mavzudagi voqea-hodisalarni imkon qadar tahlil qilishga harakat qiladi. Biz tajriba-sinov ishlari jarayonida bolalar orasida metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan ayrim usullardan foydalanishga harakat qildik. Bu jarayonda har bir bola erishgan bilim, ko‘nikma va malakalarning muayyan darajasi namoyon bo‘ladi.

Ta’limda metakognitiv metodlarni qo‘llash orqali yoshlarni ta’limga tayyorlashda bilish faolligi ko‘rsatkichi sifatida mo‘tadillik, ishtiyoq, o‘rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo‘lishi, nostandart o‘quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o‘quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o‘tish mumkin.

Ta’limda didaktik mashg‘ulotlarda metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo‘llash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari 2022- 2024 yillarda tashkil etilib, dastlabki tajriba-sinov materiallari tayyorlandi. Bu materiallarda quyidagilar ko‘zda tutildi:

1) Mualliflik texnologiyalari va metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantiruvchi metodlar yordamida bolalarning “Ilk qadam” Davlat dasturi asosidagi kompetentsiyalarini rivojlantirish, o‘zaro hamkorlik muhitida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tashkil etildi.

2) Bolalarni ta’limga tayyorlashda ularning qiziqishlari, mayllari o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlarini boshlashdan avval ta’lim pedagoglari bilan individual tarzda suhbatlar o‘tkazilib, ularni qiziqtirgan savollarga aniqlik kiritildi hamda tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishga doir ilmiy-amaliy maslahatlar berildi.

Ta’lim pedagoglari tajriba-sinov avvalida va sinovdan so‘ng amalga oshiriladigan nazorat shakl va metodlari bilan tanishtirildi va natijalarni jamlash va umumlashtirish bo‘yicha yakdil xulosaga kelindi.

Ta’lim pedagoglari uchun ishlab chiqilgan tavsiyalarda didaktik mashg‘ulotlarni tashkil etishga doir sharoitlar tavsif etildi:

Har bir mashg‘ulot uch bosqich – Da’vat – Anglash – Fikrlashga bo‘lib tashkil etish; mashg‘ulot jarayonida bolalarning aqliy mehnat qilishini ta’minlash; ularga individual va tabaqalashgan holatda yondashish; erkinligini, tashabbuskorligi, ulardagi fikrlarning xilma-xilligini hurmat qilish va qadrlash; o‘quv xonasini kerakli

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

didaktik vositalar bilan ta’minlash, o‘qitish metod, shakl va vositalarini to‘g‘ri tanlay olish, kutiladigan natijalarni oldindan belgilab qo‘yish kuzda tutildi.

Ta’limda metakognitiv metodlarni qo‘llash orqali olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar mamlakatimiz ta’lim tizimining rivojlanish strategiyasi hamda uning samaradorligini aniqlaydigan o‘qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirib, ta’lim sifati ko‘rsatkichlari tizimini aniqlab, amaliyotga joriy etish bo‘yicha pedagogik ilmiy tadqiqot ishlariga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatdi.
2. Tadqiqot muammosiga doir manbalar mazmunini tahlil qilish ta’limda bir yoqlama Dasturdan foydalanish bilan cheklanib qolinganligini ko‘rsatdi. Bizningcha, ta’limda metakognitiv metodlarni qo‘llash orqali yoshlarni ta’limga tayyorlash hamda natijalarni dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi bolalar yutuqlari bilan qiyosiy taqqoslash ta’lim muassasalari va tizimning samarali faoliyatini tashkil etishni kafolatlaydi.
3. Tadqiqot natijalari ta’limda metakognitiv metodlarni qo‘llash orqali yoshlarni ta’limga tayyorlashning printsipial yangi metodologiyasi sifatida kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan davlat Dasturlari, o‘quv-metodik majmualar, mulьtimediali ilovalarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ko‘rsatdi.
4. Ta’limda metakognitiv metodlarni qo‘llash orqali bolalarni ta’limga tayyorlash modelini takomillashtirish bir necha o‘zaro aloqador, pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan ma’lum darajada mustaqil tushunchalarning uzviy munosabatidan tashkil topganligi, ta’lim sifati, monitoring va modelь tushunchalarining ilmiy tavsiflari qiyoslanib, monitoring mexanizmi hamda texnologiyalarilari huquqiy, ijtimoiy, pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik jihatdan ilmiy asoslandi.
5. Mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan taraqqiy etishi hamda dunyoning rivojlangan davlatlari qatoridan o‘rin egallashining muhim sharti ta’limda metakognitiv metodlarni qo‘llash orqali yoshlarni ta’limga tayyorlash metodikasining takomillashtirilgan modelini amaliyotga joriy etishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmad o‘g‘li, A. Z. (2022). Today's Relevance of the Development of Information–Intellectual Skills Through the Teaching of Students on the Basis of Modern Approaches.Eurasian ScientificHerald,7, 165-169.2.

2. Absamatov, Z. A. (2019). Formation of algorithmic culture of students in the classroom of higher mathematics. Algebraic and Geometric Methods of Analysis.

3. Каршиев, Б. Б., & Абсаматов, З. А. У. (2020). Педагогическая деятельность какявление социально-педагогическое.Проблемы педагогики, (2 (47)),100.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

4. Каршиев, Б. Б., & Абсаматов, З. А. У. (2020). Формирование и совершенствование педагогических навыков в процессе обучения.Вестник науки и образования, (6-1 (84)), 79-84.5.

5. Uralovich, B. D., Normamatovich, R. B., & O'Gli, A. Z. A. (2021). Sonlardan ildiz chiqarish haqida.Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,1(4), 1428-1432.6.

6. Brown, A.L (1987). Knowing when, where and how to remember: A problem of metacognition. In R. Glaser (Ed) Advances in instructional psychology. Hillsdale , NJ: Erlboum, 390б.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ostonov Jasur Shopirjonovich
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri
Jasurostonov1989@mail.com

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

QO‘RIQLASH XIZMATI XODIMLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINING O‘ZIGA XOSLIGI

Maxmudova Zulfiya Mexmonovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti, Buxoro shahri

Annotatsiya:

KIRISH: Ushbu maqolada qo‘riqlash xizmati xodimlari ijtimoiy-psixologik va kommunikativ kompetentligi omillarining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash mexanizmlari ochib berilgan.

MAQSAD: Qo‘riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo‘llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiy dunyoqarashi, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, kasbiga sadoqat va yuqori mas’uliyat xislarini oshirish yuzasidan tadqiqot natijalari asosida tavsiya ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o‘rganish jarayonida bir nechta yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi.

XULOSA: O‘rganilgan empirik natijalar asosida qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta’sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko‘rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kalit so‘zlar: kompetentlik, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar

ХАРАКТЕРИСТИКА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СОТРУДНИКОВ СЛУЖБ БЕЗОПАСНОСТИ

Махмудова Зульфия Мехмоновна.
Доцент, Бухарский государственный университет, г. Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается исследование проявления и развития факторов социально-психологической и коммуникативной компетентности сотрудников служб безопасности и совершенствование ее специфических социально-психологических факторов, а также социально-психологических факторов и компонентов, развивающих социально-психологическую компетентность. раскрыты механизмы выявления коммуникативной компетентности работника.

ЦЕЛЬ: Совершенно новые задачи морального и духовного обеспечения всех сотрудников и военнослужащих, проходящих службу в системе службы безопасности, а также повышения общего кругозора, морального и интеллектуального потенциала сотрудников, привития им патриотизма, гордости, гордости, верности своей профессии и Он заключается в разработке рекомендаций по результатам исследования по повышению чувства высокой ответственности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В процессе изучения структуры компетентности и категорий компетентности можно выделить несколько направлений. Многие авторы оценивают функциональный подход как перспективный, а также считают, что компетентность проявляется в профессиональной деятельности и одновременно является ее основой. В данном случае под компетентностью понимают систему трудовых ресурсов, необходимых для создания эффективного действия в конкретных рамках процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: На основании изученных эмпирических результатов отмечено, что психологические факторы, влияющие на социально-психологическую компетентность сотрудников служб безопасности (в зависимости от стажа работы), могут быть различными. На основе выявления этих факторов будет проведен определенный уровень психологических анализов для устранения существующих проблем в повышении социально-психологической компетентности сотрудников служб безопасности и на основе результатов этого анализа будут определены следующие задачи оказания психологических услуг. им будет определено.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Ключевые слова: компетентность, социально-психологическая компетентность работника, профессиональная компетентность, компетентность, профессиональная деятельность, профессиональные знания, умения и компетенции, профессиональные психологические характеристики.

CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF SECURITY SERVICE PERSONNEL

Makhmudova Zulfiya Mekhmonovna
Associate Professor, Bukhara State University, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of socio-psychological and communicative competence of security service employees and the improvement of its specific socio-psychological factors, and the socio-psychological factors and components that develop the socio-psychological competence and communicative competence of the employee. detection mechanisms are disclosed.

THE GOAL: completely new tasks of moral and spiritual support of all employees and military personnel serving in the security service system, as well as raising the general outlook, moral and intellectual potential of employees, instilling in them patriotism, pride, pride, loyalty to their profession and It consists in developing a recommendation based on the results of the research on increasing the sense of high responsibility.

MATERIALS AND METHODS: In the process of studying the structure of competence and competence categories, several directions can be distinguished. Many authors evaluate the functional approach as promising, and they also believe that competence is manifested in professional activity, and at the same time, it is also its basis. In this case, competence is understood as a system of work resources necessary to create effective action within the specific framework of the process.

CONCLUSION: Based on the studied empirical results, it was observed that the psychological factors affecting the socio-psychological competence of security service employees (depending on the work experience) can be different. Based on the identification of these factors, a certain level of psychological analyzes will be conducted to eliminate the existing problems in increasing the social and psychological competence of security service personnel, and based on the results of this analysis, the next tasks of providing psychological services to them will be determined.

Key words: competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, competence, professional activity, professional knowledge, skills and competencies, professional psychological characteristics.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o‘rganish jarayonida bir nechta yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo‘lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo‘naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko‘nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya, A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko‘rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o‘qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya’ni ta’lim oluvchining ta’lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

Chunonchi, mehnat foliyatining barcha jihatlari uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtirok etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasi, ya’ni motiv, bilim, ko‘nikma va malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko‘rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo‘ladi.

A.V.Xutorskiyning o‘tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o‘ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo‘lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlikka qo‘yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta’kidlaydi.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko‘nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya’ni insonlar bilan o‘zaro ta’sir o‘tkazish malaka va ko‘nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo‘nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo‘lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to‘laqonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta’kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o‘ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg‘un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo‘luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladi, faoliyatda qanaqadir turg‘unlik bo‘lishi uni muvaffaqiyatga erishishida to‘siq bo‘lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo‘naltirilganlik, maqsadni qo‘ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o‘z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o‘ziga xos bo‘lgan me’yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish tajribasi, ya’ni ko‘nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulyatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o‘zaro ta’sir holatlariga bog‘liq holda namoyon bo‘lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo‘lish holatlarida o‘zini-o‘zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o‘ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekpertizasi jarayonida o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarni samarali qo‘llash sud psixolog xodimidan o‘zini-o‘zi idora qilish va o‘zini-o‘zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Pedagog A.A.Dunyushin shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llay olish qobiliyati ekanligini ta’kidlaydi. Ko‘rinib turibdiki, fikr muallifi quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

a) kompetentlik aniq bir faoliyat sub’ekti tavsifi sifatida baholanishi mumkin;

b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyat maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog‘liq;

c) kompetentlik hissiy-irodaviy sifatlar, shaxsning muloqotmandligi, intellektual salohiyati, shaxsning yo‘naltirilganligi kompetentlikka asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud psixolog xodimlarining kommunikativ kompetentligiga aloqador bo‘lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, sud psixolog xodimlari kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tushunish lozim.

A.V.Raysev tamonidan kompetentlik tushunchasining mohiyatida quyidagi bosqichlar keltirilgan: intellektual, amaliy, qadriyatli-mo‘ljalli va nutqli. Shundagina mutaxassis kompetentligi har doim faoliyat turiga bog‘liq bo‘lgan aniq holatda namoyon bo‘ladi.

L.G.Semushina asarlarida talqin qilishicha, malaka past, o‘rtacha va yuqori darajada bo‘lganligi tufayli mutaxassis tomonidan biror bir kasb yoki

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

mutaxassislikning egallaganlik darajasini beligab beradi, deb ta'kidlaydi. Olim bu yerda malakani kompetentlik tushunchasiga yaqinlashtirishga uringan.

N.S.Aulova olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentlikning quyidagi mezonlarini asos qilish kerakligini ko'rsatadi:

– shaxs refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o'z kasbiga mosligini baholash, refleksiv (o'z tushunchasi va hatti-harakatlarni anglash) harakatlarning shakllanganligi;

– asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, metodlari va yo'llarini egallash;

– bilish faollik darajasining o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo'llash ko'nikmasi;

– kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchning shakllanganligi darajasi;

– samarali kasbiy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;

– ularni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo'llarini topishga intilish;

– anglashning faollik darajasi.

Bizningcha, muallifning mazkur ta'rifida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e'tibor qaratadi.

Bugungi kunda jahonda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning quyidagi asosiy jihatlariga alohida ahamiyat beriladi:

a) ijtimoiy – o'ziga mas'uliyatni his etish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va unda faol ishtirok etish qobiliyati, turli etnik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning jamiyat talablari bilan mosligi;

b) kommunikativ – turli tillardagi yozma va og'zaki tarzda muloqot qila olish qobiliyatiga egalik;

c) ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;

d) kognitiv – doimiy ravishda ta'lim olish darajasini oshirishga intilish, o'zining imkoniyatini faollashtirish va amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyati;

e) madaniyatlararo kompetensiyalar;

f) mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;

j) maxsus – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o'z mehnati natijalarini baholash.

Yuqorida qayd etilgan ishlarda kompetentlik mezonlari umumilmiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va umumkasbiy bilimlar asosida talqin etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash kerakki, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni ijtimoiy-psixologik kompetentlik omili sifatida talqin qilish an'anasi ham mavjud.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Jumladan, psixologiya fanining fundamental asoslarini ochib bergan olimlardan E.F.Zeer va G.M.Romansevlarning metodologik xizmati shundaki, malaka insonning ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlariga qo‘yiladigan ijtimoiy va kasbiy malakaviy talablar majmuasi ekanligini isbotlab berishganligidadir.

Shunday qilib, malaka ham kompetentlik kabi asosiy va kasbiy bo‘lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko‘pincha oddiy malakalar deb nomlash ham mumkin. Ilmiy adabiyotlarda asosiy malakalar sifatida quyidagilar kiritiladi:

– shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunksional bilimi, ko‘nikmalari, individual xususiyalari;

– aniq kasblar guruhlari sohasidagi ishni bajarish uchun zarur bo‘ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko‘nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlari va sifatlari;

– turli jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va qobiliyatlar.

Qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kommunikativ kompetentlik bilan o‘zaro proporsionallikda takomillashtirishga qaratilgan psixotexnikalarni qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishilganligini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Qo‘riqlash xizmati xodimlari emotsional intellektining qiyosiy ko‘rsatkichlari tahlili (N.Xoll usuli bo‘yicha)

Omillar	sutkalik naryad asosidagi xodimlar				vaxta usulidagi naryad asosidagi xodimlar			
	Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba		Aniqlovchi tajriba		Nazorat tajriba	
	M1	S	M2	S	M1	S	M2	S
Emotsional bilimdonlik	9,02	2,13	13,68	1,99	10,26	2,01	15,38	1,38
O‘z emotsiyasini boshqarish	8,03	1,23	15,49	2,13	11,72	1,13	16,25	1,36
O‘zini-o‘zi rag‘batlantirish	9,03	1,41	15,73	1,53	11,84	1,33	15,80	1,51
Empatiya	9,12	1,52	15,54	1,94	11,02	2,01	16,46	1,18
O‘zga insonlarning kechinmalarini sezish	7,33	2,43	15,87	2,21	11,87	2,12	16,67	0,68

Izoh: M – o‘rtacha qiymat. S – standart xatolik

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, trening dasturi qo‘llanilgandan keyin sutkalik naryad asosidagi xodimlarning emotsional intellektining umumiy natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rtacha ko‘rsatkich emotsional bilimdonlik 4,66, o‘z emotsiyasini boshqarish 7,46, o‘zini-o‘zi rag‘batlantirish 6,70, empatiya 6,42, o‘zga insonlarning kechinmalarini sezish 8,54 ball doirasida o‘shishga erishilganligini ko‘rishimiz mumkin.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Vaxta usulidagi naryad asosidagi xodimlar emotsional intellektining umumiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilar ekanmiz, emotsional bilimdonlik 5,12, empatiya 5,44, o‘zga insonlarning kechinmalarini sezish 4,80, o‘z emotsiyasini boshqarish 4,53, o‘zini-o‘zi rag‘batlantirish 3,96 ball yuqorilaganligi faoliyat jarayonida hamkasblari va fuqarolar bilan muloqotda samarali natijaga erishish imkonini berishi bilan ahamiyat kasb etib, emotsional kechinma chegaralari, emotsional intellektning ikki tomoni, ya’ni o‘zining emotsiyalarini tushunish uchun intellektual boshqaruvga yoki aksincha kasbiy faoliyat jarayonida ijodiy impulslar va intuitsiyalarni ta’minlashda emotsiyaga zarurat borligini anglash, muloqot qilinayotgan shaxs emotsiyasining vazifalari to‘g‘risidagi bilimlarga, faoliyat jarayonida emotsional barqarorlik va beqarorlik, salbiy emotsional holatlar, xususan: affekt, stress, frustratsiya, depressiya va ulardan chiqish yo‘llarini izlash to‘g‘risidagi psixologik tomonlari va hayotiy tajribadan yetarli darajada boxabar ekanligidan dalolat beradi.

Trening mashg‘ulotlari o‘tkazilgandan so‘ng barcha kompetentlik omillari bo‘yicha o‘sish kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, uch yilgacha ish tajribasiga ega bo‘lgan xodimlarda sotsial-perseptiv kompetentlik omili 4,8, kommunikativ kompetentlik 5,8, kognitiv kompetentlik 5,1, individual psixologik kompetentlik esa 4,1 balga ko‘tarilganligini ko‘rishimiz mumkin. Uch yildan ortiq ish tajribasiga ega bo‘lgan xodimlarda ham ko‘rsatkichlarning yuqori darajasi kuzatildi: sotsial-perseptiv kompetentlik omili bo‘yicha 5,1, kommunikativ kompetentlik 4,8, kognitiv kompetentlik 4,2, individual psixologik kompetentlik esa 5,2 ball yuqoriladi. Sotsial-perseptiv kompetentlik omili bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan respondentlarda muloqot jarayonida ijtimoiy persepsiya mexanizmlari, ya’ni refleksiya, identifikatsiya, empatiya muvaffaqiyatli darajada ishlashidan dolalat beradi. Ular o‘z suhbatdoshlarini har qanday holatda ham tushunib, emotsional qo‘llab-quvvatlashlarini anglatadi. Xodimlar kasbiy faoliyatida sotsial-perseptiv kompetentlik kasbdoshlari, rahbariyat va fuqarolar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, kasbiy kompentligi yuqori bo‘lgan xodimlarda mazkur omilni yuqori darajada namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

2-jadval

Qo‘riqlash xizmati xodimlarida kasbiy kompetentlik omillarining namoyon etilishi va rivojlanganlik darajalari (IPS natijalari asosida)

№	Omillar	sutkalik naryad asosidagi xodimlar			vaxta usulidagi naryad asosidagi xodimlar		
		M1	M2	S	M1	M2	S
1	Sotsial-perseptiv kompetentlik	15,4	20,2	1,37	17,7	22,8	1,09
2	Kommunikativ kompetentlik	13,8	19,6	1,52	16,9	21,7	1,75
3	Kognitiv kompetentlik	16	21,1	1,23	18,6	22,8	1,05
4	Individual psixologik kompetentlik	16,8	20,9	2,02	18,4	23,6	1,02

Izoh: M – o‘rtacha qiymat. S – standart xatolik

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kommunikativ kompetentlik bo‘yicha yuqori natijalarning qayd etilishi, xodimlarda muloqotda so‘zning motivatsion funksiyasidan samarali foydalanish, ma’lumotlarni aniq, tizimli bayon qilish, nutqning ta’sirchanligini oshirish uchun paralingvistik ta’sir vositalarini qo‘llash ko‘nikmasining ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Xodimlardagi muloqot auditoriyasining rang-barangligi axborotni qabul qilish va uzatish jarayonida paralingvistik, ekstrolingvistik ta’sir mexanizmlaridan samarali foydalanishni talab etadi.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillaridan navbatdagisi kognitiv kompetentlikdir. Aslida kognitiv kompetentlikning yuqori darajada namoyon bo‘lishi xodimlarda kasbiy ma’lumotlarni to‘plash, mantiqiy operatsiyalar yordamida qayta ishlash, ijodiy tafakkur doirasida uning ahamiyatlilik darajasini baholash hamda tahlil qilish, kasbiy funksional vazifalarni bajarishda tezkor qaror qabul qilish hamda vaqtni rasional taqsimlash xususiyatining ustuvorligini anglatadi. Umuman olganda mazkur omil bo‘yicha aniqlangan holat kognitiv kompetentlik omilini namoyon bo‘lishida xodimlarda kasbiy faoliyat bilan bog‘liq vaziyatli to‘siqlarni yengib o‘tish ko‘nikmasining rivojlanganlik darajasini ijtimoiy ish tajribasiga bog‘liq ravishda namoyon bo‘lishi muhim ahamiyatga ega ekanligi kuzatilmoqda.

Autopsixologik kompetentlik omili bo‘yicha yuqori natijaga ega bo‘lgan xodimlarda o‘z hatti-harakatlarini to‘g‘ri boshqara olish, o‘z shaxsiy xususiyatlarini adekvat baholay olish, o‘zini-o‘zi tartibga solish qobiliyati yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Xodimlarning doimiy o‘z ustida ishlab, atrofdagilarning ayniqsa, fuqarolar hamda hamkasblarining ijtimoiy kutuvlariga o‘zlarini moslashtirib, o‘z-o‘zlarini nazorat qilishlari, o‘z-o‘zlarini kuzatishlari, tahlil qilishlari asosida o‘z-o‘zlarini anglashlari muhim kasbiy-professional xususiyatlaridan biri hisoblanadi Demak, o‘rganilgan empirik natijalar asosida qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta’sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo‘riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko‘rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O‘smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O‘.O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Maxmudova Zulfiya Mexmonovna
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri
azizbekyarasev@mail.ru
ORCID: 0000-0001-9437-9741

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI PEDAGOGIK IMIDJIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Saidova Ozoda Tohirovna
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Toshkent shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik imidjiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada psixolog olimlarining nazariy va amaliy tadqiqotlari, shuningdek, tahminiy tadqiqot natijalari asosida pedagogik imidjning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar muhokama qilinadi. O‘qituvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi, empatiya, kasbiy bilimlar, shaxsiy xususiyatlar, stressni boshqarish qobiliyati va o‘qitish uslubini moslashtirish kabi psixologik omillar uning pedagogik imidjini shakllantiradi. Psixologiya sohasidagi olimlarning tadqiqotlari va tajribaviy natijalar o‘qituvchining professional imidjini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Maqola o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlarini yaxshilash orqali pedagogik imidjini mustahkamlash imkoniyatlarini o‘rganadi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan tavsiyalarni beradi.

MAQSAD: Bo‘lajak o‘qituvchilar imidjiga ta’sir qiluvchi va rivojlanishni shakllantiruvchi omillarni aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: O‘qituvchining o‘qitish uslubini o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish uning pedagogik imidjini shakllantirishda hal qiluvchi omildir. O‘qituvchining pedagogik texnikalari va metodikasi o‘quvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Vygotskiy va Kolbning nazariyalariga asoslanib, o‘qituvchining moslashuvchan pedagogik yondashuvi o‘quvchilarni samarali tarzda rivojlantirishga yordam beradi va uning imidjini mustahkamlaydi.

XULOSA: Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning psixologik va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish ularning pedagogik imidjini mustahkamlashga yordam beradi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. O‘qituvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, empatiyani rivojlantirish, kasbiy bilimlarini yanada mustahkamlash va stressni boshqarish qobiliyatini yaxshilash ta’limda ijobiy natijalarga olib keladi. Bu esa o‘qituvchilarning o‘quvchilarga ta’sirini kuchaytiradi va pedagogik imidjini yaxshilaydi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogik imidj, psixologik omillar, o‘ziga bo‘lgan ishonch, empatiya, kasbiy bilim, shaxsiy xususiyatlar, stressni boshqarish, o‘qitish uslubi, psixologiya tadqiqotlari, ta’lim jarayoni, pedagogik samaradorlik, psixologik motivatsiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ОБРАЗ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Саидова Озода Тохикровна
Научный сотрудник Ташкентского государственного педагогического университета, город Ташкент

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Статья посвящена анализу психологических факторов, влияющих на педагогический облик будущих учителей. В статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование педагогического имиджа на основе теоретических и практических исследований психологов, а также результатов проспективных исследований. Психологические факторы, такие как уверенность учителя в себе, эмпатия, профессиональные знания, личностные характеристики, способность справляться со стрессом и адаптивность стиля преподавания, формируют его педагогический имидж. Исследования и экспериментальные результаты ученых в области психологии показывают, что профессиональный имидж учителя играет важную роль в его формировании. В статье исследуются возможности укрепления педагогического имиджа учителя за счет совершенствования его личностных и профессиональных качеств, а также даются рекомендации, направленные на повышение эффективности образовательного процесса.

ЦЕЛЬ: Выявить факторы, влияющие на самооценку будущих учителей и формирующие их развитие.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Адаптация стиля преподавания учителя к потребностям учеников является важнейшим фактором в формировании его педагогического имиджа. Педагогические приемы и методики учителя имеют важное значение для обеспечения успешного развития учащихся. Гибкий педагогический подход учителя, основанный на теориях Выготского и Колба, способствует эффективному развитию учеников и укреплению его имиджа.

ВЫВОД: Результаты исследования показывают, что развитие психологических и личностных качеств педагогов способствует укреплению их педагогического имиджа и повышению эффективности образовательного процесса. Повышение уверенности учителей в себе, развитие эмпатии, дальнейшее укрепление их профессиональных знаний и улучшение навыков управления стрессом приведут к положительным результатам в образовании. Это усиливает влияние учителя на учеников и повышает его педагогический имидж.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Ключевые слова: будущие учителя, педагогический имидж, психологические факторы, уверенность в себе, эмпатия, профессиональные знания, личностные характеристики, стрессоустойчивость, стиль преподавания, психологическое исследование, образовательный процесс, педагогическая эффективность, психологическая мотивация.

PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE PEDAGOGICAL IMAGE OF FUTURE TEACHERS

Saidova Ozoda Tohikrovna
Researcher, Tashkent State Pedagogical University, Tashkent city

Annotation.

INTRODUCTION: This article is devoted to the analysis of psychological factors influencing the pedagogical image of future teachers. The article discusses the factors influencing the formation of the pedagogical image based on the theoretical and practical research of psychologists, as well as the results of prospective research. Psychological factors such as a teacher's self-confidence, empathy, professional knowledge, personal characteristics, ability to manage stress, and adaptation of teaching methods form his pedagogical image. Research and experimental results of scientists in the field of psychology show that they play an important role in the development of a teacher's professional image. The article examines the possibilities of strengthening the pedagogical image by improving the personal and professional characteristics of the teacher and provides recommendations aimed at increasing the effectiveness of the educational process.

GOAL: To identify factors influencing the image of future teachers and shaping their development.

MATERIALS AND METHODS: Adapting a teacher's teaching style to the needs of students is a decisive factor in forming his pedagogical image. The teacher's pedagogical techniques and methodology are important in ensuring the successful development of students. Based on the theories of Vygotsky and Kolb, a teacher's flexible pedagogical approach helps to effectively develop students and strengthens his image.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Для определения механизма преступного умысла необходимо знание общих законов преступности, а также проведение тщательного изучения личности преступника. Этому во многом способствует знакомство с социальными группами, к которым принадлежит данный человек. Необходимо изучить структуру взаимоотношений, сложившихся среди близких данного человека, знать психологию социальных групп, членом которых является данный человек, определить взаимоотношения личности и общества, а также взаимоотношения личности и общества. общественное сознание. Социальный облик любого человека во многом зависит от содержания его микрокосма, а психологическая структура этого микрокосма служит мощным катализатором индивидуального поведения. Во многих случаях характер поведения зависит от содержания моральных норм в окружающей среде.

ВЫВОД: У насильственных преступников, как правило, наблюдается ряд типичных расстройств в сферах ценностной мотивации и эмоционального контроля. Реальность отражается в условиях, когда их чувствительность к социальным табу резко снизилась.

В основе каждого насильственного преступления лежит совокупность ряда причин и условий, индивидуально-биологических, духовных и социально-психологических факторов.

Ключевые слова: преступление, юридическая психология, античность, личность, расстройство, суд, процесс, расследование, судебная психология,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

правосудие, эгоцентризм, насилие, алкоголь, преступный умысел, конфликтная ситуация.

PSYCHOLOGY OF CATEGORIES OF PERSONS WHO COMMIT VARIOUS CRIMES

Tairov Shavkat Mukhamadovich
Department of penitentiary administration,
6th regional district, detective prison No. 4,
Master's student of the Asian international university

Annatation.

INTRODUCTION: The article discusses the rapid development of the field of legal psychology in society today, its history, current level, the issue of crime and delinquency. The state of legal psychology in ancient times, the Middle Ages and the present process, the scientific opinions of researchers who conducted research in this area are covered in detail. Also, the socio-psychological reasons for the commission of crime, especially violent crimes, are highlighted.

GOAL: To scientifically study and analyze the characteristics of individuals prone to committing crimes.

MATERIALS AND METHODS: In order to determine the mechanism of criminal intent, it is necessary to know the general laws of crime, as well as to study the personality of the criminal in depth. This is largely facilitated by familiarity with the social groups to which this individual belongs. It is necessary to study the structure of the relationships that prevail among this person's relatives, to know the psychology of the social groups of which this person is a member, to clarify the relationship between the individual and society, and the relationship between individual and social consciousness. The social image of any person is largely dependent on the content of his microcosm, and the psychological structure of this microcosm serves as a powerful catalyst for individual behavior. In many cases, the nature of behavior depends on the content of moral norms in the environment.

CONCLUSION: Violent criminals have a number of typical disorders in the areas of value-motivation and mental control. Reality is reflected in conditions where the impact of social prohibitions is sharply reduced.

At the heart of each violent crime is a set of causes and conditions, the connection of individual-biological, mental and socio-psychological factors.

Keywords: crime, legal psychology, antiquity, personality, disorder, court, trial, investigation, forensic psychology, justice, egocentrism, violence, alcohol, criminal purpose, conflict situation.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Odil sudlovni o‘rnatishda psixologik bilimlardan foydalanish qadim zamonlardan boshlangan. Antik va o‘rta asrlarda (mil.av. III-asr va V-XVII-asr) jinoiy javobgarlikka tortish uchun empirik tajribalardan foydalanilgan.

Rossiyada jinoyatchilikda, jinoyatchining psixologiyasiga e’tibor berish kerakligi to‘g‘risida I.T.Posashkov faol fikr yuritadi. Uning nuqtai nazari bo‘yicha jinoyatchilarning boshqa odamlarga nisbatan salbiy ta’sirini yo‘qotish maqsadida ularning xulq-atvorini tavsiflash kerak bo‘ladi. V.N.Tatishev fikriga ko‘ra “qonunlarni yoshlikdan bilish lozim, ularni bilmaslik buzilishga olib keladi”, degan nazariya ilgari suriladi. Knyaz M.M.Sherbatovning fikriga ko‘ra qonun chiqarishda xalqning psixologiyasi, insonlarning yuragini bilish lozimdir. U birinchilardan bo‘lib jinoyatchini muddatdan avval chiqarib yuborish masalasini ko‘targan.

XIX asrda I. Gofbauerning “Sud hayotida psixologiyani qo‘llash” va I.Fridrixning “Sud psixologiyasiga oid muntazam qo‘llanma” deb nomlangan ilmiy izlanishlarida psixologik nuqtai nazaridan shaxs, uni ayblash tushunchasi, sud jarayoni, psixologiyasi kabi savollar keng yoritib berilgan.

XX asrda I.S.Barshevning “Jinoiy huquqshunoslik fani”, N.Ya.Yanovich-Yanevskiyning “Jinoiy adliya to‘g‘risida fikrlar” kabi ishlarida psixologiya bilimlariga katta e’tibor qaratilgan. I.S.Barshevning fikri bo‘yicha “psixologiyani bilmaslik bu tirik insonlarni emas, balki o‘lganlarni sud qilish demakdir”.

Zo‘ravonlik jinoyatlarini ko‘pchilik hollarda madaniy-bilim darajasi past bo‘lgan shaxslar sodir etadi. Zo‘ravon jinoyatchi shaxs (*jismoniy kuch ishlatib jinoyat sodir etishga moyil shaxs*) odatda tarbiyaning asosiy sohalari – oila, o‘quv yurti, ishlab chiqarish jamoasidagi kamchilik va nuqsonlarni aks ettiruvchi past darajadagi ijtimoiylashuv bilan ajralib turadi. Ushbu shaxsning motivasion sohasiga egosentrizm (xudbinlik), jamiyat vakillarining bir qismi bilan barqaror nizolashuv va o‘zini oqlashga bo‘lgan intilishning mavjudligidir. Bu erda, aksariyat hollarda, alkogol jinoiy maqsadni faollashtiruvchi omil hisoblanadi.

Jinoiy qasd hosil bo‘lish mexanizmini aniqlashda jinoyatchilikning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bir qatorda jinoyatchining shaxsini chuqur o‘rganish ham zarur. Bunga ko‘p jihatdan ushbu individ kiradigan ijtimoiy guruhlar bilan tanishish yordam beradi. Ushbu shaxsning yaqinlari o‘rtasida hukmronlik qilayotgan o‘zaro munosabatlar tarkibini o‘rganish, bu shaxs a’zo bo‘lgan ijtimoiy guruhlar psixologiyasini bilish, shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi aloqani, individual va ijtimoiy ong aloqasini aniqlash zarur. Har qanday insonning ijtimoiy qiyofasi ko‘p jihatdan uning mikro olami mazmuni bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu mikro olamning psixologik tuzilishi individual xulq uchun kuchli katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Juda ko‘p hollarda xulqning xususiyati atrof-muhitdagi axloqiy me’yorlarning mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

Zo‘ravonlikka asoslangan jinoyatlarning sodir etilishida ijtimoiy muhit bilan normal o‘zaro aloqalarning buzilishi, kuchli nizoli vaziyat sabab bo‘ladi. Ko‘pincha nizoli vaziyatning «yuqishi» guruhiy bezorilik harakatlari va katta shaxslar guruhlarining ommaviy tartibsizliklarida ishtirok etish

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

jarayonida yuz beradi. Nizolarning bunday turi beqaror psixikaga ega bo‘lgan, huquqiy ongi past, umumiy madaniyat darajasi sust, oson qo‘zg‘aluvchan, olomondagi shaxslarning ta’siriga tez beriluvchan shaxslarga xosdir. Bir insonning bezorilik harakatlari boshqa shaxslar uchun emoцional signal yoki taqlid uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu sababli zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslarning asosiy xususiyati – ijtimoiy qadriyatlarining nuqsonli ekanligi, hissiy to‘mtoqlik, g‘ayriixtiyoriy tajovuzkorlikda namoyon bo‘ladi. Qotillikda, badanga shikast yetkazishda, qiynash, nomusga tegish, bezorilik harakatlari sodir etishda aybdor shaxslar nihoyatda ijtimoiylashmaganligi, g‘ayriijtimoiy xulqiy ko‘nikmalarining shakllanganligi bilan ajralib turadilar. Ularning xatti-harakatlariga ashaddiy xudbinlik (*egosentrizm*), qo‘qqisdan yuzaga keladigan istaklarni darhol qondirishga intilish va surbetlik xosdir. Ular zo‘rlikni nizolarni hal etishning yagona vositasi deb biladilar. Ularga psixologik himoya vositalaridan keng miqyosda foydalanish, ya’ni o‘zlarining g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarini oqlash, aybni jabrlanuvchiga va tashqi holatlarga to‘nkash xosdir.

Ashaddiy zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar bir qator shaxsiy-tipologik, psixologik xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Bular:

- ✓ atrofdagi shaxslarni doimo o‘ziga dushman sifatida qabul qilish;
- ✓ eng kichik shaxsiy muvaffaqiyatsizliklardan haddan tashqari ta’sirlanish, ularni ijtimoiy jihatdan mos (adekvat) baholashga qobiliyatsizlik;
- ✓ autiklik (jamiyatdan begonalashganlik);
- ✓ hissiy jihatdan nihoyatda beqarorlik, patologik darajadagi jizzakilik, qasoskorlik, ruhiy notayinlik, kayfiyatning tez o‘zgarishi;
- ✓ da’vogarlik darajasining nihoyatda yuqoriligi;
- ✓ ekstremal vaziyatlarda bo‘lishga moyillik, ularni faol yuzaga keltirish;
- ✓ o‘zini ko‘rsatishga bo‘lgan moyillik;
- ✓ o‘zlariga xos hissiy nuqsonlarni doimo yashirishga intilish va hokazo.

Ushbu toifadagi jinoyatchilarning salbiy xislatlari ijtimoiy nazorat etarli bo‘lmagan, nihoyatda salbiy mikromuhit sharoitida shakllanadi. Ushbu xulq shakllanishining muhim omillariga quyidagilar kiradi:

– bolalikdagi emosional zo‘riqish;

– oila va ijtimoiy foydali guruhlardan ajralish.

Shu nuqtai nazardan zo‘ravonlikka asoslangan jinoyatlarda ko‘pincha shafqatsiz tajovuzkorlik xususiyati namoyon bo‘ladi, og‘ir jismoniy va ruhiy shikastlar yetkaziladi. Tajovuzkor xulqning bu tipi shaxsning chuqur buzilganidan, shaxsda tajovuzkor xatti-harakatga va odamlarga zarar yetkazishga bo‘lgan moyillikning shakllanganidan, shaxsning o‘zini nazorat qilish qobiliyati nihoyatda past darajada ekanidan dalolat beradi.

Ushbu shaxslarning xulqiga quyidagi xususiyatlar xosdir:

- o‘zini tajovuzkor intilishdan tiya olmasligi;

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

- nizoning qay yo‘nalishda rivojlanishi va tajovuzkor harakatlarining oqibatlarini ko‘ra olmaslik;
- nizoli vaziyatdan chiqish usullarini bilmasligi.

Biroq, voyaga yetmaganlar sodir etadigan zo‘ravonlik jinoyatlarining aksariyati g‘ayriixtiyoriy tajovuzkorlik, jinoiylashgan guruh sharoitida ruhiy ta’sirga beriluvchanlik bilan bog‘liqdir.

G‘arazli zo‘ravonlik jinoyatlarida tajovuzkorlikdan ko‘pincha faqat g‘arazli maqsadga erishish vositasi sifatida foydalaniladi.

Zo‘ravonlik jinoyatlarida esa birinchi o‘ringa adovatli tajovuzkorlik chiqadi – tajovuz, birovga ziyon yetkazish birinchi maqsadga aylanadi. Zo‘ravonlikning davomiyligi va shafqatsizligi bu o‘rinda jinoiy maqsad – jinoyat qurbonini tahqirlash, unga rashk, qasos, o‘zini ko‘rsatish maqsadida og‘ir azob berish kabilarga bog‘liq bo‘ladi.

Guruh bo‘lib zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etish ko‘pincha guruh, guruhiy an’analar va ruhiy ta’sirlar natijasida sodir etiladi.

Zo‘ravon jinoyatchining barqaror *ashaddiy toifasi* doimiy tajovuzkorlik yo‘nalishi, qo‘pol kuch ishlatish stereotipining shakllangani bilan ajralib turadi. Uning uchun tashqi muhitda doimo bahona topiladi. Zo‘ravon jinoyatchilarning ashaddiy toifalari uchun tajovuzkorlik – o‘zini ko‘rsatishida ustunlik qiluvchi usul, qilmishning shafqatsizligi esa yagona maqsad. Xulqning bu tipi jinoiylashgan mikromuhitda barqaror o‘z e’tirofini topadi. Zo‘ravonlikka asoslangan jinoyat qurbonlarining g‘alamis xulqi viktim xulq deb ataladi (lotincha *viktima* – qurbon).

Viktimlik jinoyat qurbonining jinsi, yoshi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei bilan bog‘liq umumiy hamda shaxsning individual psixologik xususiyatlari – ishonuvchanligi, bilimsizligi, irodasining sustligi, jinoyatchiga ruhan tobeligi, ekssentrikligi, tavakkalga moyilligi, shaxsiy janjalkashligi bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus turlarga bo‘linishi mumkin.

Bezori zo‘ravonlar toifasida jismoniy kuch ishlatib, bezorilik sodir etishga moyil, barqaror salbiy odatlari bo‘lgan, jamoat tartibini muntazam buzadigan yoshlar ustunlik qiladi. Odatda bu shaxslar axloq va madaniyatga zid tarzda vaqt o‘tkazish, ruhiy kayfiyatini yuqtirish hamda g‘ayriijtimoiy misollarga taqlid qilish sharoitida jinoyat sodir etadilar.

Ularga xos umumiy ruhiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: beodoblik, nihoyatda tajovuzkorlik, jizzakilik, mas’uliyatsizlik, zo‘ravonlik harakatlari jazosiz qolishiga ishonish, yuqori darajadagi da’vogarlik, o‘z harakatlarini oqlash. Barcha zo‘ravonlik-bezorilik jinoyatlariga umumiy psixologik va axloqiy asos boshqa odamlar hayoti, sog‘lig‘i va qadr-qimmatining qadrsizlanishi xos.

Ayollarning jinoiy zo‘ravonlik xatti-harakatlari o‘zining ba’zi psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ayollarning zo‘ravonlikka asoslangan jinoyatchiligi hajmiga ko‘ra erkaklarnikidan ancha kam. Ayollar xulqi voqelikning ayrim hodisalarini keskinroq qabul qilishi, ularga ko‘proq hissiyot bilan javob berishi,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

shaxslararo munosabatlarning ayrim holatlariga kattaroq ahamiyat berishi bilan ajralib turadi.

Ayollar keskin nizoli vaziyatlarda ruhiy shikastlanishga koʻproq moyil boʻladilar, ular oiladagi kelishmovchilik va nizolarni keskinroq his qiladilar. Ular xavotirga koʻproq tushib tahdid solayotgan xavfni yuqori baholashga moyil boʻladilar. Yuqori darajadagi hissiylik (sensitivlik), oilaviy ishlarning koʻpligi ularda yuqori darajadagi ruhiy zoʻriqishning barqaror fonini hosil qiladi.

Ayollar orasida ruhiy anomaliyalar darajasi yuqoriroq. Aksariyat jinoyatchi ayollar tez ta'sirlanishlari, ijtimoiy oʻzaro munosabat nuqsonlari, chiqisha olmaslik, asabiylik jihatlari bilan ajralib turadilar. Ular tajovuzkor harakatlarida koʻpincha tasodifan qoʻl ostida boʻlib qolgan narsalardan foydalanadilar.

Biroq, ayollar qasddan qilinadigan ogʻir jinoyatlarini odatda puxta oʻylab, niqoblashga harakat qiladilar. Shaxsga qarshi ogʻir jinoyatlarni koʻpincha xatti-harakatlari erkaklarnikiga oʻxshash ayollar sodir etadilar.

Zoʻravonlik jinoyatlariga jinsiy jinoyatlar ham kiradi. Bunday jinoyatlarda ustunlik qiluvchi ruhiy xislat jinsiy tajovuzkorlik – jinoyat qurboniga jinsiy zoʻrlik va jismoniy zarar yetkazish, koʻp hollarda hayotdan mahrum qilishdir. Bu shaxsda psixik nuqsonlar borligidan dalolat beradi.

Mazkur normadan ogʻishlar jinsiy jinoyatchilikning shart-sharoiti hisoblanadi, ammo uning sababi emas. Bunday shaxslarning aksariyati qonundan chetga chiqmaslikka harakat qiladilar.

Jinsiy jinoyat – nomusga tegish, ayolni jinsiy aloqaga majburlash, jinsiy yetuklik yoshiga yetmaganlar bilan munosabatga kirishishdir (JKning 118, 121, 128-moddalari).

Eng xavfli jinsiy jinoyat – nomusga tegish – jismoniy kuch, tahdid yoki jabrlanuvchining chorasiz ahvolidan foydalanib sodir etishdir. Bunday jinoyat uchun yuridik javobgarlik 14 yoshdan boshlanadi. Ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi ayolning jinsiy erkinligini qoʻpol ravishda mensimaslik, jinoyatchi harakatlarining zoʻravonlik xususiyatiga egaligi, jabrlanuvchiga ma'naviy va jismoniy zarar yetkazilishi, koʻp hollarda ruhiy va jismoniy sogʻligʻining buzilishidan iborat.

Diniy nuqtai nazardan ham ushbu holat qattiq qoralanishini koʻrishimiz mumkin. Alloh taolo oʻzining kitobida shunday deydi: **«Insonlarga zulm qiladigan va yerda nohaq zoʻravonlik – kibr-u havo qiladigan kimsalarning–ana oʻshalarning jazosi alamli azobdir»** *(Shoʻro surasi, 42-oyat).* Ya'ni, insonlarga zulm qiladigan tajovuzkorlar, odamlarning jonlari-yu, mollariga zugʻum oʻtkazadigan zoʻravonlarning jazosi alamli azobdir.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Shunday qilib, zo‘ravon jinoyatchilar qadriyatli-motivasion va ruhiy boshqaruv sohasida bir qator tipik buzilishlarga ega bo‘ladilar. Voqelikni ular ijtimoiy taqiqlarga ta’sirchanlik keskin pasaygan sharoitda aks ettiradilar.

Har bir zo‘ravonlik jinoyatining asosida bir qator sabab va shart-sharoitlar, individual-biologik, ruhiy va ijtimoiy-psixologik omillarning ulanishi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Z.S.Elov. YURIDIK PSIXOLOGIYA. Darslik. B-2023. 238-b
2. З.Элов. Девиант хулқ-атворли ўсмирлар орасида суицидал аҳлоқ тушунчаси ва илмий таҳлиллар. Педагогик ва психологик тадқиқотлар. 2023 й. №1 150-157
3. Z.Elov. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishning ijtimoiy psixologik sabablari.
4. З.Элов. Девиант хулқ-атворли ўсмирлар томонидан содир этилаётган ноқонуний хатти-ҳаракатларнинг психологик сабаблари. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023/№1 289-297
5. Z.Elov. O‘smirlarda suitsidial holatlarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-psixologik omillar. 2024. PEDAGOG 7 (5), 31-37
6. Elov Z.S. Sud psixologik ekspertizasi tarixi rivojlanish jarayoni bosqichlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 306-313
7. Z.Elov. Социально-психологические причины формирования девиантного поведения у подростков. Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2024
8. Z.S.Elov. Zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024
9. Элов Зиёдулло, Я. САМИНЖОНОВ. Ўсмирлар орасида ўз жонига қасд қилиш ҳолати психологик муаммо сифатида. 2024. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (2), 69-78
10. Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o‘rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to‘plami. 2023
11. Z.Elov. Shaxsda fobiya holati va uning diagnostikasi. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (11), 66-74
12. Z.Elov. Suitsidial xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar. 2023. Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1 (10), 11-22
13. Z.S.Elov. Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o‘rganilishi: tahlillar va nazariyalar. 2023. Science and Education 4 (10), 326-342
14. Z.Tuymuradova., Z.Elov. O‘z joniga qasd qilish masalasining o‘rganilishi va ilmiy tahlillar. ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G‘OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR rjyferensiya to‘plami. 2025. 187-193

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

15. Z.S.Elov. O‘z joniga qasd qilish holati o‘smirlar orasida psixologik muammo sifatida. IQRO JURNALI 1 (2), 134-142. 2025

16. Z.S.Elov. Sudga oid psixologik ekspertizasining rivojlanish jarayoni va tarixi. OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI. №1 (2024/6), 112-119

17. Z.S.Elov. O‘smirlik davrida shaxs xulq–atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta’siri. PSIXOLOGIYA ILMIY JURNAL 1 (1, 2022), 27-29

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Tairov Shavkat Muxamadovich
IIV JIED, 6-mintaqaviy hudud,
4-son tergov hisbxonasi kata psixologi,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

O‘G‘IL BOLALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Qo‘ldoshev Shahzod Navro‘zovich
Osiyo xalqaro universiteti magistri, Buxoro shahri

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqola o‘g‘il bolalarning oilaviy hayotida diniy bilimlarning ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda, diniy ta’limning oiladagi tarbiya, axloqiy qadriyatlar va oila a’zolarining bir-biriga bo‘lgan munosabatlaridagi o‘rni tahlil qilinadi. O‘g‘il bolalarga diniy bilimlarni berishning psixologik va ijtimoiy jihatlari, shuningdek, ularning oila va jamiyatdagi roli bilan bog‘liq ta’sirlari aniqlanadi. Maqola, diniy ta’limning bolalar tarbiyasiga qo‘shgan hissasini va bu jarayonning oilaviy qadriyatlar shakllanishidagi muhimligini ko‘rsatadi. O‘g‘il bolalarni diniy bilimlarning tasir xususiyatlarini oilaviy hayotga tayyorlash – bu jamiyatda muvaffaqiyatli va mas’uliyatli insonlar bo‘lib yetishish uchun muhim bir jarayondir. Oilaviy hayotda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, mas’uliyat va jamiyatga xizmat qilish kabi qadriyatlarni o‘rganish o‘g‘il bolalar uchun juda zarur. Shunday qilib, oilaviy hayotga tayyorlash faqat amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish bilan cheklanmaydi, balki bolalarni ma’naviy va axloqiy jihatdan ham shakllantirishni talab qiladi. Bu yerda diniy ta’lim muhim rol o‘ynaydi.

MAQSAD: Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda diniy bilimlarning ahamiyatini tushuntirishdir. Diniy ta’lim nafaqat o‘g‘il bolalarning axloqiy va ma’naviy jihatdan sog‘lom bo‘lib yetishishiga yordam beradi, balki ularni oilaviy hayotda o‘z o‘rnini topishga va mas’uliyatli bo‘lishga tayyorlaydi.

MATERIALLAR VA METODLAR: O‘g‘il bolalar uchun diniy ta’limni o‘rganishda diniy kitoblar, Qur’on, Hadislar, Islomiy axloqiy adabiyotlar, shuningdek boshqa dinlar bo‘yicha diniy manbalar (Masalan, Injil va Tavrot)dan foydalanildi. Ushbu materiallar o‘g‘il bolalarga oilaviy hayotda qanday axloqiy qadriyatlar, muomala va mas’uliyatni o‘rgatish haqida ma’lumotlar taqdim etadi. O‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda diniy bilimlarning ta’sirini o‘rganish uchun ilmiy tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Ushbu metod o‘g‘il bolalarning diniy bilimlarga bo‘lgan munosabati, oilaviy tarbiyadagi o‘zgarishlar va ularning hayotiga qanday ta’sir qilishi haqidagi natijalarni o‘rganishga imkon berdi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

XULOSA: O‘g‘il bolalar oilaviy hayotga tayyorlanishda diniy bilimlarning roli beqiyosdir. Maqolada ko‘rsatilgan metodlar va materiallar orqali diniy ta’limning o‘g‘il bolalarni mas’uliyatli va axloqiy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib yetishishidagi ahamiyati aniqlandi. Shuningdek, diniy ta’lim bolalarga oila a’zolariga hurmat, mas’uliyat va bir-birini tushunishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, diniy bilimlar o‘g‘il bolalar uchun nafaqat axloqiy tarbiyani, balki barqaror va baxtli oilaviy hayotni shakllantirishga ham yordam beradi.

Kalit so‘zlar: O‘g‘il bolalar, oilaviy hayot, diniy bilimlar ,tarbiyaviy ta’sir, axloqiy qadriyatlar, mas’uliyat, jamiyat, pedagogika, psixologiya, islomiy ta’lim, Qur’on, hadislar, oilaviy munosabatlar, tarbiyviy metodlar, o‘g‘il bolalarni tarbiyalash, Sotsiologik so‘rovnoma, intervyu, kuzatish, shaxsiy rivojlanish, diniy ta’limning roli, baxtli oila, ma’naviy qadriyatlar, Jamiyatdagi mas’uliyat, tarbiyaviy manbalar, tadqiqot metodlari, mas’uliyatli fuqarolar, pedagogik yondashuv, tarixiy manbalar

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПОДГОТОВКИ МАЛЬЧИКОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Кулдошев Шахзод Наврузович
Магистр Азиатский международный университет, город Бухара

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Целью данной статьи является изучение влияния религиозных знаний на семейную жизнь мальчиков. В исследовании анализируется роль религиозного образования в семейном воспитании, нравственных ценностях и отношениях между членами семьи. Рассматриваются психологические и социальные аспекты передачи религиозных знаний мальчикам, а также их влияние на роль в семье и обществе. В статье показан вклад религиозного образования в воспитание детей и значение этого процесса в формировании семейных ценностей. Подготовка мальчиков к семейной жизни с помощью эффективных качеств религиозных знаний является важным процессом для того, чтобы они выросли успешными и ответственными личностями в обществе. Мальчикам необходимо прививать такие ценности, как взаимное уважение, доброта, ответственность и служение обществу в семейной жизни. Таким образом, подготовка к семейной жизни не ограничивается обучением практическим навыкам, но требует и духовно-нравственного формирования детей. Религиозное образование играет здесь важную роль.

ЦЕЛЬ: Основная цель данной статьи — объяснить важность религиозных знаний в подготовке мальчиков к семейной жизни. Религиозное воспитание не только помогает мальчикам расти нравственно и духовно здоровыми, но и готовит их к поиску своего места в семейной жизни и ответственности.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: При изучении религиозного образования мальчиков использовались религиозные книги, Коран, хадисы, исламская

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

нравственная литература, а также религиозные источники других религий (например, Библия и Тора). В этих материалах содержится информация о том, как воспитывать у мальчиков моральные ценности, поведение и ответственность в семейной жизни. Для изучения влияния религиозных знаний на подготовку мальчиков к семейной жизни использовались методы научного исследования. Данный метод позволил нам изучить результаты отношения мальчиков к религиозным знаниям, изменения в семейном воспитании и то, как это влияет на их жизнь.

ВЫВОД: Роль религиозных знаний в подготовке мальчиков к семейной жизни неоценима. Представленные в статье методы и материалы раскрывают важность религиозного образования в воспитании мальчиков как ответственных и нравственно зрелых личностей. Религиозное образование также помогает детям развивать уважение к членам семьи, ответственность и понимание друг друга. Результаты исследования показывают, что религиозные знания не только помогают мальчикам развивать нравственные ценности, но и помогают им построить стабильную и счастливую семейную жизнь.

Ключевые слова: Мальчики, семейная жизнь, религиозные знания, воспитательное влияние, моральные ценности, ответственность, общество, педагогика, психология, исламское образование, Коран, хадисы, семейные отношения, воспитательные методы, воспитание мальчиков, социологический опрос, интервью, наблюдение, личностное развитие, роль религиозного образования, счастливая семья, духовные ценности, ответственность в обществе, образовательные источники, методы исследования, ответственность ответственных граждан, педагогический подход, исторические источники

SOCIAL PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF PREPARING BOYS FOR FAMILY LIFE

Kuldoshev Shahzod Navrozovich
Master of science, Asian international university, Bukhara city

Annotation.

INTRODUCTION: This article aims to study the impact of religious knowledge on the family life of boys. The study analyzes the role of religious education in family upbringing, moral values, and relationships between family members. The psychological and social aspects of imparting religious knowledge to boys, as well as its effects on their role in the family and society, are identified. The article shows the contribution of religious education to the upbringing of children and the importance of this process in the formation of family values. Preparing boys for family life with the influence of religious knowledge is an important process for them to grow up to be successful and responsible people in society. Learning values such as mutual respect, kindness, responsibility, and service to society in family life is very necessary for boys. Thus, preparation for family life is not limited to teaching practical skills, but

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

also requires the spiritual and moral formation of children. Religious education plays an important role here.

GOAL: The main purpose of this article is to explain the importance of religious knowledge in preparing boys for family life. Religious education not only helps boys grow up morally and spiritually healthy, but also prepares them to find their place in family life and be responsible.

MATERIALS AND METHODS: Religious books, the Quran, Hadiths, Islamic moral literature, as well as religious sources of other religions (for example, the Bible and the Torah) were used in the study of religious education for boys. These materials provide information on what moral values, behavior and responsibility should be taught to boys in family life. Scientific research methods were used to study the impact of religious knowledge on preparing boys for family life. This method allowed us to study the results of boys' attitudes towards religious knowledge, changes in family upbringing and how it affects their lives.

CONCLUSION: The role of religious knowledge in preparing boys for family life is invaluable. Through the methods and materials presented in the article, the importance of religious education in raising boys to be responsible and morally mature people was revealed. Religious education also helps children to develop respect for family members, responsibility and mutual understanding. The results of the study show that religious knowledge helps boys not only to form moral education, but also to form a stable and happy family life.

Keywords: Boys, family life, religious knowledge, educational influence, moral values, responsibility, society, pedagogy, psychology, Islamic education, Quran, hadiths, family relations, educational methods, raising boys, Sociological questionnaire, interview, observation, personal development, the role of religious education, happy family, spiritual values, Responsibility in society, educational sources, research methods, responsible citizens, pedagogical approach, historical sources

O'zbekistonda o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash, ayniqsa diniy bilimlarning ta'siri haqida gapirganda, bu mavzu juda keng va murakkab bo'lib, diniy, ijtimoiy va psixologik jihatlarga ega. O'zbekiston va boshqa diniy mamlakatlar kontekstida bu masala alohida o'rganishga muhtoj.

O'zbekistonda va Diniy Mamlakatlardagi Dolzarb Muammolar

1. O'zbekistonda o'g'il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash O'zbekistonda oilaviy tarbiya, din va ma'naviyat masalalari, ayniqsa, musulmonlar orasida katta ahamiyatga ega. O'zbekistonning an'anaviy oilaviy tuzilmasi va diniy qadriyatlari oilaviy hayotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Konstitutsiyasida va qonunlarida oilaning muhofazasi va farzandlarni tarbiyalash masalalari ko'zda tutilgan. Biroq, diniy bilimlarning o'ziga xos ta'siri ham sezilarli.

Diniy ta'lim: O'zbekistonda musulmonlar o'rtasida diniy ta'limning ahamiyati oshib bormoqda. Kollejlar va madrasalarda o'g'il bolalar diniy bilimlarni olishmoqda. Bu bilimlar, o'z navbatida, oilaviy hayotga tayyorgarlikda, mas'uliyatni

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

his qilishda, nikohdagi o‘z o‘rnini anglashda, o‘zining va oilasining farovonligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy ta’sir: O‘zbekistonda oilaviy hayotga tayyorgarlik ko‘rsatish bo‘yicha ko‘plab ijtimoiy dasturlar mavjud. Ushbu dasturlar o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularni yaxshi xulq-atvor, odob-axloq, va etika asosida tarbiyalashni maqsad qilgan. Lekin diniy bilimlarning bu jarayonga ta’siri ko‘proq diniy liderlar va ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi.

2. Diniy mamlakatlarda o‘g‘il bolalar tarbiyasi Diniy mamlakatlar (masalan, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Iroq) o‘g‘il bolalarini oilaviy hayotga tayyorlashda ko‘plab diniy qadriyatlar, madaniyat va an’analar mavjud. Diniy ta’lim, odatdagi oila tuzilmasi va ijtimoiy me’yorlar oilaviy hayotga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Diniy o‘rgatish: Diniy mamlakatlarda diniy bilimlarni bolalarga kichkinaligidan o‘rgatish odatiy holat. Ushbu bilimlar, o‘z navbatida, kelajakda to‘g‘ri nikoh va farzandlarni tarbiyalashda asos bo‘ladi.

Ta’lim tizimi: O‘g‘il bolalar, ayniqsa musulmon mamlakatlarda, diniy va axloqiy qadriyatlarni hayotga tatbiq etishni o‘rganadilar. O‘rgatilgan asosiy qadriyatlar oiladagi mas’uliyat, er-xotin o‘rtasida hurmat va mehr-muhabbat, farzandlarning tarbiyasi, va umuman oilaviy ahillikni mustahkamlashga qaratilgan.

O‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda diniy bilimlarning ta’siri

Diniy bilimlar, o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ko‘plab ijobiy ta’sirlar ko‘rsatadi:

Mas’uliyat hissi: Diniy ta’lim, oiladagi har bir insonning o‘z o‘rnini va vazifalarini bilishiga yordam beradi. O‘g‘il bolalar o‘z vazifalarini, oila a’zolariga bo‘lgan hurmat va mas’uliyatni diniy nuqtai nazardan anglaydilar.

Xulq-atvorni shakllantirish: Diniy bilimlar, o‘g‘il bolalarda to‘g‘ri xulq-atvorni, odobni va sabrni shakllantiradi. Bu esa oilaviy hayotda muammolarning oldini olishga yordam beradi.

Nikohga tayyorgarlik: Diniy ta’lim, nikoh institutini hurmat qilishni, er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarni diniy tamoyillar asosida qurishni o‘rgatadi.

Farzand tarbiyasi: Diniy bilimlar, ota-ona bo‘lib, farzandlarni tarbiyalashda qanday mas’uliyatli bo‘lish kerakligini o‘rgatadi. Bu, o‘z navbatida, oilaning barqarorligini ta’minlaydi.

Statistik Ma’lumotlar

O‘zbekiston va boshqa musulmon mamlakatlaridagi oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha statistik ma’lumotlar haqida aniq raqamlar keltirish qiyin bo‘lishi mumkin, ammo ba’zi ijtimoiy tadqiqotlar va so‘rovlar mavjud:

Bundan kelib chiqqan holda ma’lumotlarga asoslanib quyidagi jadvalda namoyon qildik. O‘rganish davomida o‘g‘il bolalarda diniy bilimdan tashqari siyosiy, moddiy va axloqiy jihatdan kamchiliklar mavjud bo‘lib ajrimlarning ko‘payishiga olib kelmoqda.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

1-jadval

№	YIL	NIKOH	AJRIM	FOIZ
1	2016-yil	275.1 ming	29.4 ming	10.7%
2	2017-yil	306 ming	31.9 ming	10.4%
3	2018-yil	311.3 ming	32.3 ming	10.4%
4	2019-yil	195 ming	23.6 ming	12.1%
5	2020-yil	296.8 ming	28.2 ming	9.5%
6	2021-yil	305 ming	39.3 ming	12.9%
7	2022-yil	296.7 ming	48.7 ming	16.4%
8	2023-yii	283.8 ming	49.2 ming	17.3%



	1	2	3	4	5	6	7	8
	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Nikoh	275,1	306	311,3	195	296,8	305	296,7	283,8
Ajrim	29,4	31,9	32,3	23,6	28,2	39,3	48,7	49,2
Foiz	10,70%	10,40%	10,40%	12,10%	9,50%	12,90%	16,40%	17,30%

O‘g‘il bolalarda diniy bilimning nomutanosib tushunchalari mavjudligi sababli bu bo‘shliqni keraksiz xotiralar bilan to‘ldiryapti yani instagram, tivittir, telegram guruhlar va facebook kabi ijtimoiy tarmog‘lar. Saudiya Arabiston

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

metodlaridan kelib chiqib urf odatlar kabi qadriyatlarni, oilada o‘zaro hurmatni, sabr, murosa va ishonchni mustahkamlashga doir ishlarni olib borish zarur. Bu borada o‘rta sinflarda alohida ishlar: o‘quvchi va o‘qituvchi munosabatkarini tartibda solish, dars jarayonida o‘quvchida bo‘lgan yod g‘oyalarni chiqarish, g‘azab, setres nima sabab sodir bo‘layotganini kabi illatlarni bilishi darkor.

O‘zbekistonda diniy ta’limning ahamiyati: 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ma’lum qilishicha, diniy ta’limni olgan yoshlar o‘z oilaviy hayotida yanada mas’uliyatli va an’anaviy qadriyatlarni hurmat qilishadi.

Diniy mamlakatlar bo‘yicha statistik: Masalan, Saudiya Arabistonida, Pokistonda va Misrda, o‘g‘il bolalar diniy bilimlarni o‘rgatishning ta’siri nikohdagi baxtsizlik darajasining pasayishiga va oilaviy barqarorlikka olib kelganligi haqida tadqiqotlar mavjud.

Saudiya Arabistoni:

Saudiya Arabistoni — dunyoning eng muhim musulmon mamlakatlaridan biri bo‘lib, unda Islom dini juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Saudiya Arabistonida o‘g‘il bolalariga diniy ta’limning ta’siri o‘zining an’anaviy va diniy me’yorlariga asoslanadi.

Tadqiqotlar va tahlil:

Saudiya Arabistonida diniy bilimlar o‘g‘il bolalariga boshdan-oyoq hayotiy qadriyatlar va xulq-atvorni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Nikohni Islomiy nuqtai nazar bilan tushunish, mas’uliyat, oila a’zolariga mehr, hurmat va adolatni ta’minlash kabi tushunchalar o‘rgatiladi.

Tadqiqot (Al-Khadhiri, 2014) shuni ko‘rsatadiki, diniy ta’lim olingan oilalarda nikohdagi baxtsizlik darajasi pasaygan. Chunki diniy bilimlar nikohdagi mas’uliyatni, tenglikni va bir-biriga bo‘lgan hurmatni oshiradi. Baxtsizlikni kamaytiradigan omillar sifatida: sabr, murosa, ishonch va o‘zaro hurmatni ko‘rsatish mumkin.

Tadqiqotlar va tahlil:

Pokistonda diniy bilimlar o‘rgatish o‘g‘il bolalarga o‘z oilasini boshqarish, mas’uliyatni o‘z zimmalariga olish va ularni adolatli tarzda tarbiyalashga yordam beradi. Nikoh va oila muhim institut sifatida diniy ta’limda o‘z o‘rnini topadi.

Pokistonlik tadqiqotchilar (Tariq et al., 2016) shuni ta’kidlashganki, diniy bilimlarga ega bo‘lgan o‘g‘il bolalar o‘z oila a’zolariga yanada mas’uliyatli yondashadilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, diniy ta’lim bilan tarbiyalangan oilalarda ajrimlar darajasi past bo‘lib, nikohdagi baxtsizlik darajasi kamaygan.

Misr: Misrda Islom dini tarbiyadagi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, diniy ta’lim ham oilaviy barqarorlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Misrda diniy ta’limning oilaviy hayotga ta’siri haqida ko‘plab ilmiy ishlar mavjud.

Tadqiqotlar va tahlil:

Misrda amalga oshirilgan tadqiqotlar (El-Amin, 2018) shuni ko‘rsatdiki, diniy ta’lim olingan o‘g‘il bolalar oilaviy hayotda o‘z o‘rnini topish, mas’uliyatni anglash va bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishda yuqori ko‘rsatkichlarni namoyish etishadi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Misrda diniy bilimlarning ta’siri oila barqarorligini oshirishga olib keladi, nikohdagi baxtsizlik va ajrimlar darajasini kamaytiradi. O‘g‘il bolalar oilaning boshqaruvchisiga aylanishi, bir-biriga hurmat ko‘rsatish va xotirjamlikni saqlashga o‘rgatiladi. Shuningdek, diniy qadriyatlar ajrimlarning oldini olishda va oilaviy munosabatlar barqarorligini ta’minlashda muhim omil sifatida qaraladi.

Hurmat va Islomiy etika: Diniy ta’lim oilaviy hurmat va adolatga asoslangan. O‘g‘il bolalar, Islomda oila a’zolariga bo‘lgan hurmat, mehr-muhabbat, va bir-biriga yordam berishni o‘rganadilar.

Sabrlilik va muloqot: Diniy ta’lim sabr, muloqot va bir-birini tushunishni rivojlantiradi. Bu nikohdagi baxtsizlikni kamaytiradi va ajrimlarning oldini oladi.

Nikoh va oilaviy baxt: Diniy ta’lim, nikohni faqatgina qonuniy emas, balki ruhiy, axloqiy va ma’naviy jihatdan ham to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Bu o‘z navbatida nikohdagi baxtsizlik va ajrimlarning kamayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Al-Xadxiriy, M. (2014). "Saudiya Arabistonida diniy ta’limning oila barqarorligiga ta’siri."*Islomshunoslik jurnali*.
2. Tariq, R., va boshq. (2016). "Islomiy ta’limning Pokistondagi oila va oilaviy barqarorlikka ta’siri."*Ijtimoiy Fanlar tadqiqotlari jurnali*.
3. El-Amin, A. (2018). "Misrda nikoh va oila barqarorligida diniy ta’limning o‘rni."*Yaqin Sharq oilaviy tadqiqotlar jurnali*.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 1990-yilda yozilgan "Baxtiyor oila" kitobi.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Qo‘ldoshev Shahzod Navro‘zovich
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri Jondor tumani
qoldoshevshazod@dmail.com

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

AYOLLARDA IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Baxronova Shoira Yadgorovna
Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot unversiteti o'qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobilyat va imkoniyatlarini ruyobga chiqarishi uchun turli shart-sharoit yaratish onalik va bolalikni har tamonlama qo'llab-quvvatlash va oila ijtimoiy institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, har qanday jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy yetukligi ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Xotin-qizlarni hurmat qilish, ularning jamiyat rivojidagi hissasini munosib baholash, ularga barcha masalalarda ko'maklashish – bularning barchasi qadimdan xalqimizga xos.

Ushbu maqolada ayollarda ijtimoiy faolligni oshirishning psixologik xususiyatlari haqida nazariy fikrlar ilgari surilgan.

MAQSAD: Ayollarda ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish va ilmiy o'rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR: 2021-yil 26-fevral kuni xotin-qizlarning muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qo'llabquvvatlash masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida respublikamizdagi ijtimoiy muammolari mavjud xotin-qizlarga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha bir qator vazifalar muhokama qilindi.

Ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim hisoblanadi. Ularning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi gender tengligini ta'minlash va innovatsion taraqqiyotga hissa qo'shadi. Biroq, ayollarning faolligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillar mavjud bo'lib, ularni yengish uchun muayyan psixologik mexanizmlar ishlatilishi lozim.

XULOSA: Ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish ularning o'ziga bo'lgan ishonchi, bilim va ko'nikmalarining rivojlanishi, jamiyatning qo'llab-quvvatlashi va gender stereotiplarni yengish bilan bog'liq. Shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish, yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy tarmoqlarda faol

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

bo‘lish ayollarga keng imkoniyatlar yaratadi. Bu psixologik mexanizmlar orqali ayollarning jamiyatdagi ishtiroki ortadi va ular jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shishadi.

Kalit so‘zlar: ichki motivatsiya, gender tengli, muloqot, o‘zini anglash va qadrlash, ijtimoiy-siyosiy faollig.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН

Бахронова Шоира Ядгоровна
Преподаватель Бухарского университета инновационного образования и медицины

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В результате проводимых в нашей стране реформ и созидательной работы меняется мышление и мировоззрение нашего народа. В нашей стране проводится масштабная работа по повышению общественно-политической активности женщин, созданию им разнообразных условий для реализации своих способностей и потенциала в различных сферах и отраслях, всесторонней поддержке материнства и детства, укреплению социального института семьи. Ведь культурный уровень и духовная зрелость любого общества определяются его отношением к женщине. Уважение к женщинам, понимание их вклада в развитие общества, оказание им помощи во всех делах — все это издавна присуще нашему народу.

В статье представлены теоретические представления о психологических особенностях повышения социальной активности женщин.

ЦЕЛЬ: Проанализировать и научно изучить психологические особенности повышения социальной активности женщин.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: 26 февраля 2021 года на совещании в режиме видеоконференции по обсуждению вопросов решения проблем женщин и оказания им социальной поддержки был обсужден ряд задач по оказанию комплексной помощи женщинам с социальными проблемами в нашей республике.

Повышение социальной активности женщин имеет важное значение для развития общества. Их активное участие в политической, экономической, культурной и общественной жизни способствует гендерному равенству и инновационному развитию. Однако существуют факторы, препятствующие повышению активности женщин, и для их преодоления необходимо использовать определенные психологические механизмы.

ВЫВОД: Повышение социальной активности женщин связано с их уверенностью в себе, развитием знаний и навыков, поддержкой со стороны общества и преодолением гендерных стереотипов. Кроме того, использование цифровых технологий, развитие лидерских качеств и активность в социальных сетях открывают большие возможности для женщин. Благодаря этим

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

психологическим механизмам участие женщин в жизни общества возрастает, и они вносят большой вклад в его развитие.

Ключевые слова: внутренняя мотивация, гендерное равенство, коммуникация, самосознание и самооценка, социально-политический активизм.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF INCREASING SOCIAL ACTIVITY IN WOMEN

Bakhronova Shoira Yadgorovna
Teacher of the Bukhara University of Innovative Education and Medicine

Annatation.

INTRODUCTION: As a result of the reforms and creative work being carried out in our country, the thinking and worldview of our people are changing. In our country, extensive work is being carried out to increase the socio-political activity of women, create various conditions for their realization of their abilities and potential in various fields and sectors, provide comprehensive support for motherhood and childhood, and strengthen the social institution of the family. After all, the cultural level and spiritual maturity of any society is determined by its attitude towards women. Respect for women, appreciating their contribution to the development of society, and assisting them in all matters - all this has long been inherent in our people.

This article puts forward theoretical ideas about the psychological characteristics of increasing social activity in women.

GOAL: To analyze and scientifically study the psychological characteristics of increasing social activity in women.

MATERIALS AND METHODS: On February 26, 2021, a videoconference meeting was held to discuss issues of solving women's problems and providing them with social support. A number of tasks were discussed to provide comprehensive assistance to women with social problems in our republic.

Increasing the social activity of women is important for the development of society. Their active participation in political, economic, cultural and social life contributes to ensuring gender equality and innovative development. However, there are factors that hinder the increase in women's activity, and certain psychological mechanisms must be used to overcome them.

CONCLUSION: Increasing the social activity of women is associated with their self-confidence, development of knowledge and skills, support from society, and overcoming gender stereotypes. Also, the use of digital technologies, the development of leadership skills, and being active on social networks create broad opportunities for women. Through these psychological mechanisms, women's participation in society increases and they make a significant contribution to the development of society.

Keywords: intrinsic motivation, gender equality, communication, self-awareness and self-esteem, socio-political activism.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p
2025, № 2

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobilyat va imkoniyatlarini ruyobga chiqarishi uchun turli shart-sharoit yaratish onalik va bolalikni har tamonlama qo‘llab-quvvatlash va oila ijtimoiy institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, har qanday jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy yetukligi ayollarga munosabati bilan belgilanadi. Xotin-qizlarni hurmat qilish, ularning jamiyat rivojidagi hissasini munosib baholash, ularga barcha masalalarda ko‘maklashish – bularning barchasi qadimdan xalqimizga xos.

